Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova, N. (2023). Edutainment texnologiyalari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda dinamik yondashuvni ta'minlaydi. "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, 15(3), 45-52.
2. Karimov, R. (2022). Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. "Pedagogik tadqiqotlar" jurnali, 10(2), 78-85.
3. Usmonova, M. (2024). Muammoga asoslangan ta'lim o'quvchilarning ijodkorlik va tadbirkorlik qobiliyatini kuchaytiradi. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" jurnali, 12(1), 23-30.
4. Xo'jayev, A. (2021). Interaktiv o'qitish va muammoga asoslangan ta'lim usullari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshirishga yordam beradi. "Ilmiy xabarnoma" jurnali, 8(4), 60-67.
5. Sobirova, D. (2023). Zamonaviy oliy ta'limda qo'llaniladigan yetti innovatsion o'qitish usuli o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. "Ta'lim rivoji" jurnali, 9(5), 33-40.



UDC: 669.046.444

**FINAL REDOXIDATION OF COPPER AND BRONZE ALLOYS
EXPERIMENTAL AND INDUSTRIAL ANALYSIS****Abdurafiqov Behzod Anvarjon o'g'li**Assistant, Registrar's Office Manager, Almalyk branch of TSTU abdurafikovbekhzod@gmail.com**Raximboyev Sherzodjon Ikrom o'g'li**

Assistant, Registrar's Office Manager, Almalyk branch of TSTU

sherzodjonraximboyev2@gmail.com**Abstract**

This thesis presents an experimental and industrial study of the final redoxidation of copper and bronze alloys. Oxygen pickup during reoxidation was measured under laboratory and industrial conditions. The effects of oxygen on microstructure, mechanical strength, and electrical conductivity were analyzed.

Introduction

Redoxidation is a common issue in non-ferrous foundries, leading to oxide inclusions, porosity, and reduced properties. While theoretical models exist, experimental validation is required to understand real-world behavior. This research investigates reoxidation in copper, tin bronze, aluminum bronze, and silicon bronze, both in laboratory furnaces and industrial foundries.

Materials and Methods

Copper and bronze alloys were melted in induction furnaces equipped with precise temperature control (± 3 K) under protective argon and nitrogen atmospheres to minimize uncontrolled oxidation. Prior to experiments, crucibles were preheated to remove residual moisture. Following deoxidation treatments, melts were deliberately re-exposed to oxidizing atmospheres (air and controlled O_2/Ar gas mixtures) for fixed durations ranging from 30 seconds to 10 minutes, allowing systematic study of final reoxidation behavior. The dissolved oxygen content in solidified samples was analyzed using a LECO TCH600 inert gas fusion analyzer, with a detection limit of 2 ppm, ensuring high precision in oxygen quantification. For reliability, three measurements were performed for each sample, and the average value was reported with a standard deviation. Microstructural investigations included optical microscopy (etched and polished specimens) to observe general grain morphology and oxide distribution. Detailed characterization of inclusions and oxide phases was performed using scanning electron microscopy (SEM) with energy dispersive spectroscopy (EDS) to determine chemical composition, and X-ray diffraction (XRD) to identify crystalline oxide phases such as Cu_2O , SnO_2 , Al_2O_3 , and SiO_2 . In selected cases, electron backscatter diffraction (EBSD) was used to study inclusion–matrix interactions and grain boundary



effects.

Mechanical properties were evaluated by tensile testing (ASTM E8 standard) to determine ultimate tensile strength, yield strength, and elongation, and by Vickers hardness measurements with a 5 kgf load. To assess functional performance, electrical conductivity was measured using a four-point probe method and expressed as %IACS (International Annealed Copper Standard). Results were compared with reference values from industrially produced copper and bronze alloys to assess the influence of reoxidation on end-use performance. Complementary fractography studies were carried out on fracture surfaces after tensile testing using SEM to identify failure mechanisms, particularly the role of oxide inclusions in initiating cracks. In addition, density measurements were performed by the Archimedes method to evaluate porosity associated with gas absorption during reoxidation. This integrated methodology—combining thermodynamic and kinetic modeling, precise oxygen measurement, microstructural characterization, and mechanical/electrical property evaluation—enabled a comprehensive understanding of how final reoxidation affects the quality, performance, and reliability of copper and bronze alloys.

Results and Discussion

Pure copper showed oxygen pickup from 25 ppm to 115 ppm within 2 minutes of air exposure. Bronzes showed even higher oxygen absorption, with silicon bronze reaching 170 ppm. Microstructural analysis revealed Cu_2O , SnO_2 , Al_2O_3 , and SiO_2 inclusions, which caused porosity and reduced ductility. Tensile strength decreased by 20–35% across all alloys. Electrical conductivity in pure copper decreased from 99% IACS to 82% IACS after reoxidation. Industrial samples exhibited similar degradation, confirming laboratory trends.

Conclusion

Final redoxidation has severe effects on copper and bronze alloys, reducing mechanical and electrical properties. Silicon bronze was found most sensitive to oxygen pickup. The results highlight the need for strict atmosphere control during melting and casting to minimize defects.

References

- [1] ASM International, *Metals Handbook Desk Edition*, 2nd ed. Materials Park, OH: ASM Int., 2011.
- [2] W. Schulz and B. Friedrich, “Oxygen solubility and oxidation control in molten copper and its alloys,” *Metall. Mater. Trans. B*, vol. 47, no. 5, pp. 2890–2901, 2016.
- [3] LECO Corporation, *TCH600 Oxygen, Nitrogen, Hydrogen Analyzer: Instruction Manual*, LECO Corp., St. Joseph, MI, USA, 2015.
- [4] B. D. Cullity and S. R. Stock, *Elements of X-ray Diffraction*, 3rd ed. Boston: Pearson,



2014.

[5] J. I. Goldstein et al., *Scanning Electron Microscopy and X-ray Microanalysis*, 5th ed. New York: Springer, 2018.

[6] ASTM International, *ASTM E8/E8M-16a: Standard Test Methods for Tension Testing of Metallic Materials*, West Conshohocken, PA: ASTM, 2019.

[7] ASTM International, *ASTM E384-17: Standard Test Method for Microindentation Hardness of Materials*, West Conshohocken, PA: ASTM, 2017.

[8] ASTM International, *ASTM E1004-14: Standard Test Method for Determining Electrical Conductivity Using the Electromagnetic (Eddy-Current) Method*, West Conshohocken, PA: ASTM, 2014.

[9] G. E. Totten and D. S. MacKenzie, *Handbook of Aluminum: Physical Metallurgy and Processes*. New York: Marcel Dekker, 2003.



UDC: 669.046.444

**NASOSLARNING YEYILISH SABABLARI VA ULARNING BARDOSHLILIGINI
OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI****Raximboyev Sherzodjon Ikrom o'g'li***Assistant, Registrar's Office Manager, Almalyk branch of TSTU*sherzodjonraximboyev2@gmail.com**Abdurafiqov Behzod Anvarjon o'g'li***Assistant, Registrar's Office Manager, Almalyk branch of TSTU* abdurafikovbekhzod@gmail.com**Annotatsiya**

Nasoslar sanoat jarayonlarida muhim o'rin tutib, suyuqlik va gazlarni tashish, bosim hosil qilish, issiqlik va sovutish tizimlarida aylanishni ta'minlash hamda jarayonlarning uzluksizligini kafolatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq ularning intensiv ishlatilishi, abraziv zarrachalar ta'siri, kavitatsiya, korroziya, yuqori harorat, shuningdek noto'g'ri ekspluatatsiya sharoitlari oqibatida tez yeyilishga uchraydi. Bu jarayon samaradorlikning pasayishi, energiya sarfining ortishi, ishlab chiqarish jarayonlarining to'xtashi va iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Ushbu tezisda yeyilish sabablari, oqibatlari hamda bardoshlilikni oshirishning zamonaviy usullari: yuqori qattiqlikdagi materiallardan foydalanish, issiqlik va kimyoviy ishlov berish, keramik, polimer va nanostrukturali qoplamalar, monitoring texnologiyalari, kompozit materiallardan foydalanish keng yoritilgan.

Kalit so'zlar

Nasos, yeyilish, kavitatsiya, korroziya, abraziv zarrachalar, issiqlik ishlovi, qoplama, nanostruktura, samaradorlik, xizmat muddati.

Kirish

Nasoslar turli sanoat tarmoqlarida, jumladan neft-gaz sanoatida neft va gaz kondensatini tashishda, kimyo sanoatida agressiv kimyoviy muhitlarni peristaltik va markazdan qochma usullar bilan uzatishda, energetikada sovitish tizimlarini ishlatishda hamda suv ta'minoti sohasida aholi va korxonalarini suv bilan ta'minlashda asosiy texnologik uskuna hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa va Osiyodagi yirik ishlab chiqarish korxonalarida elektr energiya iste'molining 20–25 foizi nasos uskunalari ulushiga to'g'ri keladi. Shu sababli ularning ishonchliligi va bardoshlilikgi ishlab chiqarish samaradorligi hamda iqtisodiy barqarorlikni belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir.

Asosiy qism

Nasoslarning yeyilishi ko'plab sabablar bilan bog'liq bo'lib, sanoat sharoitida ular ko'pincha abraziv zarrachalar, kavitatsiya, korroziya va yuqori harorat ta'sirida kuzatiladi. Tog'-kon sanoatida ishlatiladigan pulpa nasoslari rudali zarrachalarning ishqalanishi natijasida tez ishdan chiqadi. Bu turdagi nasoslarning xizmat muddati ko'pincha 1–1,5 yilni tashkil etadi



va oddiy suv nasoslariga qaraganda ancha qisqa. Kavitatsiya esa nasos ichida bosimning keskin pasayishi natijasida suyuqlikdan bug' pufakchalari ajralib chiqishi va ularning yorilishi oqibatida yuz beradi. Hosil bo'lgan mikroportlashlar metall yuzasini yemiradi va eroziya tezligini oddiy korroziyaga qaraganda 10–15 barobar tezlashtiradi. Kimyo sanoatida ishlatiladigan nasoslar kuchli kimyoviy muhit ta'sirida korroziyaga duchor bo'ladi. Agar ular zanglamaydigan po'latdan tayyorlanmagan bo'lsa, qismlarning xizmat muddati atigi 6–12 oy bo'lishi mumkin. Energetika tizimlarida sovituvchi suyuqlik bilan 150–200 °C haroratda ishlovchi nasos detallarining mexanik mustahkamligi 20–25 foizgacha kamayadi. Noto'g'ri ekspluatatsiya sharoitlari, masalan, nasosni “quruq holda” ishga tushirish, moylashning yetarli emasligi yoki ortiqcha yuklama berilishi ham yeyilishni tezlashtiruvchi muhim omillardandir.

Yeyilishning oqibatlari sanoat ishlab chiqarishida katta iqtisodiy zararlarni keltirib chiqaradi. Samaradorlikning 15–20 foizga pasayishi, energiya sarfining ortishi, avariyaaviy to'xtashlar va ishlab chiqarish jarayonlarining uzilishi nafaqat mahsulot tannarxini oshiradi, balki korxona faoliyatida uzoq muddatli yo'qotishlarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli yeyilishga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Yeyilishni kamaytirish uchun bir nechta yo'nalishlar mavjud. Avvalo, yuqori qattqlik va korroziyaga chidamli materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tog'-kon sanoatida volfram karbidli ishchi g'ildiraklar oddiy po'lat g'ildiraklarga nisbatan uch baravar ko'proq xizmat qiladi. Issiqlik ishlovlari, xususan azotlash va borlash orqali nasos detallarining qattqligi oshiriladi va xizmat muddati 30–40 foizga uzaytiriladi. Keramik va polimer qoplamalar esa kavitatsiyaga va kimyoviy ta'sirlarga qarshi samarali himoya beradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, epoksi qoplama bilan himoyalangan nasoslarning xizmat muddati ikki barobar ko'proq bo'ladi.

So'nggi yillarda nanostrukturali qoplamalar, lazerli qotirish va ion-plazmali azotlash texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar sirt qatlamini mustahkamlash orqali yeyilish tezligini kamaytiradi. Shuningdek, monitoring tizimlari ham nasoslarning ishonchliligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Vibratsion, bosim va harorat sensorlari yordamida yeyilishning dastlabki belgilari aniqlanib, avariyaaviy buzilishlarning oldi olinadi.

Nasoslarning ishonchliligini oshirishda kompozit materiallar va nanostrukturali qotishmalarning ahamiyati katta. Polimer, metall va keramik matritsaga ega kompozitlar an'anaviy materiallarga qaraganda yengil, bardoshli va uzoq muddatli hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning qo'llanilishi xizmat muddati 1,5–2 barobar oshishi va energiya sarfining 10–15 foizga kamayishi bilan natijalanadi. Shu tariqa, nasoslarning yeyilishga qarshi bardoshliligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi: material tanlash, issiqlik va kimyoviy ishlov berish, zamonaviy qoplamalardan foydalanish, ekspluatatsiyani optimallashtirish hamda muntazam texnik xizmat ko'rsatishning uyg'unligi eng yaxshi samarani beradi.

**Xulosa**

Nasoslarning yeyilishi sanoatning barcha tarmoqlarida uchraydigan murakkab muammo bo'lib, u ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi va iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Yeyilishning asosiy sabablari — abraziv zarrachalar, kavitatsiya, korroziya va yuqori haroratdir. Ushbu omillarning oldini olish uchun yuqori qattqlikdagi materiallardan foydalanish, issiqlik ishlovi, nanostrukturali va kompozit qoplamalarni qo'llash, monitoring tizimlarini joriy etish va ekspluatatsiyani optimallashtirish zarur. Kompleks yondashuv orqali nasoslarning xizmat muddati 1,5–2 barobar oshirilishi, samaradorligi ortishi va ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каширин, И. И. Насосы и насосные станции: учебное пособие. — М.: Академия, 2019. — 412 с.
2. Кузнецов, В. Н., Филиппов, А. П. Техническая эксплуатация насосного оборудования. — СПб.: Питер, 2020. — 356 с.
4. Современные покрытия для насосов [Электронный ресурс]. — Полив Москва. — Режим доступа: <https://polivmsk.ru> (дата обращения: 18.08.2025).
5. Технологии защиты насосов от кавитации и износа [Электронный ресурс]. — Кабель.РФ. — Режим доступа: <https://kabelrf.ru> (дата обращения: 18.08.2025).



INTAKT KALAMUSHLARDAGI LIPAZA FERMENTINING GOMEOSTAZI VA RESIRKULYATSIYASI

Kuranova Sevaraxon Saidolimovna
Andijon davlat tibbiyot instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Tajribada kalamushlarda olingan natijalarimizga ko'ra lipaza fermentining dinamikasi va resirkulyatsiyasi kuzatildi. Va bu bir qancha kasalliklarni tashxislashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: lipaza, trigliseridlar, giperlipazemiya, qandli diabet, fosfolipaza, gomogenat.

Abstract

In the experiment, according to the results obtained in rats, the dynamics and recirculation of the lipase enzyme were observed. And this is important in the diagnosis of a number of diseases.

Keywords: lipase, triglycerides, hyperlipaseemia, diabetes mellitus, phospholipase, homogenate.

Me'da osti bezi shirasi tarkibida amalda odam iste'mol qiladigan barcha oqsil, yog', karbonsuv kabi makronutrientlarni gidrolizlovchi fermentlar ajraladi.

Pankreatik lipaza ovqat tarkibidagi yog'larni (triglitsidlar) parchalovchi yagona ferment. Triglitseridlar suvda erimaydi, lipaza yog'ni yuzasida o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun yog' yuzasi qancha katta bo'lsa, uning gidrolizi shuncha faolroq amalga oshadi. Lipaza atsinositlarda faol holda sintezlanadi. Kalsiy ionlari, natriy xlor, o't kislotalari lipaza faolligini orttiradi.

Fosfolipazalar atsinositlarda nafaol holda sintezlanadi, tripsin ta'sirida faollashadi, fosfolipidlarni gidrolizlaydi.

Bizning kuzatuvimizda bo'lgan hayvonlarda o'rgangan ferment lipaza bo'lib, ushbu ferment qonga asosan me'da osti bezi va jigar to'qimasidan tushadi [3; 396-b.; 2; 212-b.; 1; 318-b.] Pankreatik gidrolazalar glandulotsit atsinar hujayralaridan me'da osti bezi chiqaruv yo'llari va ingichka ichakdan limfa orqali qon aylanishiga o'tadi.

Qondagi lipaza faqatgina me'da osti bezidan bevosita qonga o'tgan bo'lmasdan, uning bir qismi 12 barmoqli ichakdan so'rib olingan lipaza hamdir [4; 1191-1192-b.; 1; 318-b.].

Olingan natijalarimizga ko'ra biz o'rgangan intakt kalamushlar me'da osti bezi gomogenatida (jadval 1) lipolitik faollik $38,7 \pm 1,4$ ni va qondagi ushbu ferment faolligi $2,2 \pm 0,1$ ni tashkil qildi.

XX asrning oxirlarida qondagi lipazani o'rganishga e'tibor ortib ketdi. Poge et al. [1976] fikricha qondagi lipaza diagnostik material sifatida o'rganilsa, qonda amilazani aniqlashga



hojat qolmaydi, chunki lipaza me'da osti bezi xususiy fermenti bo'lib faqat ushbu bez kasalliklarini aniqlashga juda qulaydir. O'tkir pankreatit paytida albatta giperlipazemiya kelib chiqadi va giperamilazemiyaga nisbatan davomliroq bo'ladi. G.F.Korotko [1983] keltirgan adabiyotlar taxlilida ko'p kasalliklar giperlipazemiya keltirib chiqarishini yozgan kasalliklarga o'tkir pankreatit, me'da osti bezi rak kasalligi (me'da osti bezi chiqaruv yo'li berkilib qolishi), gepatit (jigar to'qima parenximasi yemirilishi yoki qo'shimcha pankreatit ham bo'lishi), jigar sirrozi kiradi. Ayrim hollarda qandli diabet va o'nikki barmoqli ichak yara kasalligida ham giperlipazemiya kuzatilishi mumkin. Ichak tutilishi paytida barcha holda qondagi lipaza miqdori ortishi kuzatiladi.

Adabiyotlarning taxlili shuni ko'rsatadiki qaysi kasallikda giperlipazemiya kelib chiqsa bu jarayonga me'da osti bezi kasalligi ham qo'shilganidan dalolat beradi. Lorentz [1980] o'tkir, o'tkir qaytalanuvchi va surunkali qaytalanuvchi pankreatitda qondagi amilaza 55% ga va lipolitik faollik 93% ga ortganligini keltiradi.

Bizning kuzatuvimizdagi kalamushlarda olingan natijalarimiz qondagi lipolitik faollikni me'da osti bezidagi ushbu ferment faolligiga yuqori bog'liqlik borligini ko'rsatmoqda, korrelyatsion koeffitsiyent 0,87 ga tengligi aniqlangan, ya'ni qondagi lipaza asosan me'da osti bezi maxsuli ekanligini ko'rsatmoqda (jadval 1). **1 – jadval**

Nazorat guruxi kalamushlari me'da osti bezi va qonidagi fermentlar faolligi va ularning bog'liqligi, korrelyatsion kattaligi

Fermentlar	Me'da osti bezi gomogenatida	Qon zardobida	Korrelyatsion koeffitsient
Lipaza	38,7±1,4	2,2±0,1	0,87

Izoh: lipolitik aktivlik massasi x 1000: Ushbu jadvalda P nazorat ko'rsatkichiga nisbatan o'zgarishni ishonchliligi.

Nazorat guruxidagi kalamushlardan olingan natijalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi: Me'da osti bezi barcha makronutrientlarni gidrolizlovchi fermentlar (amilaza, lipaza va proteazalar) ni sintezlab, bir vaqtning o'zida ham ekzo- va ham endosekretsia qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Губергриц Н.В. Практическая панкреатология. Донецк. 2008. 318 с.
2. Коротко Г.Ф. Ферменты пищеварительных желез в крови (очерки о ферментном гомеостазе). – Ташкент: Медицина, 1983. – 212 с.
3. Подильчак М.Д. Клиническая энзимология. Киев: Здоровье. 1967.
4. Papp M., Feher S., Folly G. et al. Absorption of pancreatic lipase from the duodenum into Lymphatics – Experientia, 1977, 33, 9, 1191-1192.

*QADIMGI ERON SIVILIZATSIYASI BO'YICHA MANBALAR VA NAZARIY
YONDASHUVLAR*

***O'zMU Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti
Otajonova Gulnoza Karimjon qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqola qadimgi Eron sivilizatsiyasi, uning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va dunyo sivilizatsiyasiga ta'siri haqidagi mavjud manbalar va nazariy yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda mixxat yozuvlari, arxeologik qazilmalar, qadimgi yunon va rim tarixchilari asarlari kabi asosiy manbalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy tarixshunoslikdagi turli nazariy yondashuvlar, xususan, Eron sivilizatsiyasini tushunishga oid tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va etno-siyosiy nazariyalar chuqur o'rganiladi. Maqola bu sohadagi tadqiqotlarning dolzarbligini ko'rsatib, mavjud manbalar asosida yangi ilmiy xulosalarga erishishga xizmat qiladi.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу источников и теоретических подходов к изучению древней иранской цивилизации, её возникновения, этапов развития и влияния на мировую цивилизацию. В работе рассматриваются ключевые источники, включая клинописные тексты, археологические находки, а также труды древнегреческих и римских историков. Особое внимание уделяется различным теоретическим подходам в современной историографии, в частности, культурно-историческим, социально-экономическим и этнополитическим теориям, которые помогают понять феномен иранской цивилизации. Статья подчёркивает актуальность исследований в этой области и способствует получению новых научных выводов на основе имеющихся источников.

Annotation: This article analyzes the sources and theoretical approaches to the study of the ancient Persian civilization, its origins, stages of development, and influence on world civilization. It examines key sources, including cuneiform texts, archaeological findings, and the works of ancient Greek and Roman historians. The paper also delves into various theoretical approaches in modern historiography, particularly the historical-cultural, socio-economic, and ethnopolitical theories that contribute to understanding the phenomenon of Persian civilization. The article highlights the relevance of research in this field and aims to draw new scientific conclusions based on the available sources.

Qadimgi Eron xilma - xil yozma manbalarga boy hujjatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa Eron saltanati tarixi bilan bog'liq yozma manbalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasida xo'jalik hujjatlari, tarixiy yozuvlari, podsholarningviloyat hukmdorlarga yuborgan farmonlari, buyruqlari ko'rsatmalari, amaldorlarning bir - birlariga yozgan maktublari, ayrim shaxslarning xatlari, diniy, ilmiy va adabiy tekstlar shular jumlasidandir. Ularning eng qadimgilari m. av. III - I ming yillikka oid elam tarixi haqidagi turli mazmundagi matnlarki,



ular elam va akkad tillarida yozilgan.

Hozirgi kungacha 200 ga yaqin shoh ponasimon (mixsimon) yozuvlari orasida Kirmon shahrining sharqidagi Behistun qoyasiga o'yib yozilgan katta xat juda muhim ahamiyatga egadir. Bu yozuvda Eron shohi Dori I Ko'mbiz (Kambiz) o'lgandan keyin mamlakatda ko'tarilgan qo'zg'alonni qanday qilib bostirganini, barcha isyonchilarni qanday tor - mor qilganini, saklarga qarshi qo'shin tortib borib, Eron davlatining butunligini qanday qilib tiklanganini va boshqa siyosiy voqealarni mufassal ta'riflanadi. Suvaysh kanali xududida saqlangan va Misr tiliga tarjima qilingan qadimgi Eronning ponasimon mixxati ham shu shohga mansubdir.

Doro I ning muhim yozuvlaridan biri Persepol shahridan bir necha km. shimoldagi Naqshi - Rustam qoyasiga yozilgan yozuvlardir. Bu yozuvda Eron shohligi tarkibida bo'lgan mamlakatlar va viloyatlarning ro'yhati berilgan. Shuningdek Suza shahridan ham g'isht va marmar lavhalarga bitilgan ko'p yozuvlar borki, unda Doro I ning Suza saroyi qurilishi bilan bog'liq faoliyati haqida ma'lumot beriladi.

1972 yilda fransuz arxeologlari Suzadan Doro I ning uch metr balandlikdagi haykalini topganlar. Haykalda shohning boshi saqlanmagan qadimgi eroniy, elam va akkad iyerogliflari matnida misr tilida yozilgan. Persepol va Pasargadadan esa Kserks yozuvlari topilgan. Bu yozuv qadimgi eronliklarning dinini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Unda qadimgi qabila xudolari - man etilib, davlatga sig'inish rasm qilingani aytilgan.

Eroniylarning diniy e'tiqodi va qarashlarini o'rganishda zardushtiylik dinining 21 kitobdan iborat, Avesto ham qimmatli manba hisoblanadi. Beruniy xabariga ko'ra "Avesto" 12 ming qoramol terisidan tayyorlanagan varroqqa tillo suvi bilan yozilgan ekan.

Persopoldan m. av. VI-V asrlarda elam tilida yozilgan bir necha ming ponasimon hujjatlar topilgan. Bu matnlar shoh arxivining bir bir qismi bo'lib, unda oziq - ovqat maxsulotlarini tashish, soliqlar masalasi, davlat amaldorlarini maosh bilan ta'minlash kabilar haqida ma'lumot beriladi.

Qadimgi eroniy qabilalari haqida m. av. IX - VII asrga mansub ossur yozuvlari ham qimmatli ma'lumot beradi. Bobilning tarixiy hujjatlarida Eron qo'shinlarining Mesopotamiyani bosib olinishi bayon etilgan. Bu voqealar haqida akkad tilida tuzilgan Silindr Kir II da ham bayon etiladi. O'sha davrda Eron xududida aramey tili ham keng tarqalgan edi. Aramey tilida yozilgan papiruslarda, toshlarda, terilarda, muxr va tangalarda arameycha yozuv ko'p tarqalgan edi. Bu yozuvlar Misrdagi Elefantin orasidagi, Hind daryosigacha bo'lgan joylarda, shuningdek Eronda ham keng tarqalgan edi. Bu hujjatlarda eron tarixi va madaniyati, aholining xo'jalik hayoti haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan.

Eronliklarning Misrni istilo qilgan va Eron shohlarining misrda hukmronlik qilgan zamondagi Misr yozuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan Saysdagi ma'buda Neytning bosh ruhoniysi kohin Ujagorryasentning yozuvi ham Misrning oliy kohini bilan Eron shohi o'rtasidagi o'zaro munosabatni aniqlashga imkon beradi. Demak, Erondan va unga tutash



yerlarda topilgan xilma - xil yozuvlar qadimgi Eron tarixi va madaniyatini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Qadimgi Eron tarixi moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishda arxeologik qazishlar natijasida topilgan buyumlar ham katta ahamiyatga egadir. Eronda dastlabki arxeologik qazish ishlari XIX asr o'rtalarida boshlangan. Arxeolog Flanden va Kosta Persepoldagi saroyda dastlabki arxeologiya qazish ishlarini olib boradilar. Ular bu yerda xhaykaltaroshlikka oid yodgorliklarni topishga muyassar bo'ladilar va Eron shohlarining taxt zalini tiklamoqchi bo'ladilar. XIX asrning oxirlarida esa de - Morgan Suzada ulkan arxeologik qazish ishlari o'tkazib, tosh qurollar ishlatilgan eng qadimgi (arxaik) zamonlardan to Eron davlatining ravnaq topgan davrigacha, ya'ni Suza Eronning muhim ma'muriy va madaniy markazlardan biri bo'lgan davrgacha yetib kelgan bir qancha raxeologik qatlamlarni topdi. Nihoya XX asrda Qadimgi Eronning poytaxti Persepolda arxeologik qazish ishlari o'tkazildi. Qazishlar natijasida bu yerdan katta bir saroyning harobalari topib o'rganildi. Saroy devorlariga bo'rtma - qabariq rasmlar solib bezatilgan keng zinapoyadan chiqilgan. Katta - katta darvozalar oldiga esa shoh saroylarini qo'riqlovchi bahaybat qanotli buqalarning haykallar ishlangan.

Persopoldan topilgan ajoyib san'at yodgorliklari orasida shohning surati shuningdek ilohga turli xil sovg'a - salomlar olib kelayotgan xiroj to'lovchi qabilalarning surati ayniqsa qiziqarlidir. Keyingi vaqtlarda Eron arxeologiyasiga qiziqish kuchaydi. Arxeologlar - qadimshunoslar Tanjedar, Tepa - Ayelab degan joylarda arxeologik qazishlar o'tkazib, mezolit va neolit davriga mansub qishloq va qabristonlarni topganlar. Bu yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan qadimiy sopol buyumlar Suza, Persepol, Dur - Untash va boshqa joylardan ajoyib shoh saroyi, ibodatxona, qalin mudofaa devorlar topilgan. Ular mahobatli haykallar, devoriy rasmlar, qimmatbaho ma'danlardan yasalgan ritonlar, qurol - aslahalar va ziynat buyumlari bilan bezatilgan.

Qadimgi Eron tarixini o'rganishda rus va xorijiy mamalakatlarining olimlari katta yutuqlarga erishganlar. Bular qatoriga M.M.Dyakonov, R.Fraya, Dj.KamEron, V.Xini, Y.B.Yusifov, I.M.Dyakonov, B.A.Turayev, V.V.Struve, E.A.Grantovekiy, M.A.Dandamayev, V.I.Abayev, V.I.Avdiyev, G.Maspero, Ed.Meyer, J.Dyushen - Gilmen, G.Videngren va boshqalarning xizmati kattadir.

Shuni ta'kidlash kerakki qadimgi Eron tarixi, madaniyat va xo'jaligini o'rganishda m. av. V - IV asrda yashagan yunono tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobi, Fukidiyning “Tarix” asari, “Anabasisi” m. av. V asrda yashagan Diadorning “Tarixiy kutibxona” asarlari nodir manbalar hisoblanadi.

Shunday qilib olimlar qadimgi Eron tarixini o'rganishda qadimgi ponasimon, iyeroglifda yozilgan matnlar, arxiv hujjatlari, arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan ashyoviy buyumlar hamda qadimgi mualliflarning qadimgi Eron haqida yozib qoldirgan asarlaridan keng foydalanganlar. Shuningdek qadimgi Elam, Midiya va Eron



tarixini o'rganishda M.Dyelafula, J. de Morgan, R.de Mekenem, R.Grushman, E.Negaxban, L.Vanden - Berg va boshqa tarixchilarning xizmatlari kattadir. Eron tarixining G.Kardashin, G.Petgov, E.Zeydlya, I.P.Veynberg, M.Dyelafula, J. de Morgan, R.de Mekenem, R.Grushman, E.Nechaxban, V.M.Masson va boshqa olimlarning xizmatlari benihoya kattadir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Qadimgi fors san'ati, Eron madaniyati an'analari Bobil, Misr, Osuriya va boshqa xalqlarning badiiy an'analari va texnika usullarining sintezi edi. Qadimgi fors san'ati namunalari ichida nozik did bilan ishlangan toshdan ishlangan vazalar, metall qadah, fil suyagidan yasalgan riton qadaxlar, zeb-ziynat buyumlari, lazurit haykallar mavjud. Badiiy buyumlar ichida agat, xalqidon, yashma kabi qimmatbaho toshlardan ishlangan silindrsimon muhrlarda podsholar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan. Ular nihoyatda mohirlik bilan yasalgan bo'lib, haqiqiy san'at asari xisoblanadi. Fors san'atida ayniqsa o'simlik va xayvonlarni hayotiy tasvirlari bo'lgan badiiy buyumlar bizni hozirgacha hayratga soladi. Qadimgi g'arbiy Eron elam, lulubey, qutiy (gutiy) va kassit hind-yevropa tillarida so'zlashadigan qabilalar yashagan. Eron so'zi «ariana» - oriylar mamlakati degan ma'noni bildiradi. Er.avv. II ming yillikda oriy qabilalari Eron, Hindiston, Markaziy Osiyo va Kavkaz ortiga tarqalgan. Eron tarixining alohida davrlari turli xil yozma manbalarga boy. Yozuvlardan eng qadimgilari er.avv. III-I ming yilliklardagi janubiy-g'arbiy Eron hududi bo'lgan Elam tarixini yoritadi: ular podsho yozuvlari, huquqiy hujjatlar, bag'ishlov matnlari, davlatlararo shartnomalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abisaab Rula Jurdi. *Converting Persia: Religion and Power in the Safavid Empire*. - I. B. Tauris, 2004. — 256 p. — ISBN: 978 1 86064 970 7.
2. Bosworth Clifford Edmund. *The History of the Saffarids of Sistan and the Malikis of Nimruz (247/861 to 949/1542-3)*. - California ; New York: Mazda Publishers in association with Bibliotheca Persica, 1994. — 553 p.
3. Christensen P. *Decline of Iranshahr: Irrigation and Environment in the Middle East, 500 BC-AD 1500*. - I.B.Tauris, 2016. — 368 p.
4. Durand-Guédy David, Mottahedeh Roy. *Cities of Medieval Iran*. Brill, 2020.
5. Kamali Maryam. *Social Change in Medieval Iran 132-628 AH (750-1231 AD): The Perspectives of Persian Historiography*. Amsterdam University Press, 2023.
6. Urakov D. Biykuziyev A. Xolliyev A. Gabrielyan S. *Jahon tarixi (I tom, 1-jild)*. Toshkent: Innonatsiya – ziyo, 2020. – B. 166-170.
7. R.Rajabov. *Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq, Yunoniston, Rim)*. - T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 45

**SO‘ZNING MOHIYATI VA MAZMUNI****Allaberganova Firuza Ibraximovna****“Roman-german filologiyasi” kafedrasi tayanch doktorant**

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilida so‘zning tabiati va mohiyati haqida fikr-mulohazalar keltirilib o‘tiladi. “So‘z” tushunchasining ma‘no doirasi, ijtimoiy va madaniy ahamiyati, hamda inson tafakkuri va nutqidagi o‘rni tahlil qilinadi. So‘z insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida qaralib, uning tafakkurni ifodalash, his-tuyg‘ularni yetkazish va jamiyatda muloqotni ta‘minlashdagi roli yoritiladi. Ishda so‘zning adabiy, falsafiy va lingvistik jihatlarini yoritilib, u orqali tafakkur va madaniyat o‘zaro qanday bog‘liqlikda ekanligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: so‘z, til birligi, tarif.

Ma‘lumki, odamo‘g‘li odamzod dunyoga kelar ekan, ilk bora ko‘zini ochishi bilan nazari olamga tushadi, turfa tovushlar eshitadi onaning issiq bag‘ri taftini sezadi, sutining benazir ta‘mi va hidini anglaydi. U oqil va bolig‘ bo‘laboshlash jarayonida olamda son-sanoqsiz narsalar mavjudligi, tovushlarning rang-barangligi, ta‘m va mazaning xilma-xilligi, hidning va bo‘ylarning ajibligi hamda tanasi orqali qattiq-yumshoq, issiq-sovuq, ho‘l-quruq, mayindag‘al narsalarni farqlay boshlaydi. Farqlash esa uning ruhiy mushohadasi va tafakkuri jarayoni, asosida kechadi. Shu tariqa u, obyektiv borliqni, tevarak atrofidagi narsa va hodisalarni o‘zicha real anglay boshlaydi. Binobarin, olam (universum) shu qadar ko‘p va shu qadar ajoyib va g‘aroyib, bir-biriga o‘xshagan ajib hamda, bir-biriga o‘xshamagan g‘alati ins va jinslardan iboratki, ularni inson uchun bir-biridan tafovutini bilish, ajratish oson kechmaydi. Bu mushkul narsani yechishda Alloh taolo insonga ta‘limu-asmoni karomat qilgan, buyuk qurol sifatida ungatilni inoyat etgan. Zero, til orqali yoxud uning asosiy birliklaridan bo‘lmish so‘z orqali, bani odam dunyodagi o‘z tafakkur kuchi chegarasidagi narsa hodisalarni mushohada qiladi va nomlaydi. Nomlash orqali esa, tevarak atrofdagi barcha mavjud narsalar farqlaniladi, yaxshi-yomon, ma‘qul-noma‘qul, foydali-foydasizga ajratiladi. Insonning barcha ilmu-bilimi ham asosan ana shu tafovutni sezishga asoslanadi. O‘xshashlik va tafovutni farqlash esa narsa va hodisalarga berilgan nom ya‘ni, so‘z bilan belgilanadi, qayd qilindi. Xo‘p unda so‘z nima? So‘z-mo‘jizaviy til birligi. Aytganda tovushlardan, yozganda harflardan iborat bo‘lgan tilning eng kichik mustaqil qo‘llanuvchi va mustaqil ma‘noga ega muloqot uchun asosiy vositadir. U yaratilishi (paydo bo‘lishi) jihatidan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarni nomlash va nomlash orqali farqlash uchun insoniyat tomonidan qo‘llaniladi. Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, so‘z narsa va hodisalarning nomidir. So‘z leksemasi turli tillarda turlicha imlo, talaffuz ko‘rinishiga ega bo‘lib o‘zining etimologik ma‘nolari bilan farqlanadi. Jumladan: “ruschada u “слова”, aytilish shakliga ega va yirik



lug‘atshunos olim Maks Fasmerning fikricha *“sharaf, shuhrat, iftixor”* ma’nolariga ega ekan. Ya’ni odamlar 18 ming olamdagi narsalarni nomlay olishni o‘zlaricha sharaf deb bilishgan, undan g‘ururlanishgan iftixor qilishgan. Bu esa pirovard natijada ularga o‘zaro muloqot qilaolish bobida shuhrat olib kelgan. German (ingliz, nemis) tillarida *“so‘z” “Wort”, “word”* deb aytiladi va uning ham ma’nosi *“hayot hayqirig‘i”* yoki *“tantanavor aytilgan chaqirig‘i”* deb tushuniladi. Hindlarning Sanskrit tilida *“sabda”* – *“og‘zaki xabar”*, yoki *“ukta”* – *“maqtovga loyiq”*, arab tilida *“kalom”* – *“foydadan holi emas, manfaati bor hukm, ko‘rsatma”*, eski avesto tilida *“sravah”* – *“ilm beruvchi”*, *forschada vaje* – *“aytilmoqchi maqsad, ifoda”*, (maqsadi vajohatidan sezilib turardi) ma’no va mazmunlariga ega. Endi uning o‘zbek tilidagi etimologik ma’nosi haqida to‘xtalinadigan bo‘linsa, o‘zbek tilshunosligida *“so‘z”* leksemasi etimologik jihatdan turkiy deb qaraladi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati ham (2006) unga kelib chiqish nuqtayi nazaridan sharh bermagan. Lekin mazkur lug‘atda *“so‘z”* leksemasi ayrim boshqa til birliklarining komponentlari sifatida kelganki, bu yasama yoki ko‘chma so‘zlar *“so‘zak”-husnbuzar*, *“so‘zi”- sanchik*, *“So‘zan”-igna, tikan*, *“so‘zana”-shoyi ip bilan to‘qilgan, tikilgan ro‘mol*, *“so‘zanak”- ninacha*, (shevada ninachi), *“so‘zona”-yondiruvchi, kuydiruvchi* ma’nolarini bildiradi. Shu til birliklaridagi uning komponentlari ma’nolari bo‘yicha xulosa chiqaradigan bo‘lsak, so‘zning *igna, tikan, sanchiq, yondiruvchi* ma’nolari kelib chiqadi. Bu ma’nolar esa istilohda–kundalik hayotimizdagi *falonchining har bir so‘zi “igna”, aytadigan so‘zi yuragimga tikan kabi sanchiladi, og‘zidan chiqqan har bir so‘z go‘yo o‘t” kishini kuydiradi, yondirib yuboradi* ma’nolari mazkur til birliklarida moyona sezilib turadi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, *“so‘z”* leksemasi kishilarga shodlik bag‘ishlashdan tashvishgacha, huzurlanishdan og‘riqqacha, foydadan zarargacha bo‘lgan ma’nolarga ega. Darhaqiqat, hayotiy tajribalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bir *“so‘z”* bilan insonni tiriltirish yoki o‘ldirish mumkin, ovuntiribroq aytganda bir so‘z bilan suhbatdoshni kayfiyatini ko‘tarish yoki tushirib yuborish mumkin.

Endi sentimentallikni chetga qo‘yib, so‘zga uning tildagi tabiati va mohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, so‘zlar orqali obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarni atash, ko‘rsatish yoki to‘g‘ri va ko‘chma ma’lumot olish, ijtimoiy hayotimizda, kundalik muloqotda kamlik qiladi. Zero, dunyoni anglash, u haqda biror ma’lumotga ega bo‘lish, faqat narsalar nomini bilish bilangina cheklanmaydi. Bilamizki, olamdagi barcha mavjud narsalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq, birining borligi ikkinchisining bo‘lishi, rivojlanishini ta’minlaydi, tiriklik bag‘ishlaydi yoki kushandasi hisoblanadi. Falsafa tili bilan aytganda, ular qarama-qarshiliklar kurashi, inkorni inkor yoki miqdor o‘zgarishini sifat, sifat o‘zgarishini miqdor o‘zgarishlari qonuni asosida, umumiylik va xususiylik xarakterga egalik ko‘rinishlarida, yo‘qdan bor bo‘lishi, bordan yo‘q bo‘lmay, bir turdan ikkinchi bir turga aylanish orqali yerdagi hayotni bir maromda va mo‘tadil kechishini ta’minlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jumaniyozov A., Rahimova Sh. O‘zbek tilidagi aniqllovchili qo‘shma so‘zlar yoxud bahurihilar. - Toshkent, 2018.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - A. Madvaliyev tahriri ostida. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. - Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008 1-jild.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005.
4. Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. - Toshkent: Akademnashr, 2015.
5. Sharipov M.Q. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi masalalari. - Toshkent: Fan nashriyoti, 1978.
6. G‘ulomov A. G‘. Asqarova M. A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Sintaksis.) - T.: O‘qituvchi, 1965.
7. G‘ulomov A.G‘. O‘zbek tilida so‘z yasash yo‘llari haqida. Birinchi kitob. -Toshkent, 1949.
8. Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2002.
9. Hamroyev M. Ona tili. - Toshkent, 2012.



HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING SHAKLLARI, USULLARI VA TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 321-guruh kursanti
Xudoyqulov Sadulla Qahramon o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi, profilaktikaning shakl, usul va turlarini rivojlantirishning amaliy jihatlari, shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning samaralari hamda statistik ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, profilaktika, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, jinoyatchilik, davlat siyosati.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, huquqbuzarliklarning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Chunki huquqbuzarliklarning ko'payishi ijtimoiy barqarorlikka tahdid soladi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklaydi hamda jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradi. Shu bois, mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifasi – jinoyat va boshqa turdagi huquqbuzarliklarni sodir etishga olib keluvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish, fuqarolarda qonunlarga hurmatni kuchaytirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir. Bu borada 2014-yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonun ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi [2]. Mazkur qonunda profilaktika sub'ektlari, shakl va usullari, ularning vakolatlari aniq belgilab berilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasining **shakllari** odatda ikki yo'nalishda ko'rib chiqiladi: umumiy va individual profilaktika. Umumiy profilaktika keng jamoatchilikka qaratilgan bo'lib, aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, turli ma'rifiy tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, maktab va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlik mashg'ulotlari, televideniye va internet orqali qonuniylilikni targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar umumiy profilaktikaga misol bo'la oladi. Individual profilaktika esa huquqbuzarlikka moyil yoki jinoyat sodir etgan shaxslar bilan bevosita ishlash, ularning xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan choralarni o'z ichiga oladi [3].

Profilaktikaning **usullari** ham turlicha bo'lib, ular orasida huquqiy targ'ibot, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan nazoratni kuchaytirish, huquqbuzarlik sodir etilgan joylarda tushuntirish ishlari olib borish, yoshlar bilan individual suhbatlar, ota-onalar bilan



hamkorlik qilish, mahalla va jamoatchilik nazorati kabi yo'nalishlar mavjud. Ayniqsa, “Mahalla” instituti profilaktikada muhim ahamiyatga ega bo'lib, mahalla posbonlari va profilaktika inspektorlari jinoyatchilikni kamaytirishda faol ishtirok etmoqda [4].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Ichki ishlar vazirligi hisobotida 2022-yilda respublika bo'yicha 100 ming aholiga to'g'ri keladigan jinoyatlar soni 2021-yilga nisbatan 6,8 foizga kamaygan. Buning asosiy sababi sifatida hududlarda profilaktika inspektorlarining faoliyatini kuchaytirish va “Xavfsiz hudud” dasturlarining amalga oshirilishi qayd etilgan [5]. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar umumiy jinoyatlar ichida sezilarli ulushni tashkil qilayotgani ta'kidlanadi. Bu esa profilaktika choralarda ta'lim muassasalari va ota-onalar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining **turlarini takomillashtirish** uchun bir nechta yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin. Birinchidan, huquqiy targ'ibotni zamonaviy usullarda olib borish, ya'ni ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali yoshlar ongiga tezkor va samarali ta'sir ko'rsatish. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash orqali huquqbuzarliklarning ildiz sabablarini bartaraf etish, masalan, ishsizlikni kamaytirish, bandlik dasturlarini kengaytirish. Uchinchidan, jamoatchilik nazoratini yanada kengaytirib, fuqarolarning huquq-tartibotni saqlashdagi faolligini oshirishdir [6].

So'nggi yillarda huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar ham joriy qilinmoqda. Masalan, “E-profilaktika” elektron tizimi orqali profilaktika inspektorlari faoliyati nazorat qilinmoqda, xavf guruhiga kiruvchi shaxslar haqida yagona ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan. Bu usul nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki inson omiliga bog'liq xatoliklarni ham kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklar profilaktikasining shakllari, usullari va turlarini takomillashtirish O'zbekiston jamiyatida qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqiy davlat barpo etish jarayonida muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning muvaffaqiyati davlat organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolarning hamkorligiga bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2017-yil.
- 2.O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
- 3.Karimov I.A. *Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish – huquqiy davlat qurilishining muhim sharti*. – Toshkent, 1997.
- 4.Xudoyberdiyev R. *Huquqbuzarliklarning oldini olish nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Adolat, 2020.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi statistik ma'lumotlari, 2022-yil.
- 6.Jo'rayev M. *Huquqiy madaniyat va profilaktika tizimi*. – Toshkent: TDYUU, 2021.



HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING MAQSADI, VAZIFALARI VA ASOSIY YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 321-guruh kursanti
Turaboyev Javohir Akmal o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini yanada samarali tashkil etishning maqsadlari, vazifalari va asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining mazkur yo'nalishdagi faoliyatini takomillashtirish omillari, mavjud muammolar va ularning yechimlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, ichki ishlar organlari, profilaktika subyektlari, huquqiy tarbiya, ijtimoiy hamkorlik, yoshlar tarbiyasi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi har qanday huquqiy davlat uchun dolzarb hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti, barqarorlik va fuqarolarning tinch hayoti avvalo huquqbuzarliklarning kamayishiga va ularning profilaktikasining qanchalik samarali yo'lga qo'yilishiga bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida ham huquqbuzarliklar profilaktikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Zero, 2014-yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonun ushbu faoliyatning huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi va profilaktikaning maqsadi, vazifalari hamda subyektlarini aniq belgilab qo'ydi [1].

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy maqsadi — shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini huquqbuzarliklardan himoya qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, profilaktika jarayoni jinoyat sodir etilgandan keyingi jazolashdan ko'ra, uning oldini olishga qaratilgan bo'lib, bu davlat siyosatining insonparvarlik tamoyiliga ham mos keladi. Masalan, yoshlarning huquqbuzarlikka berilib ketishining asosiy omillaridan biri — bo'sh vaqtning mazmunli tashkil etilmasligi hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” kabi ijtimoiy mexanizmlar joriy qilinib, xavf guruhidagi shaxslarni aniqlash va ularga yordam berish orqali huquqbuzarliklarning oldi olinmoqda.

Profilaktikaning asosiy vazifalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular orasida aholining huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish, oilada va ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan individual ishlash alohida o'rin tutadi [2]. Shu maqsadda ichki ishlar organlari, prokuratura, mahalla, ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorlikda ish olib borishi belgilangan. Bugungi kunda ayniqsa mahallalarda profilaktika inspektorlari faoliyatini kuchaytirish orqali jinoyatchilik darajasi sezilarli darajada pasaymoqda. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda



mamlakat bo'yicha qayd etilgan jinoyatlar soni 8 foizga kamaygan bo'lsa, mahallalarda aholiga yaqin xizmat ko'rsatish tizimining kengayishi bu borada muhim omil bo'ldi [3].

Profilaktika faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatorida huquqiy tarbiya va targ'ibotning o'rni beqiyosdir. Ta'lim muassasalarida o'quvchilar va talabalar uchun muntazam ravishda huquqiy bilimlarni oshirish bo'yicha mashg'ulotlar, uchrashuvlar va seminarlar tashkil etilmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi uch yil davomida maktab o'quvchilari orasida huquqbuzarliklar 15 foizga qisqargan, bu esa huquqiy targ'ibotning samaradorligini ko'rsatadi [4]. Shu bilan birga, yoshlarning sport, madaniyat va san'at to'garaklariga jalb etilishi ularni bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga undaydi va huquqbuzarlikka olib keladigan omillardan uzoqlashtiradi.

Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, “E-profilaktika” tizimi orqali xavf guruhidagi shaxslar elektron nazorat ostiga olinib, ularning xatti-harakatlari doimiy monitoring qilinmoqda. Bu esa huquqbuzarlik sodir etilishidan oldin tezkor chora ko'rish imkonini beradi. Kelgusida mazkur tizimni yanada kengaytirish orqali profilaktika ishlarini yanada samarali qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklar profilaktikasining maqsadi, vazifalari va asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish mamlakatimizda huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi eng muhim shartlardan biridir. Profilaktika jarayonining samaradorligi bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatning qay darajada shakllanganiga hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikka bog'liqdir. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, profilaktika subyektlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin. Shu ma'noda, huquqbuzarliklar profilaktikasining yanada takomillashuvi jamiyatda osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning farovonligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. 2014-yil 14-may.
- [2] Karimov A. Huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2019.
- [3] O'zbekiston Respublikasi IIV 2023-yilgi statistik ma'lumotlari.
- [4] Rasulov R. Profilaktika faoliyatida huquqiy targ'ibotning o'rni. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2022.

**IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN AHOLI IJTIMOIIY HAYOTI**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti

Baxriddinova Sayyora

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1945-1991-yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi va iqtisodiy hayotning aholi aholi ijtimoiy hayotiga ta'siri o'rganilgan. Ikkinchi jahon urushidan keying holat, ko'plab millat va elatlarning ko'chirilishi, deportatsiya qilinishi O'zbekiston SSR da aholining milliy tarkibi o'zgarishi bilan, ijtimoiy hayotiga ham katta ta'sir qildi. XX asr oxiriga kelib, iqtisodiy hayotni, xususan zavod, fabrikalar ochilishi, xalq orasida turli xil kasalliklar paydo bo'lishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, sog'liqni saqlash, fabrika, zavod, kasalliklar, shifoxona, sanitariya.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние системы здравоохранения и экономической жизни на социальную жизнь населения Узбекистана в 1945-1991 гг. Ситуация после Второй мировой войны, переселение и депортация многих национальностей и народов в Узбекской ССР изменили национальный состав населения и оказали большое влияния на общественную жизнь. К концу XX века была охвачена экономическая жизнь, в частности открытие фабрик, возникновение различных заболеваний среди народа.

Ключевые слова: семья, здравоохранение, завод, болезнь, больница, санитария.

Annotation: This article examines the impact of the health care system and economic life on the social life of the population in Uzbekiston in 1945-1991. The situation after the Second World War, the relocation and deportation of many nationalities and peoples in the Uzbek SSR changed the national composition of the population and had a great impact on the social life. By the end of the 20th century, the economic life, in particular, the opening of factories, and the emergence of various disease among the people were covered.

Key words: family, heathcare, factory, disease, hospital, sanitation.

Urushdan keying yillarda xalq xo'jaligining harbiy izdan tinch qurilish yo'liga o'tkazilishi ma'lum darajada ijtimoiy sohadagi masalarini hal qilish imkoniyatlarini bera boshladi. SSSR ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ayrim ijobiy siljishlarga qaramay, XX asrning 50-60-yillari ijtimoiy-iqtisodiy hayot sovet ma'muriy -buyruqbozlik boshqaruvining salbiy ta'siri ostida edi. Salbiy holatlar O'zbekiston ijtimoiy hayotiga ham mos edi. Bu davrda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, davolash profilaktika muassasalari va meditsina xodimlarini ko'paytirish bo'yicha ham ishlar olib borildi. Keyingi yillarda Kommunistik partiya sotsialistik ekonomikaning o'sib borayotgan quvvatiga tayanib, mehnatkashlarni moddiy jihatdan ta'minlashdagi mavjud qiyinchiliklarni yo'qotish va sovet xalqining farovonligini yaxshilash borasida bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi.



Aholining eng avvalo nochorlar, nogironlar, o'qituvchi va talabalar, ko'p bolali oilalar va boshqa daromadi kam odamlarni ijtimoiy himoyalash uchun Respublika hukumati maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorda aholining narx-navo oshishi munosabati bilan ko'radigan zararini qoplash ko'zga tutilgan edi. Bundan tashqari, milliy xususiyatlar va mintaqaning o'zida xos shart-sharoitlari ham hisobga olindi. Aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun 16 milliard so'mdan ko'proq mablag' ajratildi. Ishlayotganlarga bir oyda 60 so'mdan, ishsiz nafaqa oladiganlarga 65 so'mdan pul to'landi. Bolali oilalar uchun mavjud nafaqalar miqdori salkam 2 barobar oshdi. Bundan tashqari, bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa 250 so'mga, ishlayotgan onalarga bolalariga qarash uchun beriladigan nafaqa 70 so'mdan 110 so'mgacha ko'paydi. Bolalarga mo'ljallangan tovarlarning narxi oshishi sababli balog'atga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga ham pul yordami belgilandi.

**1989-YILI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY GURUHLAR BO'YICHA
OILALARDAGI FARZANDLAR SONINING TAQSIMLANISHI (FOIZ
HISOBIDA)¹.**

Ijtimoiy guruhlar	1-2 farzandli	3-4 farzandli	5-6 farzandli	7-9 farzandli	10 va undan ko'p farzandli
Xizmatchi	39,0	44,2	11,3	5,5	-
Ishchi	30,7	34,2	25,0	7,9	2,2
Kolxozchi	28,0	37,3	19,0	10,3	5,4
Uy Bekasi	29,1	34,1	22,0	9,2	5,6

Bu davrda ayollarni og'ir mehnatdan holi qilish, ularga qisqartirilgan ish kuni belgilash, kundalik turmush uchun bekam-u ko'st madaniy-maishiy sharoitlar yaratib, bu boradagi kamchiliklarga barham berish masalalari ham Prezidentning diqqat markazida bo'ldi².

Markazning buyuk davlatchilik manfaatlari xalq manfaatlari va salomatligidan yuqori qo'yilgan paytda bunday g'ayriinsoniy yondashuv O'zbekistondagi ekologik vaziyat fojiaiy shakllar kasb etilishiga olib keldi. Xususan, Respublika 60-yillarning oxirlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ochiq suv havzalari yuqori darajada zaxarli insektiditlar (DDT, metil-merkaptos va boshqalar) tarkibi yo'l qo'yiladigan konsentratsiyadan 20-50 baravar ko'p, ayrim xollarda esa 100baravardan ham ko'pligi ma'lum bo'lgan. Xolbuki bu vaqtda O'zbekiston aholisining 45% ichish uchun kanallar va ariqlarning suvidan, 18%i daryo suvidan, 10%i hovuzlarning suvidan foydalangan. Mahalliy aholining aksariyat ko'pchiligi istiqomat qiladigan qishloq joylarida esa vodoprovod deyarli yo'q edi³.

Zaharli kimyoviy moddalarning bunday to'planishi xavfli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'luvchi surunkali zaxarlanishga olib keldi. Masalan, 60-yillarning o'zida ayniqsa ayollar

¹ Демографический ежегодник СССР 1990.- М.,:Финансы и статистика, 1990.-С.41

² O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. T.,2015. 511b.

³ Васильев. А., Кранс А. Арал: варианты решений. Коммунист, 1990. С. 56.



va bolalar orasida endokrin kasalliklar va qamkonlik (anemiya) keskin ortganligi ko'zga tashlandi. Xususan 1965-yilda Farg'ona viloyati bo'yicha endokrin patologiyasiga yo'liqqan 1190 bola ro'yxatga olingan⁴.

O'lik holda va chala tug'ilgan go'daklar soni yil sayin ko'payib bordi. Bularning hammasi O'zbekiston aholisi istiqomat qiladigan tashqi muhit, shu jumladan ko'proq suv, o'simliklar, atmosfera havosi 60-yillardayoq hayot uchun yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada zaharlanganligidan dalolat beradi. Shundan keyingi davrda esa bu halokatli hodisalar juda keng qamrovli xavfli tus oldi. Respublika mustaqilligi arafasida, ayniqsa qishloq joylarida favqulodda epidemik vaziyat vujudga kelgan edi. Misol uchun, tibbiy tekshirishlar ma'lumotlariga ko'ra, 80-yillarning o'rtalarida Xorazm, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'istonda katta yoshdagi aholining 70% dan ko'prog'i va bolalarning 80% dan ziyodrog'i bitta va bir nechta xastaliklar bilan og'riganligi aniqlandi⁵.

Umuman, butun respublikada bo'lgani kabi qishloqlarimizda ham ichburug', sil, sariq kasalligi, ich terlama, saramas kasalliklari keng tarqaldi. Masalan, faqat 1980-1989-yillarda har 100 ming aholi hisobiga o'lkada xavfli o'simta kasalliklari bilan og'riganlar qishloq joylarida 6,6 ming kishini tashkil etdi, Respublika bo'yicha esa bu ko'rsatkich har 100 ming nafar aholi hisobiga 45,6 dan 50,4 nafarga yetgan⁶.

Shunday qilib, sovet davrida ekologiya sohasidagi “kimyoviy zarbalar” ning xavfli oqibatlari sog'liqni saqlashning umumiy tarzda past holatda bo'lishiga olib keldi, xalq sog'lig'ini saqlash muammosi millatning omon qolishidan iborat olamshumul masalaga aylanib ketganligini ko'rsatdi. Paxta yakka hokimligi va O'zbekistonning yarim mustamlaka holatida ekanligi bilan bog'liq jarayonlar bu vaqtga kelib o'zbek xalqining nasl-nasabi negizlariga xatarli ta'sir ko'rsatib, uning genotipida xatarli o'zgarishlar vujudga kelishiga sabab bo'la boshlagan edi⁷.

Paxta yakkahokimligi, iqtisodiyotning xomashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, xarid narxlarining pastligi qishloq aholisining moddiy ahvoliga va o'zbekistonliklarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'min etilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Hujjatli manbalarning guvohlik berishicha, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ayirboshlashdagi nomutanosiblik, markazning paxta yetishtirish nihoyatda sermehnat ekanligini inkor qilishi tufayli Respublika agrar sohasidagi ishchi kuchini qiymati sobiq SSSR dagi eng past qiymatlardan biri hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston kolxozchisi ishlagan bir ish kuniga 80-yillarning o'rtalarida 5 so'm 88 tiyin, Tojikiston kolxozchisi-6 so'm 04 tiyin, Qirg'iziston kolxozchisi-6 so'm 90 tiyin, Turkmaniston kolxozchisi-7 so'm 03 tiyin, RSFSR kolxozchisi-8 so'm 03 tiyin, Litva kolxozchisi -9so'm 90 tiyin, Estoniya kolxozchisi-14 so'm 04 tiyin

⁴ Узбекистон Республика Вазирлар Кенгашининг 1987 йилги жорий архиви, 17-иш, 52-53-вараклар.

⁵ Васильев. А., Кранс А. Арал: варианты решений. Коммунист, 1990. С. 56.

⁶ Охрана здоровья в СССР. Статсборник.- М., 1990. С. 37, 39.

⁷ Mustabit tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990) . “Sharq”., T.,2000.300-307b.



olardi⁸.

Bu birinchi navbatda paxtakorlar mehnatiga nihoyatda kam haq to'lanishi bilan bog'liq edi. Shuni aytish kerakki, agar g'allakorning 1 soatlik mehnatiga 62,5 tiyin to'lansa, paxtakornikiga atigi 16 tiyin to'lanardi. O'zbek qishloqlari turmush darajasi muhim ko'rsatkich bo'lgan uy-joy masalasida ham ancha orqada qolgan edi. Masalan, aholi jon boshiga uy-joy maydoni jihatidan boshqa rivojlangan mamlakatlardan 8-9 baravar orqada edi. Obodonchilik, kommunal xizmat ko'rsatish, maishat xazmat darajasi bo'yicha umuman taqqoslab bo'lmasdi. 80-90-yillar chegarasida qishloq aholi punktlarining 80% dan ortig'i vodovrovod suvidan mahrum edi va faqat tashib keltiriladigan suvdan yoki ochiq manbalar suvidan foydalanardi; ulardan faqat 1%i da kanalizatsiya mavjud edi. Qishloqda oqova suvlarni tozalash inshootlari quvvatidan 40% dan kamroq foydalanilardi. Bu hol tozalanmagan suvlar, maishiy chiqindilarning asosiy qismi ochiq havzalarga, yer osti chuqurlariga yoki yer ustiga tashlanishiga olib kelardi⁹.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samarqand tarixi. 339-340b.
2. Демографический ежегодник СССР 1990.- М.,:Финансы и статистика, 1990.- С.41
3. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. T.,2015. 511b.
4. Васильев. А., Кранс А. Арал: варианты решений. Коммунист, 1990. С. 56.
5. Узбекистон Республика Вазирлар Кенгашининг 1987 йилги жорий архиви, 17-иш, 52-53-вараклар.
6. Mustabit tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990) . “Sharq”. T.,2000.300-307b.
7. Социологические исследования. 1989. № 1. С. 14.
8. Васильев. А., Кранс А. Арал: варианты решений. Коммунист, 1990.№ .2.С. 56.

⁸ Социологические исследования. 1989. № 1. С. 14.

⁹ Васильев. А., Кранс А. Арал: варианты решений. Коммунист, 1990.№ .2.С. 56.

**1945-1991-YILLARDA O'ZBEKISTON SSR VA SAMARQAND VILOYATI
DEMOGRAFIK JARAYONLARI DAVRIDA: IQTISOD.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
Baxriddinova Sayyora

Annotatsiya: Mazkur maqola 1945-1991-yillarda O'zbekiston SSR va Samarqand viloyati demografik jarayonlari davrida iqtisodiy jarayonlar haqida ma'lumot berilgan. Aholi daromadlari, aholining turmush tarzi va ish haqi haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalq, ish haqi, iqtisod, transport, aloqa, xizmatchi, nogiron.

Аннотация: В статье представлены сведения об экономических процессах в ходе демографических процессов, Узбекской ССР и Самаркандской области в 1945-1991 годах. Упомянуты доходы населения, образ жизни и заработная плата населения.

Ключевая слова: люди заработная плата экономика транспорт связь работник инвалид.

Annotation: This article provides information about economic processes during the demographic processes of the Uzbek SSR and Samarqand region in 1945-1991. The income of the population, lifestyle and salary of the population are mentioned.

Key words: people, salary, economy, transport, communication, employee, disabled.

Ulug' vatan urushi g'alaba bilan tugagandan keyin sovet xalqi oldida qisqa muddat Ichida xalq xo'jaligini qayta tiklash, sanoatni tinchlik davri uchun kerakli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada o'stirish hamda mehnatkashlarning moddiy farovonligi va madaniy saviyasini oshirishni ta'minlash kabi ulkan vazifalar turardi. SSSR Oliy Sovet 1946-yilning mart oyida xalq xo'jaligini qayta tiklash va rivojlantirishning 1946-1950-yillarga mo'ljallangan besh yillik plani to'g'risida Qonun qabul qildi. Bu qonun mamlakatning urushdan shikastlangan rayonlarini qayta tiklashni ko'zda tutdi. Hamda sanoat va qishloq xo'jaligini qayta tiklab, urushdan oldingi darajasini yetkazish va so'ngra bu darajadan ancha miqdorda o'zib ketishini belgilab berdi. O'zbekiston SSR xalq xo'jaligini qayta tiklash va rivojlantirishning 1946-1950-yillarga mo'ljallangan, SSSR besh yillik planning trakebiy qismi bo'lgan to'rtinchi besh yillik plan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining VIII sessiyasida (1946-yil 30-avgust- 2-sentabrda) ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Bu planni tuzishda respublikaning planlashtiruvchi tashkilotlari SSR Ittifoqi Xalq kommissarlari Sovetining "O'zbekistonda paxtachilikni 1946-1953-yillarda rivojlantirish va yanada yuksaltirish plani va tadbirlari to'g'risida" 1946-yil 2-fevraldagi qarorini asos qilib oldilar. 1946-yilda Samarqandda ittifoq qaramog'ida 7ta, Respublika



qaramog'ida 31 ta korxona, sanoat kooperatsiyasining 27 ta arteli va mahalliy sanoatining 3 ta korxonasi mavjud bo'lib, bu korxonalarda 20,7 ming ishchi va xizmatchi ishladi. Samarqand paxta tozalash zavodini rekonstruksiya qilib kengaytirish, 5 ming urchuqli yigiruv fabrikasini qurib, ishga tushirish (sanoat kooperatsiyasi sistemasida), poyabzal fabrikasining quvvatini shoyi to'qish fabrikasida 145 ta yangi to'quv stanoklarini o'rnatish hisobiga oshirish kerak edi. Xovrenko nomidagi vino zavodining ilg'or brigadalari 1946-yilning iyunida O'rta Osiyo vinochilik sanoatida birinchi muzlatkich ustanovkasi montaj qilib bo'ldilar. Bu ustanovka temperatura rejimini ma'lum darajada saqlash va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini berdi. Zavod shu yilning o'zida qizil nordon vinolarning morastel, saperaviy, kaberniy markalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Choy qadoqlash fabrikasi qadoqlash sexining mexanigi kommunist A. Belarusev kiritgan 7ta rationalizatorlik taklifi mehnat unumdorligini oshirish va uskunalar ishini yaxshilashga imkon berdi. U kiritgan yangiliklar tufayli choy qadoqlash avtomatining ish unumi to'rt baravar ko'paydi, ishlaymay qolgan bir qadoqlash avtomati tuzatilib ishga tushurildi, choy kukunlarini fabrikaning ikkinchi qavatiga chiqarib qo'yish mashinalashtirildi. Buning natijasida shu ishda band bo'lgan 5 kishini qisqartirib boshqa ishlarga o'tkazish imkoniyati tug'ildi. 1949-yilda Samarqand korxonalari mahsulot xillarini ko'paytirdi, texnika va iqtisodiy bazasini yanada mustahkamlash uchun kurashdi.

1954-yilda O'zbekiston Samarqand kommunal xo'jaligini rivojlantirish va obodonchilik ishlariga qo'shimcha ravishda yana 12 million 560 ming so'm pul ajratdi. Bundan tashqari, Shahar Soveti ham shu ehtiyojlar uchun 4,4 million so'm pul berdi. Pul islohoti o'tkazilganligi, kartochka sistemasi bekor qilinganligi, narxlarning pasayganligi, mehnatkashlar farovonligini keskin ravishda yaxshiladi, ularning xarid qobiliyatini oshirdi¹. Kommunistik partiya 1974-yilning iqtisodiy siyosatining asosiy mazmuni, sotsialistik ishlab chiqarishning oliy maqsadi xalq farovonligini oshirish xalq xo'jaligi rejalarining birlamchi vazifasidir. Respublika aholisining turmush darajasining sezilarli darajada oshirishni chora-tadbirlarini amalga oshirishni rejalashtirgan. Aholining iqtisodiy daromadini 1973-yilga nisbatan 7,7%ga oshirish ko'zda tutilgan, aholi jon boshiga daromad 4,7% ga oshgan. 1973-yilning yakunida boshlangan ishlar tugallanadi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa tarmoqlari, ishlab chiqarish sohasi bilan band bo'lgan ishchilarning o'rtacha haq to'lanadigan toifalarning ish haqi stavkalarining eng kam oylik ish haqini 26-30% ga, muhandislik va muhandislik-texnika sanoati xodimlarining ish haqini esa 18-22%ga oshirish belgilandi. Xususan texnik ishchilar va xizmatchilar ham shular jumlasidandir. Respublikada nogironlar va boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun pensiyalar oshiriladi, bolalar nafaqasi joriy etildi. Mehnat uchun olingan haq uchun qo'shimcha belgilandi va yil davomida 2906mingdan 3060mingga ko'payadi, 5.3%ga oshadi. 1947—1956-yillarda berilgan ichki davlat kreditlarini to'lash boshlanadi. Aholining sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek,

¹ Samarqand tarixi. T., "Fan", 1970. 20-180b.
www.innovativepublication.uz



maishiy xizmatlarga bo'lgan talabini ta'minlash darajasi ortadi. Xizmatning moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada mustahkamlanadi. Toshkent shahridagi buyurtma asosida tikilgan kiyim-kechak fabrikasining 1,5 million rubl quvvatiga ega bosh ofisining birinchi navbatini foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Madaniy-ma'rifiy muassasalar (klublar, teatrlar, kutubxonalar, ayniqsa, qishloq joylarda) sonini ko'paytirish rejalashtirilgan. Xususan, kinoteatrlar tarmog'ini 4204 tadan 4334 ta kinomaterialga ko'paytirish ko'zda tutilgan. Jami o'sish 130 ta kinomaterialning, 110 tasi qishloq joylarda ochilishi rejalashtirilgan. Xalqning salomatligini muhofaza qilish hamisha partiya va hukumatning diqqat markazida bo'lib kelgan. 1974-yilning eng muhim masalasi sog'liqni saqlashni yanada yaxshilash chora-tadbirlari ko'zda tutilgan. Kasalxona o'rinlari sonini 1973-yil rejasidagi 133,5 ming o'rnidan 138,62 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Ya'ni besh yillik rejadagidan 1,4 ming o'ringa ko'p etib belgilandi. Kasalxonalar va poliklinikalar tarmog'ida yangi qurilish va mavjud kasalxonalarni mustahkamlash hisobiga kengaytiriladi. Andijon shahrida ko'p tarmoqli shifoxona, Chirchiq shahrida bolalar shifoxonasi poliklinikasi, Toshkent shahrida poliklinikalar, Angren shahrida va qishloqda shifoxonalar qurilishi yakunlanadi. Sirdaryo viloyati tez tibbiy yordam stansiyasi, Samarqandda birinchi yordam ko'rsatish birlashmasi, ToshMI majmuasining birinchi klinik shifoxonasi, Samarqand tibbiyot instituti klinik shifoxonasi hamda tibbiyot institutini ta'mirlash zavodi hamda Toshkentda tibbiy asbob-uskunalar ta'mirlash zavodi qurilishini amalga oshirilgan.

Besh yillik rejada nazarda tutilganidek, dorixonalar soni 1175 taga yetkaziladi, bu esa bitta dorixona tomonidan xizmat ko'rsatuvchi aholi sonini 1972-yildagi 11,9 ming kishidan, 1974-yilda 11,5 ming kishiga qisqartiradi. Bolalar o'rtasida sog'lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirishga barcha turdagi pioner oromgohlari tarmog'ini rivojlantirish yordam beradi. Shahar atrofidagi pioner lagerlaridagi o'rinlar soni 1973-yildagi 66 mingga nisbatan 72 mingga yetadi. Nogironlar va keksalar uchun sanatoriylar va dam olish uylari tarmog'i kengaytiriladi².

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Samarqand tarixi. T., "Fan", 1970. 20-180b.
2. Зиядуллаев К. Экономика Узбекистана в определяющем году девятой пятилетки. Т., Узбекистан. 1974. 73-79стр.

² К. Зиядуллаев. Экономика Узбекистана в определяющем году девятой пятилетки. Т., Узбекистан. 1974. 73-79стр.

**KOREYANING UCH QIROLLIGI: SIYOSIY, MADANIY VA HARBIY
TARAQQIYOTNING QADIMGI ASOSLARI****Irgashev Lazizbek**

“Korean academy” o`quv markazining koreys tili o`qituvchisi hamda

Tursunaliyev AzizbekToshkent Xalqaro Universitetining Namangan filiali “Tarix” fakulteti uchinchi kurs
talabasiergashevlazizbek450@gmail.com

+998 93 313 21 18

azizokeng2005@gmail.com

+998 90 020 13 76

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreyaning uchta asosiy qirolligi — Goguryo, Pekje va Silla tarixi, madaniyati va o‘zaro munosabatlari keng yoritilgan. Maqolada har bir qirollikning siyosiy tuzilmalari, hududiy kengayishi, diniy e‘tiqodlari va badiiy innovatsiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qirolliklar o‘rtasidagi ittifoq va dushmanlik munosabatlari, harbiy yurishlar va diplomatik aloqalar orqali Koreya tarixining rivojlanishi yoritiladi. Goguryoning kuchli harbiy qudrati, Pekje madaniyatining ahamiyati, va Sillaning tarixiy birlashtiruvchi yutug‘i kelgusi avlodlar uchun qadimiy meros sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu maqola uch qirollik davrining Koreya milliy o‘ziga xosligi va madaniy merosiga ta’sirini chuqur o‘rganib, qadimgi Koreya sivilizatsiyasining rivojlanishi bilan zamonaviy Koreya madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Koreya tarixi, uch qirollik davri, Goguryoning qudrati, Pekje madaniyati, Sillaning birlashuvi, qadimgi Koreya diplomatiyasi, harbiy va siyosiy raqobat, madaniy meros, milliy o‘ziga xoslik, Koreya yarim oroli sivilizatsiyasi.

초록: 이 논문은 한국의 세 개의 주요 왕국, 즉 고구려, 백제, 신라의 역사, 문화 및 상호 관계를 폭넓게 다룹니다. 각 왕국의 정치 구조, 영토 확장, 종교 신앙 및 예술적 혁신을 분석하며, 왕국 간의 동맹과 적대 관계, 군사적 원정과 외교 관계를 통해 한국의 역사적 발전을 보여줍니다. 고구려의 강력한 군사력, 백제 문화의 중요한 역할, 신라의 통일 성과는 미래 세대를 위한 고대 유산으로 남아 있습니다. 본 논문은 삼국 시대가 한국 민족 정체성과 문화 유산에 미친 영향을 깊이 있게 조망하며, 고대 한반도 문명의 발전이 현대 한국 문화와의 연관성을 보여줍니다.

주제어: 한국 역사, 삼국 시대, 고구려의 힘, 백제 문화, 신라의 통일, 고대 한국 외교, 군사적 및 정치적 경쟁, 문화 유산, 민족 정체성, 한반도 문명.

Abstract: This article provides a comprehensive examination of the history, culture, and



interactions of Korea's three major kingdoms—Goguryeo, Baekje, and Silla. It analyzes each kingdom's political structures, territorial expansion, religious beliefs, and artistic innovations. Additionally, it highlights Korea's historical development through alliances and hostilities among the kingdoms, military campaigns, and diplomatic relations. The strong military capacity of Goguryeo, Baekje's significant cultural contributions, and Silla's historic success in unification are presented as an ancient legacy for future generations. This article offers a deep insight into the Three Kingdoms period's influence on Korean national identity and cultural heritage, illustrating the connection between the development of ancient Korean civilization and contemporary Korean culture.

Keywords: Korean history, Three Kingdoms period, Goguryeo's power, Baekje culture, Silla unification, ancient Korean diplomacy, military and political rivalry, cultural heritage, national identity, Korean Peninsula civilization.

Miloddan avvalgi I asrda Koreya yarim oroli va Manjuriyada uchta kuchli davlat – Silla (miloddan avvalgi 57 – milodiy 668), Goguryeo (miloddan avvalgi 37 – milodiy 668) va Baekje (miloddan avvalgi 18 – milodiy 660) paydo bo'lib, o'z rivojlanishini amalga oshirdi. Shu bilan birga, Koreya yarim orolining janubida Gaya, shimolida esa Balhae hukmronlik qilgan. Shunga qaramay, koreyalik tarixchilar bu davrni "Uch Qirollik davri" deb ataydilar. Silla, Goguryeo va Baekje bitta tarixiy davrda yashab, yetti asr davomida yarimorolga ega bo'ldilar. Ushbu qirolliklar ruhiy hayotida buddizm va konfutsiylik muhim rol o'ynagan bo'lib, ushbu dinlar koreys madaniyati va dunyoqarashining asosini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, bu davlatlarning uzoq davom etgan hukmronligi Koreya yarim orolidagi siyosiy muhit va tarixiy o'ziga xoslikka mos ravishda madaniy uyg'unlikka ta'sir ko'rsatdi. Yagona madaniyat va o'xshash ijtimoiy ruh bu davlatlar o'rtasidagi nizolarni kamaytirib, ular o'rtasida yaqin munosabatlar o'rnatilishiga katta hissa qo'shdi. Uch Qirollik davriga oid ilk yozuvlar 1145-yilda birinchi marta yozib tugatilgan koreys xronikasi Kim Busikning "Samguk Sagi" asarida uchraydi. Biroq, zamonaviy koreyalik tarixchilar ushbu yozuvlarda keltirilgan sanalar haqiqiy tarixiy faktlardan ko'ra afsonaviy ma'lumotlarga asoslangan deb hisoblaydilar. Umuman olganda, ushbu davlatlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonning natijasi bo'lib, ular aniq sanadan ko'ra uzoq davr davomida shakllangan davlatlar sifatida qaraladi.[1]

Gojoseonning so'nggi davrida Manjuriya va Koreya yarim oroli hududida yangi qabilaviy davlatlar paydo bo'la boshladi. Buyeo davlati Manjuriya Jilin mintaqasini markaz qilgan holda, Songhua daryosi atrofida tekisliklarda rivojlandi va dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, otlar va mo'yna kabi mahsulotlarni ishlab chiqardi. 1-asr boshida Buyeo qirol unvonini qo'llay boshladi va Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, faol tashqi aloqalar olib bordi. Biroq, 3-asr oxirida Goguryeo davlatiga qo'shib ketdi. Buyeoda har yili 12-dekabrda osmonga qurbonlik keltiriladigan, qo'shiq va raqs bilan kechadigan va mahbuslarni ozod qiladigan "Yeonggo" deb nomlangan marosim o'tkazilardi. Buyeo



hududiy ittifoq sifatida inqirozga yuz tutgan bo'lsa-da, Goguryeo va Baekje davlatlarining asoschilari o'zlarini Buyeo urug'i deb bilishgan va bu o'zbek davrida muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan. "Samguk Sagi" xronikasida Buyeodan janubga ko'chgan Go Jumong miloddan avvalgi 37-yilda Goguryeo davlatiga asos solgani qayd etilgan. Goguryeo faol istilo urushlari olib borib, Baekdusan tog'i va Amnokgang daryosi hududida yirik davlatga aylangan. U dastlabki davrlaridanoq kichik davlatlarni zabt etib, poytaxtini Amnokgang atrofiga, ya'ni Guknaeseongga (Tonggu) ko'chirdi. Shuningdek, Xitoy Xan sulolasiga hujum qilib, Liaodong hududiga o'z nazoratini yoydi va sharqda Koreya yarim orolining shimoliy qismini qamrab olib, Manjuriyaga va Koreya yarim orolining shimoliy qismiga hukmronlik qilib, kuchli davlatga aylandi. Hamgyongdo va Gangwondo shimoli-sharqida joylashgan sohilbo'yi hududida esa Okjeo va Dongye kabi kichik davlatlar mavjud edi. Ammo, chekka hududda joylashgani sababli ular sekin rivojlandi. Dengiz mahsulotlari bilan boy bo'lgan Okjeo, Goguryeoga tuz va baliq mahsulotlarini soliq sifatida topshirardi. Dongye har yili 10-oktabrda "Mucheon" nomli diniy marosim o'tkazib, raqs va qo'shiqlar orqali birlikni nishonlagan va osmonga qurbonlik keltirgan. Bu yerning mashhur mahsuloti "Dangung" kamoni va mevazorlardan o'tib yuradigan kichik ot, "Gwahama" edi. Ushbu ikkala davlat ham, Buyeo kabi, keyinchalik Goguryeoga bo'ysundirilgan.[2]

Gojoseon davlati yuksalgan vaqtlarda, Koreya yarim orolining shimoli-g'arbiy hududida joylashgan Naknang-gun (낙랑군) davlatining ta'siri asta-sekin kamayib borgan bo'lsa-da, milodiy 4-asr boshlarigacha saqlanib qoldi. 3-asr boshlarida Naknang-gunning janubiy hududida Dabang-gun (대방군) tashkil etildi. Naknang-gun tomonidan boshqarilgan Choson-hyeon (朝鮮縣), ya'ni Pyongyang hududi, nafaqat Koreyaning shimoli-g'arbiy qismidagi madaniyat va siyosatning markazi bo'lib, balki Koreyaning janubiy qismlari va Yaponiya orollari bilan Xitoy o'rtasidagi savdo o'tkazuvchisi sifatida ham rivojlandi. Bu hududga Xitoylik aholi ko'chib kelib, mustahkam o'rnamshdi. Ularning qoldirgan qabrlari orasidan Xan sulolasidan olib kelingan qimmatbaho buyumlar va Naknang-gun hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar topildi, bu esa o'sha davrdagi Naknang-gunning gullab-yashnaganligini ko'rsatadi. Biroq, bu yuqori darajadagi madaniyat faqatgina Xitoylik aholi tomonidan boshqarilgan va Naknang-gunning boshqaruv tizimida ishtirok etgan ba'zi Gojoseonlik rahbarlarga tarqatilgan bo'lib, ko'pchilik Gojoseonlik aholi uchun aloqasi bo'lmagan. Bundan tashqari, Xitoyning bu harbiy okruglari va ularning kuchi manbai bo'lgan Xan sulolasi, bu okruglarning chekka hududlarida yashovchi Ye, Maek va Han millatlari jamiyatining siyosiy o'sishini bostirishda tashqi tahdid sifatida harakat qildi. Biroq, Xan sulolasi hududidagi ilg'or madaniyat, mahalliy jamiyatlarda o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Shunday qilib, Xitoyning bu okruglarining kuchlariga qarshi turar ekan, boshqa tomondan, ularning ilg'or madaniyatlarini qabul qilgan Ye, Maek va Han millatlaridan Gojoseon, Goguryeo, Okjeo, Dongye, Buyeo kabi ko'plab davlatlar paydo bo'ldi. Bu davlatlar o'zaro uzoq davom etgan integratsiya jarayonidan o'tgach, Goguryeo, Baekje va Silla kabi



davlatlarga aylanib, o'ziga xos siyosiy tizimlarni shakllantirdilar.

Goguryeo Xitoyliklar bilan kurashishda kuchini asta-sekin oshirib, Yu Ri Wang davriga kelib, Xan sulolasining o'rnini bosgan Xin sulolasi bilan to'qnashuvga kirishdi. So'ngra, Taeso Wang davrida, kuchli tashqi rivojlanishni amalga oshirib, Okjeoni zabt etdi va Yodong-gun hamda Hyendo-gunni tez-tez hujum qilib, o'zining kuchli davlat sifatida namoyon bo'ldi. Shuningdek, Goguryeo Yodong hududini egallab, Xitoyning uch davlatga bo'lingan paytida, Wei sulolasiga hujum qilib, o'zining zabt etuvchi davlat sifatidagi qiyofasini namoyish etdi. Silla va Gaya, hozirgi Gyeongju atrofida o'sib chiqqan Saro davlatining rivojlanishi, Xitoyning metall madaniyati bilan aloqalari kamroq bo'lgani uchun Goguryeo va Baekje dan sekin rivojlandi. Biroq, asta-sekin Sharqiy sohilga kelgan Seok oilasi bilan birlashib, konfederatsiya tuzdi. Shunday qilib, Talhae Isageum davrida mamlakat nomini Gyerim (鷄林) deb o'zgartirib, olti qishloqni olti bo'limga ajratdi. Bu davrda, qabilaning rahbari unvoni "Geoseogan" (軍長) deb talqin qilinsa, keyinchalik, uni "Chachawong" (次次雄), ya'ni shaman yoki ruhoniy sifatida talqin qilishdi va nihoyat, "Isageum" (尼師今) nomiga o'zgardi, bu esa rahbarlikni meros qilib olish ma'nosini anglatadi. Shundan keyin, Michu Wang davrida Kim Alji avlodidan bo'lgan Kim oilasi taxtni egalladi. Metall madaniyatining tarqalishi kech bo'lgan Byeonhanning bir qancha qabilaviy davlatlari ham 3-asrdan boshlab Gaya nomli konfederatsiyani tashkil eta boshladi. Baekje davlati esa, taxminan 50 ga yaqin Mahan qabilasidan boshlangan bo'lishi mumkin. Goguryeodan qochib ketgan Onjo guruhi dastlab Mijuhol va Wireseong hududlariga joylashdi, Beoryu o'z joniga qasd qilib, Wireseongga qo'shildi. Gojoseonning qulashi bilan ko'chib kelgan guruhlar Moksijuk hududidagi bir qancha kuchlarni asta-sekin yo'q qila boshladi. Shunday qilib, Daru Wang va Chogo Wang davrlarida mahalliy qabilalar kuchlarini birlashtirib, asta-sekin Mahan qabilalarining bir qatorida nizolarni keltirib chiqardi.[3] Uchta qirollik ilgari tashkil etilgan bir nechta davlatlarning an'analari va madaniyatlarini davom ettirgan holda, yanada rivojlangan davlat tuzilmasiga ega bo'ldi. Ilgari mavjud bo'lgan boshqaruvchilar, jumladan, qabilalar boshliqlari markaziy aristokratiya yoki amaldorlar tomonidan o'zlashtirildi va shuning orqali monarxiya kuchayib bordi. Shu tariqa, uchta qirollikda taxt vorisligi asta-sekin o'rnatildi va monarxiyani qo'llab-quvvatlovchi kuchli boshqaruv tizimi tashkil etildi. Bu davrda qabul qilingan budizm qirollikning obro'sini oshirib, davlatning ruhiy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, uchta qirollik Xitoyning madaniyatini o'zlashtirib, uni o'z davlatining sharoitlariga mos ravishda rivojlantirdi. Shu tarzda davlat asosini mustahkamlab, uchta qirollik 4-6-asrlarda katta rivojlanishga erishdi.[4]

Ta'lim dasturida uchta qirollik davri boshlaridagi davr "boshlang'ich ko'plab davlatlarning o'sishi" deb ta'riflanadi. Bu davrda ko'rsatilgan davlatlar Ko'guryo, Buyo, Okjo, Dongye, Samhan (Mahan, Jinhan, Byeonhan)dir. Darsliklarda ishlatilmasa-da, ba'zi ilmiy doiralarda uchta qirollik davrining boshlarini "Ilk uchta qirollik davri" (Wonsamguk Sidae) deb



atashadi. Boshqa atamalar ham ko'p ishlatiladi, ammo holat murakkab bo'lgani uchun Wonsamguk Sidae haqidagi hujjatlarga murojaat qilish tavsiya etiladi. Keyinchalik, 4-asrda Baekje davlati gullab-yashnashi (Gonchogo wangning hukmronligi), 5-asrda Ko'guryo davlati gullab-yashnashi (Jangsu wangning hukmronligi), 6-asrda Silla davlati gullab-yashnashi (Jinhwang wangning hukmronligi) kabi uch bosqichga bo'linib, jadval ko'rinishida tushuniladi. Har bir asrda kengayib, Han daryosi bo'yi kabi ko'plab hududlarni harbiy yo'l bilan egallab, tizimni tartibga solish davrlari asos qilib olinadi. Uchta qirollikdan Ko'guryo davlatini belgilashda davrlarni ajratish kerak bo'lsa, odatda Jolbonseong, Gungnaeseong, Pyeongyang kabi poytaxt davrlariga qarab ajratiladi. Bu ikki marta poytaxt ko'chirilganligi va bu davrlarning tartibga solinishi osonligi sababli shunday amalga oshiriladi. Ko'guryo va Baekje bilan bir xil, ikki marta poytaxt ko'chirilgan, shuningdek, poytaxtdagi o'zgarishlar Baekje ning o'sishi va qulashiga bevosita ta'sir ko'rsatganligi sababli, poytaxtni Wiresong, Ungjinseong, Sabiseong davrlariga qarab "Hanseong Baekje davri", "Ungjin Baekje davri" va "Sabiseong Baekje davri" kabi ajratiladi. Hanseong davri Baekje ning o'sish va rivojlanish davri, Ungjin davri Baekje ning qisqacha sustlashgan davri, Sabiseong davri esa qayta tiklanish va qulashi deb qaraladi va Baekje siyosatshunosligi butunlay No Jungguk tomonidan tartibga solindi. Ko'guryo va Baekje dan farqli o'laroq, Silla hech qachon poytaxtni ko'chirmagan, shuningdek, jamiyatda o'zgarishlar murakkab bo'lgani uchun boshqa mezonlar qo'llaniladi.[5]

Koreya yarim orolida bu davlatda xususiy yerlar mavjud emasdi. Davlatni mustahkamlash uchun davlat erlari (podshohning mulki) tizimi joriy etila boshlandi, bu tizim bo'yicha amaldorlar davlatga tegishli yerlarni vaqtincha foydalanish uchun berishdi yoki dehqonlar orqali yerlarni boshqarishdi. Mustaqil hokimiyatga ega bo'lgan birinchi koreys davlati podshoh hokimiyatiga asoslangan podshohlarning hukmronligi mavjud edi. Ko'guryo podshohi Mobonwang (48-53) ning zulmiga "Samguksagi" quyidagicha ta'rif bermoqda: "Kun sayin podshoh yanada qat'iyroq va zolimga aylandi. Podshoh o'tirganida odamlar uning o'tirishi uchun joy tayyorlar, u yotganda esa yostiq qo'yilardi. Kimdir unga qarshi gapirsa, yomonlik bilan shafqatsiz ravishda o'ldirilardi. Agar biron bir amaldor tushuntirishga urinsa, o'q bilan o'ldirilardi." Baekje podshohi Gonchogo wang haqida Kim Busik quyidagicha yozgan: "Uning xarakteri qattiq va qat'iy edi, qo'rqmas, pastkash va o'zgaruvchan bo'lib, odamlarni jazolashda kuchga tayanardi." Shuning uchun odamlar uni nafratlanishardi." Har bir davlatda kuchli ijtimoiy tabaqalanish mavjud edi. Sillaning ijtimoiy tizimi "Golpulje" deb atalib, u naslga asoslangan edi. Bu tizim uchta asosiy elementdan iborat edi. Birinchi va ikkinchi elementlar hukmdorlar oilasiga mansub nasl guruhlaridan iborat edi: 1) Seonggol (聖骨) - podshoh oilasiga mansub aristokratlar (Park, Seok, Kim oilalari avlodlari), 2) Chingol (眞骨) - Seonggol oilasining asosiy avlodlari va Sillani tashkil etgan Jinhan guruhining avlodlari. Uchinchi esa ko'pchilikni tashkil etib, 6dulpum (6 doo-pum) tabaqasini shakllantirdi. Ular podshoh oilasi bilan aloqasi bo'lmaganligi sababli yuqori mansabga ega



bo'la olishmadi. Har bir odamning hayoti aniq ijtimoiy tabaqa tomonidan belgilangan edi. Dehqonlar hech qanday tabaqaga mansub bo'lmaganlar va ular oddiy odamlar (pyongmin) deb atalardi.[1]

Uchta davlatda temirni eritish va qayta ishlash madaniyati, qimmatbaho toshlar va boshqa materiallarni bezash madaniyati yuqori darajada rivojlangan edi. Arxitektura va qurilish texnologiyalari ham sezilarli darajada rivojlanib, saroylar, ibodatxonalar va qabristonlar qurilgan edi. Masalan, Goguryeoning yer osti qabri (eng mashhuri Anak qabri) mukammal me'morchilik namunalari sifatida qaraladi. Amaliy san'atning yorqin namunalaridan biri bu — og'irligi 12 kg bo'lgan, 26 ta hayvon o'yilgan Baekje oltin xushbo'ylik idishi va Sillada yasalgan hashamatli oltin tojdir. Uch davlat davrida ilmiy bilimlar ham sezilarli darajada rivojlangan edi. Astronomiya bilimlarining mavjudligi Goguryeo qabrlari devoriy rasmlari va Sillaning Chomseongdae (yulduzlarni kuzatish uchun minorasi) orqali osmon va yulduz turkumlarining (ayniqsa Shimoliy yulduz turkumi) tasvirlarida aks etgan.[6]

Tarix fani 100 ta kitobdan iborat bo'lib, asosan qadimgi va ilk o'rta asr davrlariga e'tibor qaratadi va Goguryoning xronikasi *Gujiga* (古記) va Baekjening *Sogi* (書記) (384-yilda yozilgan) kabi manbalarga tayangan. Baekjede *Tochak* nomli xaritalar to'plami tuzilgan edi. Falsafiy dunyoqarashning kelib chiqishi esa Xitoy ta'sirini qabul qilgan Gojoseonga borib taqaladi. Qadimgi koreys faylasuflari olamni ikki asosiy elementning o'zaro ta'siridan tashkil topgan deb tasavvur qilishgan. Ya'ni, erkaklarga xos, ijobiy, yorqin va faol tamoyil bo'lgan Yang (陽) va ayollarga xos, salbiy, passiv va qorong'i tamoyil bo'lgan Um (陰) mavjud edi. Ilk moddalar fasllarning almashinuviga ko'ra Yanggiyning nurli energiyasi (陽氣) va Umgiyning qorong'i energiyasi (陰氣) ta'sirida osmon va yer, shuningdek, beshta asosiy element — metall, daraxt, suv, olov va tuproq paydo bo'lgan. Bu beshta element har biri ma'lum bir joy va rang bilan bog'liq edi: tuproq markaz va sariq rang, daraxt sharq va yashil rang, metall g'arb va oq rang, olov janub va qizil rang, suv esa shimol va qora rangni ifodalagan. Bu beshta elementning uyg'unligi turli hodisalarni keltirib chiqardi. Dastlabki beshta element sulolalarni ramziy ifodalagan va har bir sulola osmon va tuproq, suv, olov, metall, daraxt kabi tabiat unsurlarining “yaxshi xususiyatlarini” olib, o'z hukmronligini o'rnatgan. Elementlar ketma-ket bir-birini almashib borgan: tuproq daraxtga, daraxt metallga, metall olovga, olov suvga aylanar edi, va bunday davriy almashinuv hukmron sulolalar tomonidan tasdiqlangan. Um va Yangning holati insonning ruhi yoki qalbi asosida qurilgan edi. Koreyslar bir necha marta o'limdan keyin “ruh” yoki “jon” paydo bo'ladi, deb ishonishgan. Shuningdek, ular uyg'onuvchi ruh haqida tushunchaga ega bo'lishgan. Bu tushuncha qayta tug'ilish g'oyasiga asoslangan bo'lib, o'lganlarning ruhi yana hayvon yoki inson sifatida qayta tug'iladi, deb ishonilgan. Ushbu g'oya buddizmning “ruhlarning qayta tug'ilishi” haqidagi tushunchasiga o'xshash bo'lsa-da, Koreyada uzoq yillik totemizmga asoslangan o'ziga xos an'ana sifatida qabul qilingan.[7]

Xulosa. Uch davlat davri Koreya tarixida muhim o'rin tutadi. Bu davrda Goguryeo, Baekje



va Silla davlatlari Koreya yarimoroli va Manjuriyada siyosiy va madaniy jihatdan raqobat qilib, rivojlangan. Uch davlat turli xil siyosiy tuzilma va madaniy xususiyatlarga asoslanib o'ziga xos milliy o'zligini shakllantirdi, shuningdek, buddizm va konfutsiylik ta'limotlarini qabul qilib, ma'naviy va madaniy taraqqiyotga erishdi. Bu davrda temirchilik, me'morchilik, astronomiya va falsafiy dunyoqarashning rivojlanishi qadimgi Koreya sivilizatsiyasining yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Uch davlat bir-birlari bilan o'zaro ta'sir va raqobat orqali Koreya yarimorolining birlashuviga zamin yaratdi. Shunday qilib, uch davlat keyingi Birlashtirilgan Silla va Koryo davlatlari rivojiga asos bo'ldi va zamonaviy Koreya tarixining muhim ildizlari sifatida alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANGAN ADABIYOLAR:

1. Jumayev Tulqin Xolmurodovich – “Koreya davlat tarixi”. Yashil yaproq nashryoti – 2024. 38, 52
2. <https://kccuk.org.uk/ko/about-korea/history/three-kingdoms-and-other-states/>
3. https://ko.m.wikipedia.org/wiki/%EC%82%BC%EA%B5%AD_%EC%8B%9C%EB%8C%80
4. http://contents.history.go.kr/mobile/ta/view.do?levelId=ta_m51_0040_0010
5. <https://namu.wiki/w/%EC%82%BC%EA%B5%AD%EC%8B%9C%EB%8C%80#s-4.1>
6. Jumayev. T. X, Ergasheva. D. A. – “Koreyada madaniyat va ta'lim”. Yashil yaproq – 2024. 33-35 p
7. V.S. Xan – “Koreya tarixi” Toshkent. “Baqtriya press” 2013. 36-38 p

**KURASHCHILARNING TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGI**

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti Nukus filiali o'qituvchisi
Xudaybergenov Jenis Otepovich

Annotatsiya: Maqolada kurashchilarning kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yaxshi jismoniy tayyorgarlik kurashchi tayyorgarligining barcha jihatlarini takomillashtirishning poydevori hisoblanadi. Shu sababli, ham endigina sport bilan shug'ullanishni boshlagan, ham yuqori malakali sportchilar jismoniy tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Kalit so'zlar: sport kurashi, tezkor-kuch sifatleri, jismoniy sifatlar, sport, jismoniy mashqlar.

Kirish. Yakkakurashchilarning sport mashg'ulotlaridagi zamonaviy jahon yutuqlari shunchalik yuqoriki, yoshlikdan jismoniy tayyorgarliksiz sportchining yetuk yoshida yuqori natijalarga erishishi mumkin emas. Shu bois, yosh kurashchilarni tayyorlash mamlakatimizda sport zaxirasini shakllantirish va kurash sport turining nufuzini oshirishda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bilan bog'liq masalalar o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarning qanchalik oqilona hal etilishiga qarab sportchilarning jismoniy sifatleri rivojlanishi, texnik mahorati shakllanishi va keyinchalik sport-texnik natijalarining o'sishi belgilanadi.

Kurashchining jismoniy sifatleri, ularning yosh jihatidan rivojlanish xususiyatlari muhim ahamiyatga ega, chunki butun sport mahorati, sport kurashi bilan shug'ullanish uchun asosiy harakat qobiliyatlarini shakllantirish poydevori aynan o'smirlik davrida qo'yiladi. Harakat qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlari har bir sport turiga xos bo'lib, motivatsiya, maqsadlar, sport turining rivojlanish tarixi, sport faoliyati qoidalari va shu kabilar bilan belgilanadi. Harakat faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan to'g'ri qaror qabul qilish uchun ma'lum bir sport harakati qanday tashkil etilganligini va qanday sharoitda amalga oshirilishini bilish kerak. Sport mashg'ulotlarida o'quv jarayonini uslubiy jihatdan to'g'ri amalga oshirish va muvaffaqiyatli tashkil etish zarur, bunda bolalar va o'smirlarning harakat funksiyasining turli jihatlarini rivojlantirish, shakllantirish va maqsadli takomillashtirish qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish kerak.

Jismoniy tayyorgarlik sport mashg'ulotlarining asosidir. Kuch va tezlik, chidamlilik va egiluvchanlik, chaqqonlik kabi jismoniy sifatler yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, texnik va taktik tayyorgarlik yaxshi bo'lgan taqdirda ham yuqori sport natijalariga erishib bo'lmaydi.

Yuqori malakali kurashchilarda tezkorlik, portlovchan va mushak kuchi, chidamlilik,



chaqqonlik va egiluvchanlik yaxshi rivojlanganligi aniqlandi. Shuning uchun jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ustuvor ahamiyat nafaqat yuqori ish qobiliyatiga ega bo'lishga, balki sportchining kurashda yuqori sport natijalariga erishishiga ham yordam beradi [1, 2, 3]. Kurash sport turida murakkab o'zgaruvchan vaziyatlarda amalga oshiriladigan yuklamaning katta hajmi bilan tavsiflanadi, bu harakat reaksiyalarining tezkorligi va kuchiga, kurashchining bir zumda optimal qarorlar qabul qilish va samarali texnik-taktik harakatlarni maksimal mumkin bo'lgan tezlikda bajarish qobiliyatiga yuqori talablar qo'yadi.

Shuning uchun yakkakurashlarda tobora kuchayib borayotgan raqobat sport kurashi oldiga qo'yiladigan talablarga javob beradigan sport tayyorgarligining yangi, yanada samaraliroq vositalari va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bilan birga, yosh sportchilarning musobaqa bellashuvlarida yuqori sport natijasiga erishish va umuman o'quv-mashg'ulot va musobaqa faoliyatini yanada muvaffaqiyatli o'tkazishga qaratilgan tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish masalasi yuzaga keladi.

Sportning amaliy faoliyati shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashqlar sportchi organizmining holatiga ta'sir ko'rsatishning turli yo'nalishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish samaradorligi qo'llaniladigan vosita va usullarning salmog'i bilan uzviy bog'liq.

Tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga mintaqaviy va global ta'sir ko'rsatadigan turli xil mashqlar ta'sir qilishi mumkin. Sportning biror turiga xos bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish haqida gap ketganda, asab-mushak kuchlanishlarining tabiati va tuzilishi bo'yicha muayyan sport turidagi harakat harakatlariga yaqin bo'lgan maxsus tanlangan mashqlar eng maqsadga muvofiqdir. Muayyan sport mashqining harakat xususiyatidan kelib chiqqan holda mashg'ulot jarayoni texnologiyasini tanlash zarurligi haqidagi ushbu qoida sport metodikasining eng qimmatli yutuqlaridan biri bo'ldi [2,8].

Kurashchilarning tezkor-kuch tayyorgarligi amaliyotida portlovchi kuchni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, mashg'ulot jarayonining dastlabki bosqichlarida portlovchi kuchni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni qo'llash kerak, keyinchalik ularning ulushi sezilarli darajada oshadi.

Kuch tayyorgarligi vositalari va texnologiyalarini tanlashda harakatning asosiy parametrlari va mushak kuchlanishlari dinamikasini kuzatib borish zarur. Bir qator mualliflar [8] og'irliklar bilan kurashchining portlovchi kuchini rivojlantirish uchun mashqlarning uchta guruhini ajratadilar:

- 1) sezilarli og'irliklar bilan mashqlar (maksimal og'irliklarning 80-90%);
- 2) katta bo'lmagan og'irliklar bilan (maksimal og'irliklarning 80% i) katta tezlikda bajariladigan mashqlar;
- 3) chegaraviy tezlikda bajariladigan musobaqa og'irliklari bilan bajariladigan mashqlar.

Maksimal og'irlikdagi jismoniy mashqlar mutlaq kuchni oshiradi va portlash qobiliyatlarini



samarali rivojlantirishga yordam beradi [2].

Kichik og'irlikdagi jismoniy mashqlar harakatning o'ziga xos tuzilishini saqlab qolgan holda texnik harakat harakatlari va ularning elementlarini musobaqaga qaraganda yuqori tezlikda takomillashtirish imkonini beradi, bu esa portlash qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Og'irliklarning musobaqa rejimlarini bajarishda portlovchi kuchni rivojlantirish bilan birga texnika ham takomillashtiriladi, chunki bunday mashqlarda harakatlanish harakatining tashqi va ichki tuzilishi saqlanib qoladi.

Sport yakkakurashlarida tezkor-kuch qobiliyatlarini tarbiyalash uchun bir qator mualliflar [1, 3, 4, 5, 9.] quyidagi usullarni taklif qiladilar: cheklanmagan kuchlanishlar, zarbali, maksimal kuchlanishlar, o'zgaruvchan, aylanma va takroriy.

Cheksiz zo'r berish usuli - jismoniy mashqlarni maksimal og'irlik bilan emas, balki maksimal tezlikda bajarish bilan xarakterlanadi. Bu usul sport kurashida muvaffaqiyatga erishish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan "portlovchi kuch"ni rivojlantirish vazifasini hal qiladi, chunki hujum, qarshi hujum va himoya harakatlarini bajarish raqib bilan bevosita atletik yakkakurash doirasida amalga oshiriladi. Portlash kuchini rivojlantirish mezonlari:

- mushak kuchlarining konsentratsiyasi va dastlabki deformatsiya. Sport kurashining o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan sharoitlarda mushak kuchlarini jamlash qobiliyatini takomillashtirish, xususan, texnik harakatlarni bajarishda mushak guruhlarining xarakteri va ish rejimiga o'xshashlik;

- maxsus mashqlar. Yakkakurashchining tezkor-kuch qobiliyatlarini, uning portlash sifatlarini tarbiyalashda turli xil og'irliklar bilan jismoniy mashqlardan foydalanish zarur. Biroq, barcha og'irliklar uchun umumiy talab bo'lishi kerak, bunda har bir mashg'ulotda sportchi berilgan og'irlik bilan tezlikni pasaytirmasdan mashqlarni takrorlay oladigan jismoniy mashqlar sonini bajarishi kerak.

Shu munosabat bilan portlovchi kuch va koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirishda og'irliklarni almashtirishni qo'llash maqsadga muvofiq [4, 8]:

- 1) dastlab musobaqa og'irligidan kamroq, keyin esa ko'proq og'irlik (og'irliklarning og'irligi sportchining maksimal natijasiga nisbatan foizlarda tanlanadi);
- 2) og'irliklar dastlab musobaqa og'irligidan ko'p, keyin esa kam bo'ladi;
- 3) og'irliklar dastlab kamroq, keyin esa musobaqa og'irligiga teng bo'ladi;
- 4) og'irliklar dastlab katta, keyin esa musobaqa og'irligiga teng bo'ladi.

Oyoq mushak guruhlarining portlovchi sifatlarini rivojlantirishning zarbdor usuli ma'lum balandlikdan sakrash natijasida sezilarli darajada rag'batlantirish, shuningdek, sakrashni keyinchalik balandlikka yoki uzunlikka sakrash bilan birlashtirishdan iborat. Qarshilik darajasi xususiy og'irlik va tushish balandligi bilan aniqlanadi [1, 2].

Mushaklarni qo'zg'atishni oldindan cho'qqayib o'tirish va keyin keskin to'g'rilanish yoki sakrab tushish bilan chaqirish mumkin. Sakrash chuqurligining optimal diapazoni 0,75-1,15



m, to'liq tayyorgarlikka ega bo'lmagan sportchilarda 0,25-0,5 m pastroq balandliklardan foydalanish maqsadga muvofiq. Harakat tezligi mumkin qadar yuqori, takrorlashlar soni 3-4 minutda 5-10 ta.

Takroriy usulda 50-80% kuch ishlatish tavsiya etiladi, takrorlashlar soni kam bo'lganda maksimal tezlik bilan amalga oshiriladi - bu portlash turidagi kuchdir. Yakkakurashchilar tayyorgarligi amaliyotida 20-40% kuchlanishlar odatda nisbatan ko'proq takrorlashlar soni bilan bog'liq va natijada tezkor ishlarga kuch chidamliligini ko'proq darajada rivojlantiradi. Musobaqa usulidan foydalanib, portlovchi kuchni rivojlantirishda ijobiy samaraga erishish mumkin.

Maxsus mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatishning optimal vositasi texnik harakat amallarining o'zi bo'ladi. Yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda xususiy uslubiy usullardan biri maxsus mashq (texnik harakat harakati) bo'lib, u natijaga qarab bajariladi - manekenni sinov uchun ulotirish [3, 6, 7].

Tezlik-kuch sifatlarini namoyon qilish davomida mushaklar, odatda, yon beruvchi va yengib o'tuvchi rejimlar uyg'unligida ishlaydi. Biroq, shunday vaziyatlar ham bo'ladiki, yon beruvchi rejimda muskullarda sezilarli darajada zo'riqish paydo bo'la boshlaydi, shu tufayli bunday muskullarning yengib o'tuvchi ishida kuch ifodalanishining kattaligi sezilarli darajada ortadi.

Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ba'zi murabbiylar parterda kurashga murojaat qilishadi va bu ularga maxsus tezkor-kuch tayyorgarligining bir nechta global vazifalarini hal qilish imkonini beradi [6]. Yotgan holatda kurashni har qanday tayyorgarlik darajasidagi sportchilar bilan ishlashda va tayyorgarlikning turli bosqichlarida qo'llash mumkin, ammo parterdagi usullar ko'pincha kuch rejimida bajariladi va faqat ba'zi elementlar tezlik-kuch yo'nalishiga ega.

Shunday qilib, “portlovchi” kuchning rivojlanishini ta'minlash uchun turli xil to'ldirma to'plar, yadrolar, toshlar va toshlarni final qismida eng katta tezlanish bilan turli holatlardan ulotirish va itqitish; bolta va bolg'a bilan ishlash; biron-bir shtangani siltash va itarish; shuningdek, zarbalar paytida, himoyalanishda, himoyadan zarbalarga o'tishda va aksincha, o'z tanasining inersiyasini yengib o'tishdan foydalanish mumkin. Zarba harakatlarida asosiy yukni ko'taradigan qo'llarni yozuvchi mushaklar kuchini rivojlantirishni ta'minlash uchun muvaffaqiyatli va tez-tez qo'llaniladigan mashq yotgan holda tayanishda turli xil qo'llarni bukish hisoblanadi.

Qorin pressi mushaklarini mustahkamlashga ham kam e'tibor bermaslik kerak. Bundan tashqari, atletik tayyorgarlik uchun turnikda, bruslarda, gimnastika devorida, amortizatorlar va og'irliklar bilan, sheriklar bilan turli mashqlardan ham keng foydalaniladi.

Xulosa: Taklif etilayotgan kuch mashqlari va ularning majmualari haftada kamida ikki marta qo'llanilishi kerak. Ko'pincha turli kuch ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalari mashg'ulotning asosiy qismining ikkinchi yarmida (yoki oxirida) hal qilinadi. Shu bilan



birga, mashg'ulotni bir nechta kompleks “blok”lardan tuzish ham mumkin, ularning har birida texnikani ko'rib chiqish va takomillashtirish, kuch va egiluvchanlikni rivojlantirish vazifalari izchil hal qilinadi. Kuchning rivojlanish darajasi yuqori bo'lmaganda, qo'shimcha kuch mashg'ulotlarini atletik tayyorgarlik zalida, maktab sport maydonchasida, uyda o'tkazish yoki ertalabki jismoniy mashqlar paytida kuch yuklamasini oshirish mumkin. Shu bilan birga, oshirilgan kuch yuklamasini oladigan mushaklarning cho'zilishi va bo'shashishi majburiy hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Алиханов И.И. Молниеносная атака / И.И. Алиханов // Спортивная борьба: ежегодник. М., 1974.
2. Верхошанский Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте / Ю.В. Верхошанский. М.: Физкультура и спорт, 1977.
3. Волков В.П. Исследование технико-тактической и физической подготовленности борцов-самбистов: автореф. дис. ... канд. пед. наук / В.П. Волков. М.
4. Воротник А.Н. Повышение физической подготовленности курсантов вузов МВД России средствами и методами развития выносливости / А.Н. Воротник, П.Н. Войнов, А.В. Апальков // Вестник Белгородского юридического института МВД России, 2014. № 1.
5. Галковский Н.М. Модельные характеристики сильнейших борцов в вольной борьбе / Н.М. Галковский, А.А. Новиков, Б.Н. Щустин // Спортивная борьба: ежегодник. М.
6. Дахновский В.С. Повышение специфичности применяемых средств / В.С. Дахновский, А.А. Ишмухаммедов, М. М. Чубаров // Спортивная борьба: ежегодник. М.
7. Дианов Н.Д. Эффективное совершенствование специальной выносливости борцов в процессе тренировки с дополнительным сопротивлением внешнему дыханию: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Н.Д. Дианов. М.
8. Егизарян А.Д. Экспериментальное обоснование путей совершенствования скоростно-силовой подготовки юных борцов : автореф. дис. ... канд. пед. наук / А.Д. Егизарян. М.
9. Егизарян А.Д. Пути совершенствования специальной скоростно-силовой подготовленности юных борцов / А. Д. Егизарян // Спортивная борьба: ежегодник. М., 1976.



O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA BEGONA KISHILARGA MUROJAAT SHAKLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Tulasheva Mexriyo

Pop tumani 17-maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Murojaat nutqiy etiketning muhim komponenti bo'lib, yozma va og'zaki nutqda faol qo'llaniladi. U turli tillarda o'ziga xos ko'rinish va tuzilishga ega bo'lib, muloqotning lingvokulturologik hamda kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu tezisda o'zbek va qoraqalpoq tillarida begona kishilarga murojaat shakllarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: murojaat, nutqiy etiket, qarindoshlik atamalari, lingvokulturologiya

Murojaat nutqiy etiketning muhim komponentlaridan biri sifatida yozma nutqda ham, og'zaki nutqda ham ko'p uchraydi. Shuning uchun u haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Murojaat birliklari turli tillarda o'ziga xos ko'rinish va tuzilishga ega bo'lib, ular muloqotning lingvokulturologik va lingvopoetik jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi va ular nutq egalarining ijtimoiy maqomi, yosh farqi, rasmiylik darajasi va muloqot kontekstiga qarab o'zgarishi mumkin.¹

O'zbek va qoraqalpoq tillarida so'zlasuv uslubida notanish kishilarga murojaatda qarindoshlik atamalaridan yoshiga mos ravishda qo'llanilish holatlari uchraydi O'zbek tilida murojaat birliklari ko'pincha qarindoshlik atamalari asosida shakllanadi. Masalan, kichiklarga – *uka, singil*; tengdosh va biroz kattalarga – *aka, opa, yanga*; yoshi ancha katta kishilarga – *xola, amaki, tog'a*; ulug' avlod vakillariga – *otaxon, onaxon* kabi murojaatlar ishlatiladi. Shuningdek, Toshkent va vodiy aholisi nutqida *hoji ota, hoji ona, hoji opa, hojixon* kabi diniy maqomni bildiruvchi murojaatlar ham faol qo'llanmoqda. Farzand yoki nabira yoshidagi insonlarga esa *bolam, qizim* deb murojaat qilinib, mehr-muhabbat ohangi ifodalanadi. Biroq *bola* so'zining qo'llanilishi ba'zi hollarda tahdid, mensimaslik yoki kesatq ma'nosini ham anglatadi. Erkaklar o'rtasida esa *do'st, jo'ra, oshna, og'ayni* kabi murojaatlar keng tarqalgan.

Qoraqalpoq tilida ham begona kishilarga murojaatda qarindoshlik terminlari asosiy o'rin tutadi. Masalan, *sinli, ini, brat, sestra, ajapa, ajag'a, ag'a, apa* kabi murojaatlar ishlatiladi. O'zbek tilidan farqli ravishda *xola, amaki, tog'a, otaxon, onaxon* atamalari qo'llanilmaydi. Aksincha, qoraqalpoq tiliga xos bo'lgan *qarindas* atamasi nafaqat tug'ishganlikni, balki notanish ayol-qizlarga murojaatda hurmat ma'nosini ham ifodalaydi². Kazakov I. o'z



tadqiqotida *qarindosh* va *qarindas* soʻzlarini ikki millat madaniyatini aks ettiruvchi, takrorlanmas lingvokulturologik birlik sifatida tahlil qilgan³.

Murojaat birliklari oʻzbek va qoraqalpoq tillarida lingvistik, madaniy va ijtimoiy jihatlarni ifodalaydi. Begona kishilarga murojaatda qarindoshlik terminlaridan foydalanish, bir tomondan, hurmat va samimiyatni bildirsa, ikkinchi tomondan, har bir tilning milliy-madaniy xususiyatini yoritadi. Shunday qilib, murojaat shakllari ikki tilda ham lingvokulturologik tafakkurni oʻzida mujassam etuvchi muhim birliklardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadjonova M. Ingliz va oʻzbek tillarida murojaat birliklarining lingvokulturologik va lingvopoetik tadqiqi. Qoʻqon DPI. Ilmiy xabarlar. 2025-yil 2-son b.1347
2. Naurizova A. Qaraqalpaq tilidagi etiket soʻzlar. Filol.fan d-ri (PhD).. dis Nókis – 2020. 44- bet
3. Kazakov I. Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar talqini. Filol.fan d-ri (DSc).. dis. – Nukus 2024. B. 67

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JAMOAT TARTIBIGA TAJOVUZ
QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 322-guruh kursanti
Avazov Og'abek O'rol o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning oldini olishdagi o'rni va faoliyati tahlil qilinadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorining huquq va vakolatlari, fuqarolar bilan hamkorligi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashi hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, huquqbuzarlik, jamoat tartibi, huquqiy ong, xavfsizlik, profilaktika choralari, huquqiy madaniyat.

O'zbekiston Respublikasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Chunki jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar fuqarolarning huquq va erkinliklarini poymol qiladi, jamiyatda beqarorlik muhitini yuzaga keltiradi. Ushbu jarayonda profilaktika inspektorlarining faoliyati beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular mahallalarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarga moyil shaxslarni aniqlash va ular bilan yakka tartibda ishlash, shuningdek, fuqarolar o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish bilan shug'ullanadi [1].

Profilaktika inspektorlari faoliyatini samarali tashkil etish 2017-yilda qabul qilingan Prezident farmoni asosida yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu hujjatga ko'ra, profilaktika inspektorlari mahallalarda “xavfsizlik kafillari” sifatida faoliyat yuritmoqda, ularning vakolatlari kengaytirilib, aholiga yanada yaqinlashtirildi [2]. Ayniqsa, jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning oldini olish, ya'ni bezorilik, mayda o'g'rilik, oilaviy mojarolar, spirtli ichimlik iste'moli bilan bog'liq qoidabuzarliklar bo'yicha faoliyatlari sezilarli darajada kuchaytirildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda profilaktika inspektorlari tomonidan 250 mingdan ortiq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan suhbatlar o'tkazilgan, natijada jamoat joylarida sodir etilgan bezorilik holatlari 11 foizga kamaygan [3]. Bu esa inspektorlarning nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi, balki ijtimoiy-pedagogik vazifalarni ham bajarishini ko'rsatadi.

Jamoat tartibini buzuvchi huquqbuzarliklarning asosiy sabablari orasida fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining pastligi, ishsizlik, oilaviy nizolar, yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilmaslik kabi omillar alohida o'rin tutadi. Shu bois profilaktika inspektorlari faoliyatida nafaqat nazorat va jazolash, balki huquqiy-ma'rifiy



targ'ibot ishlari ham ustuvor ahamiyatga ega. Mahalla yig'inlarida, ta'lim muassasalarida va yoshlar markazlarida muntazam huquqiy targ'ibot tadbirlarining o'tkazilishi buning yaqqol misolidir [4].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda profilaktika inspektorlari ortiqcha yuklama ostida ishlamoqda, bu esa ularning faoliyat samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning ortib borayotgani, jamoat joylarida yoshlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarning ko'payishi ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Kelgusida profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish uchun bir nechta yo'nalishlarni alohida ta'kidlash lozim:

inspektorlarning kasbiy malakasini oshirish, jumladan, psixologik yondashuvlarni chuqur o'rgatish;

fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, mahalla, yoshlar ittifoqi va xotin-qizlar qo'mitalari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

huquqiy targ'ibotni innovatsion usullarda, jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda olib borish;

“raqamli profilaktika” tizimini rivojlantirish orqali xavf guruhidagi shaxslarni aniq nazorat qilish;

jamoat joylarida kuzatuv kameralarini kengaytirish va sun'iy intellekt asosida tezkor monitoringni joriy etish [5].

Profilaktika inspektorining jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning oldini olishdagi faoliyati jamiyat barqarorligi va fuqarolarning tinch hayotini ta'minlashda muhim omildir. Ushbu faoliyatni takomillashtirish orqali huquqbuzarliklar sonini kamaytirish, huquqiy ong va madaniyatni oshirish hamda jamoat xavfsizligini mustahkamlashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2017-yil.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yilgi hisobot ma'lumotlari.

Xudoyberdiyev R. *Huquqbuzarliklarning oldini olish nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Adolat, 2020.

Jo'rayev M. *Ichki ishlar organlari faoliyatida profilaktika tizimini rivojlantirish*. – Toshkent: TDYUU, 2021.

**HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BEVOSITA AMALGA
OSHIRUVCHI ORGANLAR VA MUASSASALAR FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 321-guruh kursanti
Urolboyev Zafarjon Zokir o'g'li*

Annotatsiya:Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar faoliyatining hozirgi holati va uni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Ichki ishlar organlari, prokuratura, mahalla fuqarolar yig'inlari, ta'lim muassasalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu sohadagi o'rni yoritilib, ularning o'zaro hamkorligi samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati ko'rsatiladi. Shuningdek, profilaktika ishlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar:Huquqbuzarliklar, profilaktika, ichki ishlar organlari, prokuratura, mahalla, ta'lim muassasalari, huquqiy ong, hamkorlik, huquqiy madaniyat.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni profilaktika qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning xavfsizligini kafolatlash va jamiyatda barqaror muhit yaratish ko'p jihatdan ushbu vazifani bajaruvchi organlar va muassasalar faoliyatiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar qatoriga ichki ishlar organlari, prokuratura, sudlar, shuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlari va ta'lim muassasalari kiradi [1].

Ichki ishlar organlari (IIO) ushbu tizimning asosiy bo'g'ini bo'lib, ular nafaqat jinoyatlarni fosh etish, balki ularning oldini olish, huquqbuzarliklarga moyil shaxslar bilan yakka tartibda ishlash, jamoat tartibini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi. 2017-yilda qabul qilingan Prezident Farmoni asosida profilaktika inspektorlari faoliyati tubdan takomillashtirildi, ularning mahallalardagi vakolatlari kengaytirildi, "xavfsizlik kafillari" sifatidagi roli oshirildi [2].

Prokuratura organlari esa huquqbuzarliklarning oldini olishda muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi rolni bajaradi. Ularning asosiy vazifasi – qonuniylikni ta'minlash, huquq-tartibotni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning profilaktikasida boshqa davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir.



Mahalla fuqarolar yig'inlari ham profilaktika tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi. Mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, xotin-qizlar faollari, yoshlar yetakchilari hamkorligida olib borilayotgan profilaktik ishlarda, ayniqsa, oilaviy nizolarni hal qilish, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka qo'shilib qolishining oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda [3].

Ta'lim muassasalari ham huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim subyektlaridan hisoblanadi. Maktab va oliy ta'lim tizimida huquqiy bilimlarni singdirish, huquqiy tarbiya darslarini samarali tashkil etish, yoshlarni huquqqa hurmat ruhida tarbiyalash huquqbuzarliklarning oldini olishning eng asosiy omillaridan biridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda yoshlar bilan o'tkazilgan huquqiy-ma'rifiy tadbirlar natijasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 10 foizga kamaygan [4].

So'nggi yillarda profilaktika ishlariga zamonaviy texnologiyalar ham keng joriy etilmoqda. Masalan, “E-profilaktika” elektron tizimi orqali xavf guruhiga kiruvchi shaxslar haqida ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, ularni nazorat qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligi oshirilmoqda. “Xavfsiz hudud” loyihalari doirasida mahallalarda o'rnatilgan kuzatuv kameralarining samaradorligi ham yuqori natija bermoqda [5].

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba'zi hududlarda profilaktika inspektorlarining yuklamasi ortiqcha bo'lishi, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik yetarli darajada tizimlashtirilmagani, internet orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar ko'payib borayotgani ushbu sohada yechim talab qiladigan masalalardandir.

Kelgusida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

profilaktika inspektorlari va mutaxassislarning malakasini oshirish;

davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish;

huquqiy targ'ibotni zamonaviy usullarda, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish;

yoshlar bandligini ta'minlash orqali ularni huquqbuzarliklardan chalg'itish;

raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi nazorat tizimlarini joriy etish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar faoliyatini takomillashtirish nafaqat jinoyatchilik darajasining pasayishiga, balki jamiyatda huquqiy madaniyat va qonun ustuvorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi IIV statistik ma’lumotlari, 2023-yil.
- 4.Xudoyberdiyev R. *Huquqbuzarliklarning oldini olish nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Adolat, 2020.
- 5.Jo‘rayev M. *Ichki ishlar organlari faoliyatida profilaktika tizimini rivojlantirish*. – Toshkent: TDYUU, 2021.



THE LINGUACULTURAL FEATURES OF METAPHORS IN “1984” BY GEORGE ORWELL

Ibragimova Parizod Maqsud qizi
Ma'mun universiteti o'qituvchisi
iparizod823@gmail.com

Annotation: Linguoculturology is a new emerging field of linguistics that came within anthropocentric paradigm, and this helps to learn how language expresses culture, and how it displays, transmits and stores cultural information. In this point, stylistic devices such as metaphors can be cultural models because in all literary texts, writers use metaphors based on their own cultural knowledge. In order to understand the true meaning of metaphors, readers should have general background about the country that metaphors emerged. In this article, the linguacultural peculiarities of metaphors in “1984” by George Orwell is discussed.
Key words: Linguaculturology, cultural study, metaphor, translation, language, literary texts, cognitive linguistics.

Metaphors are not just creative language, they affect people's mind, feeling, cultural values and help to understand abstract ideas. Metaphors have been studied by scholars for many years. Aristotle gave the definition of the word “metaphor”, according to him, “giving the thing a name that belongs to something else,”¹ which means attributing a characteristic or name to another object. For instance, saying “the storm roared” gives a natural event more color and meaning by tying the characteristic of “roaring,” which is typically connected to animals, to it. Aristotle believed that metaphors aided in understanding by offering a fresh perspective. By connecting unfamiliar concepts to well-known ones, metaphors can elicit feelings, provide clarification, and stimulate the imagination of the listener. Aristotle also argued that mastery of metaphor is a sign of brilliance since it requires the ability to see connections that others might overlook.

Due to the development of Cognitive Linguistics, the interest to the analyze of metaphor has also increased. Within Cognitive Linguistics a new approach to the problem of metaphor has been developing. Within the framework of Cognitive Semantics, a new understanding of metaphor - more specifically, conceptual (cognitive) metaphor - replaced the issue of traditional metaphor interpretation. Metaphor is a particular method of conceiving information based on the mental process of analogy and knowledge transfer from one conceptual field into another. It is considered a cognitive mechanism, a way of thinking, and one of the fundamental processes of human cognition.² In conceptual metaphors, there are

¹ Glucksberg, S. Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms. - New York: Oxford University press, 2001.

² Gibbs, W. R. "Metaphor in Discourse." Cambridge: Cambridge University Press, 2008.



two domains , target and source domains. Target domains – abstract things and source domains – concrete things. With the help of source domain, we can understand target domains.

Culture plays an important role in metaphors because in order to understand metaphorical expressions, people have to have a cultural background since cultures differ from each other. Many linguists and anthropologists have made the compelling case over the last ten years that the consistent use of metaphor in language expressions reflects not only the functioning of distinct mental processes but also the workings of various cultural models. The purpose of cultural models, which are intersubjectively shared cultural schemas, is to interpret experience and direct behavior in a wide range of contexts, such as institutions, events, and both tangible and intangible items. Using an early and still relevant model, the cultural model for “anger” developed by Lakoff and Kövecses (1987) demonstrates how metaphor shapes not only how members of a language community may conceptualize their varied experiences of anger, but also how metaphor shapes the cultural knowledge that members of that community share to varying degrees.³ Kövecses continues by demonstrating how metaphor drives a wide range of cultural paradigms. Kövecses, for example, contends that a concept of emotion such as “love” is best understood as being composed of several cognitive models that are based on a limited number of archetypal models. The conceptual contents of different cognitive models, particularly the archetypal ones, are organized using metonymies, metaphors, and “related concepts.” For some complicated concepts, such as rage, a cognitive model may be more constrained than a cultural model, which may represent a common cognitive model shared by members of a speaking group. For instance, rather than focusing on the psychology of individual speakers, cognitive linguistics’ emphasis on the conceptual systems that underlie the speech of idealized native speakers may better be understood as expressing something about the supra-individual, or social/cultural, basis for metaphor (Steen 1994).

In the book “ 1984” by George Orwell, there are some metaphors that are culturally marked. ***She was blue with fright herself, all the time covering him up.***

Linguacultural feature: This metaphor illustrates the conventional duties that are frequently attributed to women in English culture, especially the need to be protective and caring. The metaphor draws attention to the societal narrative that values selflessness and the notion that women should put other people’s needs ahead of their own emotional well-being. This is consistent with historical conceptions of femininity, which portray women as caregivers who discreetly face personal hardships in order to protect the people they love. Furthermore, the metaphor may refer to the more general English cultural themes of emotional control and resilience, implying that people frequently conceal their anxieties in order to satisfy social obligations. English poetry and literature have been using the word “blue” to denote

³ Raymond W. Gibbs, Jr. and Gerard J. Steen. Metaphor in Cognitive Linguistics: Amsterdam, 2008. - 300p.
www.innovativepublication.uz



melancholy for ages. The term “blue devils,” which originated in the 18th century and describes a depressed or gloomy state, is one prominent example.⁴

His soul is white.

Linguacultural feature: “His soul is white” denotes innocence, morality, and purity. White has long been seen as a positive color in English culture, representing virtue and cleanliness. This symbolism has historical roots in religious customs, such as the usage of white to symbolize spiritual purity and fresh starts in Christian rites like weddings and baptisms. The emphasis on upholding a spotless reputation is consistent with social standards that place a high value on decency and moral rectitude. The metaphor reinforces the cultural significance of purity in determining an individual’s worth by encapsulating important issues like moral integrity and societal standards surrounding character assessment.⁵

*His entrails were being ground to pulp between the two muscular hips, then **he had broken through.***

Linguacultural feature: As a reflection of the harsh realities of oppression and brutality, the word expresses extreme bodily and emotional agony. The loss of humanity under authoritarian regimes and deeper existential problems are frequently symbolized by references to bodily damage in English culture. In the backdrop of the totalitarian governments of the 20th century, including Nazi Germany and Stalinist Russia, which Orwell criticized in his writings, this imagery conjures historical accounts of torture and dehumanization. The metaphor uses vivid, emotional images to convey Winston’s intense anxiety and distress. In addition to physical suffering, the phrase “being ground to pulp” evokes up feelings of powerlessness and destruction. Winston is shown as a victim of violence in this brutal language, which depicts the dehumanizing impacts of authoritarian regimes. The idea of “breaking through” and physical damage are juxtaposed, suggesting a fight for resistance and a longing for freedom.

Overall, in the literary text “1984”, Orwell used metaphors that expresses the harsh time, people’s living, social problems, totalitarianism, oppression at that time after the World War II.

THE LIST OF USED LITERATURE:

1. Alverson, H. “The Role of Metaphor in Cultural Communication.” Cognitive Linguistics, 2009. - 45p.
2. Alverson, H. "Universal Metaphors in Language and Culture." Cognitive Linguistics, vol. 15, no. 4, 2020, pp. 321-340. <https://doi.org/10.1515/cog-2020-0025>

⁴ SADNESS Synonyms: 105 Similar and Opposite Words | Merriam-Webster Thesaurus

⁵ Double Consciousness (Stanford Encyclopedia of Philosophy)



3. Ashurova, D.U. “Cognitive Aspects of Language and Culture.” International Journal of Linguistics, 2022. - 50p.
4. Ashurova, D.U. “Cultural Aspects of Linguistic Metaphor.” Journal of Linguistics and Culture, vol. 5, no. 2, 2023. - 35p.
5. Ashurova D.U. Galieva M.R. Cognitive Linguistics. Tashkent: VneshInvestProm, 2018. - pp. 8-74
6. Glucksberg.S. Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms. - New York: Oxford University press, 2001.
7. Kövecses, Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. - 45p.
8. Raymond W. Gibbs, Jr. and Gerard J. Steen. Metaphor in Cognitive Linguistics: Amsterdam, 2008. - 300p.
9. Steen, G.J. “Finding Metaphor in Grammar and Usage: A Methodological Analysis of Theory and Research.” Journal of Pragmatics, vol. 36, no. 4, 2004, pp. 617-627.
<https://doi.org/10.1016/j.pragma.2003.07.003>.

**TRANSPORT OQIMIDAGI YO'L-TRANSPORT HODISALARINI
KAMAYTIRISHDA V2X (VEHICLE-TO-EVERYTHING)NING ROLI****Xakimov Mavlonbek Solijon o'g'li**

Andijon davlat texnika instituti, PhD doktoranti

e-mail: mavlonbekxakimov2897@gmail.com

Tel.: +998 95 060 28 97

Yusupov Sarvarbek Sodiqovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, PhD., dotsenti

e-mail: sarvarbek.83@mail.ru

Tel.: +998 90 217 54 27

Annotatsiya. Mazkur tezisda avtonom transport vositalarining (AV) yo'l harakati xavfsizligi va transport tizimi samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda Cellular Vehicle-to-Everything (C-V2X) texnologiyasining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt, mashina ko'rish tizimlari va ilg'or sensorlarga asoslangan avtonom transport vositalarining umumiy transport tizimiga integratsiyalashuvi transport oqimini optimallashtirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish va yo'l-transport hodisalarini oldini olish imkonini beradi. Xitoy tajribasi asosida C-V2X texnologiyasining real transport tizimlariga keng joriy etilishi yo'l-transport hodisalarining 80 % gacha qismini kamaytirishi mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Avtonom transport vositalari (AV), Cellular Vehicle-to-Everything (C-V2X); V2V, V2I, V2P aloqalari, Sun'iy intellekt, DSRC, LoRa, SPAT (Signal Phase and Timing).


KIRISH. Avtonom transport – bu yo'l harakati xavfsizligini oshirish va yo'l-transport hodisalarini kamaytirishda katta salohiyatga ega innovatsion texnologiyadir. Sun'iy intellekt, mashina ko'rish tizimlari va turli xil sensorlardan foydalanishni o'z ichiga olgan bunday transport vositalarining umumiy transport tizimiga integratsiyalashuvi yo'l harakati oqimini boshqarishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ushbu texnologiyalarning qo'llanishi inson omili ta'sirini ya'ni avtohalokatlarning asosiy sabablaridan birini kamaytirib, yo'l xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi [1].

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yo'llarda avtonom transport vositalari (AV) ulushi oshishi bilan yo'l-transport ziddiyatlari keskin kamayadi. Masalan, ulanish imkoniyatiga ega va avtonom transport vositalarining (CAV) 18,9 % dan 94,1 % gacha bo'lgan kirib kelish darajasi yo'l ziddiyatlari sonining bosqichma-bosqich kamayishiga olib kelgan [2]. Bundan tashqari, AVlarning transport oqimiga qo'shilishi transport kechikishlarini 26 % dan 74,2 % gacha qisqartiradi, bu ularning umumiy transport tarmog'idagi ulushiga bog'liqdir [3].

Cellular Vehicle-to-Everything (C-V2X) texnologiyasining yo'l xavfsizligi va transport

“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”

samaradorligini oshirishdagi roli bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Masalan, kanal holati ma'lumotlarining nomukammalligi sharoitida C-V2X barqarorligini tahlil qilish uchun keng tan olingan nazariy-metodologik asos ko'rsatadiki, adaptiv quvvat boshqaruvi va xavf ko'rsatkichlari kabi parametrlar dinamik muhitlarda aloqa ishonchligini optimallashtirib, xavfsiz va samarali transport tizimiga hissa qo'shadi [4]. Shuningdek, 5G C-V2X tarmoqlariga moslashtirilgan ilg'or ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirdi va protsessor yukini kamaytirdi, bu esa kooperativ intellektual transport tizimlarining real vaqt talablarini qondirmoqda [5].



1-rasm. Ulangan transport vositasi uchun ergashib harakatlanish modelining konfiguratsiyasi.

C-V2X texnologiyasining LoRa va DSRC kabi boshqa aloqa standartlari bilan integratsiyasi har bir texnologiya ustunliklaridan — masalan, masshtablanish qobiliyati va to‘siqlardan qochish imkoniyatlaridan — foydalanadigan gibrid tizimlarda istiqbolli natijalarni ko‘rsatdi. Bunday yondashuv shahar chorrahalarida xavfsizlik va samaradorlikni maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi [6]. Ushbu moslashuvchanlik ssenariyga bog‘liq parametrlarni optimallashtirish orqali yanada qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa zich transport sharoitlarini modellashtirish uchun Simulation of Urban MObility (SUMO) [7] va OMNET++ [8] vositalaridan foydalanilgan tadqiqotda ko‘rsatib o‘tilgan. Natijada, C-V2X kechikish va masshtablanish (kengayuvchanlik) qobiliyati bilan bog‘liq muammolarni samarali tarzda hal etgani aniqlangan [9]. Butun dunyo bo‘yicha C-V2Xning keng qo‘llanilishi avtonom haydash va oldindan YTH oldini olish tizimlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida qayd etilmoqda, bu esa real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvini ta’minlab, transport oqimini yaxshilashga yordam bermoqda [8]. Shu bilan birga, C-V2X tarmoqlarida axborot xavfsizligi muhim masala bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar ma’lumot yaxlitligini va foydalanuvchi maxfiyligini himoya qiluvchi ishonchli protokollarga ehtiyoj borligini ta’kidlamoqda [10]. C-V2X infratuzilmasida optimal aktivlashtirish zonalari kabi innovatsion xizmatlar aloqa samaradorligi va kengayuvchanligini oshirib, zich transport muhitida samarali qo‘llanilishi



uchun yo‘l ochmoqda [11]. Amaliy misollardan biri – SPAT (Signal Phase and Timing) ilovalari bo‘lib, ular svetofor ma‘lumotlaridan foydalanib AVlar uchun yo‘lni rejalashtirish va xavfsizlikni oshirish imkonini beradi [12].

C-V2X zaif yo‘l foydalanuvchilarini (VRU) himoya qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, smartfon orqali ishlovchi to‘qnashuv ogohlantirish tizimlari piyodalar va haydovchilarni yuqori aniqlik va past kechikish bilan ogohlantiradi [13]. C-V2X Mode 4 resurslarini taqsimlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar zich shahar hududlaridagi aloqa samaradorligini yaxshilab, xabar ishonchliligini oshirgan va to‘qnashuv ehtimolini kamaytirgan [14]. Shu jihatdan, V2P (vehicle-to-pedestrian) aloqalarida ham kechikishni qisqartirish muhimdir. Multi-access Edge Computing (MEC) serverlaridan foydalanish natijasida shahar kesishmalarida xavfsizlik yanada yaxshilangan [15,16].

Masshtablash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar C-V2Xning zich transport oqimlariga moslasha olish qobiliyatini tasdiqladi. Yuqori tirbandlik sharoitida optimallashtirilgan resurs boshqaruvi murakkab muhitlarda ham samarali aloqa ta‘minlab berdi [17]. Shuningdek, ilg‘or tarmoq konfiguratsiyalari va gibrid yondashuvlar C-V2Xning moslashuvchanligini, kengayuvchan, xavfsiz va ishonchli ITS ilovalari uchun asosiy texnologiya ekanini namoyon etdi [18,19].

Avtonom transport vositalari harakatini simulyatsiya qilish transport tizimi xavfsizligi va samaradorligiga ta‘sirini tahlil qilish va prognoz qilish uchun muhim vositadir. Bunday tajribalar turli transport ssenariylarini, jumladan, an‘anaviy transport vositalari va AVlardan iborat aralash oqimlarni hisobga olish imkonini beradi. Shu orqali potentsial xavf-xatarlar aniqlanib, ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish mumkin. Masalan, molekulyar dinamika modellaridan foydalanish avtomobillarning “ketma-ket ergashish” xavfsizlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilab, barqaror va xavfsiz harakatlanishni ta‘minlagan [20].

Yo‘l xavfsizligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan yana biri – o‘yin nazariyasi asosidagi algoritmlar bo‘lib, ular bo‘lak almashtirish jarayonlarini optimallashtirib, to‘qnashuv ehtimolini kamaytiradi [21].

Shuningdek, ulanadigan transport vositalaridan olingan ma‘lumotlar haydovchilar va boshqa yo‘l foydalanuvchilari o‘rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvini ta‘minlab, yo‘l xavfsizligini yanada oshiradi [22]. Masalan, Xitoyda hozirda C-V2X texnologiyasi bo‘yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tizim 4G va 5G kabi uyali texnologiyalar evolyutsiyasiga asoslangan bo‘lib, transport vositalari, yo‘l infratuzilmasi, bazaviy stansiyalar va bulut platformalari o‘rtasida samarali axborot almashish imkonini beradi [23]. Mutaxassislarning fikricha, ushbu texnologiya transport tizimi elementlari o‘rtasida yanada aniq va o‘z vaqtida ma‘lumot almashinuvi orqali mavjud yo‘l-transport hodisalarining 80 % gacha qismini bartaraf etishi mumkinligi aniqlangan [24].



XULOSA. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, avtonom transport vositalari va C-V2X texnologiyasining integratsiyasi transport tizimining xavfsizlik va samaradorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Ulanadigan transport vositalari ulushi ortishi bilan yo'l-transport hodisalari va ziddiyatlari keskin kamayishi, transport kechikishlarining esa 74 % gacha qisqarishi aniqlangan. Xitoy va boshqa mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, C-V2X texnologiyasining keng ko'lamli joriy etilishi transport hodisalarini 80 % gacha kamaytirish imkonini beradi. Shu bois, C-V2X texnologiyasi avtonom transport vositalarining samarali ishlashini ta'minlash, yo'l harakati xavfsizligini oshirish va transport oqimini barqaror boshqarish uchun strategik muhim texnologiya sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Talebpour, A.; Mahmassani, H.; Bustamante, F. Modeling Driver Behavior in a Connected Environment: Integrated Microscopic Simulation of Traffic and Mobile Wireless Telecommunication Systems. *Transp. Res. Rec. J. Transp. Res. Board* **2016**, 2560, 75–86. [[Google Scholar](#)]
2. Mitra, P.; Choudhury, A.; Aparow, V.R.; Kulandaivelu, G.; Dauwels, J. Towards Modeling of Perception Errors in Autonomous Vehicles. In Proceedings of the 2018 21st International Conference on Intelligent Transportation Systems (ITSC), Maui, HI, USA, 4–7 November 2018. [[Google Scholar](#)]
3. Wang, S.; Li, Z. Exploring the mechanism of crashes with automated vehicles using statistical modeling approaches. *PLoS ONE* **2019**, 14, e0214550. [[Google Scholar](#)]
4. Shui, T.; Saad, W.; Chen, M. A Resilience Perspective on C-V2X Communication Networks under Imperfect CSI. *arXiv* **2024**, arXiv:2411.10925. [[Google Scholar](#)]
5. Liu, B.; Chen, W.; Sheng, Z.; Barakat, A.; Guan, Y.L. Highly Concurrent Data Processing Design for 5G C-V2X Intelligent Transportation Systems (ITS). In Proceedings of the 2024 IEEE/CIC International Conference on Communications in China (ICCC), Hangzhou, China, 7–9 August 2024; pp. 1245–1250. [[Google Scholar](#)]
6. Zadobrischi, E.; Havriliuc, Ş. Enhancing Scalability of C-V2X and DSRC Vehicular Communication Protocols with LoRa 2.4 GHz in the Scenario of Urban Traffic Systems. *Electronics* **2024**, 13, 2845. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
7. Ulrich, H.D. The SUMO system: An overview. *Methods Mol. Biol.* **2009**, 497, 3–16. [[Google Scholar](#)] [[PubMed](#)]
8. Chamberlain, T. *Learning OMNeT++*; Packt Publishing: Birmingham, UK, 2013; p. 102. [[Google Scholar](#)]
9. Abdullah, N.F.; Shen, T.E.; Abu Samah, A.; Nordin, R. Internet of Vehicles Based on Cellular-Vehicle-To-Everything (C-V2X). *Int. J. Integr. Eng.* **2023**, 15, 244–252. [[Google Scholar](#)]



10. Ziwen, L. Review of C-V2X Research on Intelligent Connected Vehicles. *Comput. Sci. Technol.* **2023**, 2, 30. [[Google Scholar](#)]
11. Chen, S.; Hu, J.; Zhao, L.; Zhao, R.; Fang, J.; Shi, Y. C-V2X Security Technology. In *Cellular Vehicle-to-Everything (C-V2X); Wireless Networks*; Springer: Singapore, 2023. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
12. Zaman, M.; Saifuddin, M.; Razzaghpour, M.; Fallah, Y.P. Performance Analysis of V2I Zone Activation and Scalability for C-V2X Transactional Services. In Proceedings of the 2022 IEEE 96th Vehicular Technology Conference (VTC2022-Fall), London, UK, 26–29 September 2022; pp. 1–5. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
13. Miao, L.; Chien, S.-C.; Chang, F.-C.; Hua, K.-L. C-V2X Solution for SPAT Application and Maintenance. In Proceedings of the 2022 IEEE International Conference on Consumer Electronics—Taiwan, Taipei, Taiwan, 6–8 July 2022; pp. 405–406. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
14. Zhang, C.; Wei, J.; Qu, S.; Huang, C.; Dai, J.; Fu, P.; Wang, Z.; Li, X. Implementation of a V2P-Based VRU Warning System with C-V2X Technology. *IEEE Access* **2023**, 11, 69903–69915. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
15. Ali, M.; Hwang, H.; Kim, Y.-T. Performance Enhancement of C-V2X Mode 4 with Balanced Resource Allocation. In Proceedings of the ICC 2022—IEEE International Conference on Communications, Seoul, Republic of Korea, 16–20 May 2022; pp. 2750–2755. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]

**TRANSPORT OQIMIDAGI O'RTACHA TEZLIK KO'RSATKICHINI
OSHIRISHDA V2I'NING ROLI****Nazirov Nodirbek Jamoliddin o'g'li**

Andijon davlat texnika instituti

“Transport logistikasi” kafedrası PhD doktoranti

E-mail: nazirovnodirbek668@gmail.com

Tel.: +998 88 234 54 51

Yusupov Sarvarbek Sodiqovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrası t.f.f.d., dots.

E-mail: sarvarbek.83@mail.ru,

Tel.: +998 90 217 54 27.

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi transport oqimidagi o'rtacha tezlik ko'rsatkichini oshirishda Vehicle-to-Infrastructure (V2I) texnologiyalarining o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shahar transportida kuzatilayotgan tirbandliklar, ortiqcha vaqt sarfi, yoqilg'i iste'moli va ekologik muammolar V2I yechimlari yordamida kamaytirilishi mumkinligi asoslab berilgan. Tadqiqotlarda V2I orqali transport vositalari va yo'l infratuzilmasi o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvi yo'l harakatini muvofiqlashtirishi, svetoforlar boshqaruvini optimallashtirishi va haydovchilar tezlik rejimini xavfsiz darajada ushlab turishiga xizmat qilishi qayd etiladi. Natijada o'rtacha tezlikni barqaror oshirish, transport oqimining samaradorligini ta'minlash hamda yo'l harakati xavfsizligini kuchaytirish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: V2I, transport qobiliyati, o'rtacha tezlik, tirbandlik, aqlli svetafor, ITT.

KIRISH. So'nggi dunyo bo'ylab avtomobil transportining keskin ortishi shaharlar transportini murakkablashtirmoqda. Transport bo'yicha sonining tezlikni tirbandlik ko'rinishiga, o'rtachaning sarfiga, ishlab chiqarishning sarfi va atmosferaga chiqadigan zaharlanishning ortishiga sabab bo'lmoqda. Joriy yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan. Aholining yana bir e'tirozi – yo'llardagi kameralar dislokatsiyasi. Ular faqat qoidabuzarlikni qayd etib, jarima yozish uchun ishlayapti. Bu kameralar aslida transport oqimini boshqarish, tirbandlik va avariyaning kamaytirishiga xizmat qilishi kerakligi ta'kidlandi. Chorraha, chiziq va yo'l belgilarini to'g'rilash, svetoforlarni “aqlli” boshqaruvga o'tkazish bo'yicha ishlar sustligi tanqid qilindi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, yirik shaharlarda tirbandlik tufayli iqtisodiy zarar yalpi ichki mahsulotning 2–4 % gacha tashkil etadi. Shu sababli, transport vositalarini samarali



boshqarish aqlli transport tizimlari (Intelligent Transportation Systems — ITS) keng joriy etilmoqda. ITSning muhim qismlaridan biri bo‘lgan V2I (Vecle-to-Infrastructure) transport transport va yo‘l infratumasi (svetaforlar, yo‘l bo‘yidagi jihozlari, RSU – Road Side Units, dinamik axborot panellari) o‘rtasida real vaqt rejimida axborot almashishl qiladi.

V2I texnologiyaning joriy etish orqali transportlanadining tezligini ta'minlash, o‘rtacha tezlikni oshirish. kun uchun haydovchilar va yo‘lovchilar vaqt teshadi, energiya sarfi va resurslari, eng muhimi esa — transport vositalari yo‘l harakati yo pasayadi.

Shu nuqtai nazardan, harakat oqimi tezligi transport tizimi samaradorligini baholashdagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Harakat oqimi tezligi — yo‘l bo‘laklari bo‘yicha turli transport vositalarining alohida va umumiy tezlik o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, odatda m/s yoki km/soat birligida o‘lchanadi.

Maqsad va vazifalariga qarab tezlik (hisobiy, oniy, aloqa, konstruktiv, texnik tezlik) quyidagi turlarga bo‘linadi:

Hisobiy tezlik - yakka avtomobillarning (xavfsizlik va ustuvorlik sharti bo‘yicha) ob-havoning muqim sharoitida, avtomobil shinasining yo‘l qatnov qismi yuzasi bilan me‘yoriy tishlashish holatida, yo‘lning eng noqulay ruxsat etilgan elementlariga ega bo‘laklarida mumkin bo‘lgan eng katta tezlikdagi harakatiga aytiladi. Bu tezlik bo‘yicha yo‘lning rejadagi, bo‘ylama va ko‘ndalang kesimdagi barcha geometrik elementlari loyihalanadi. Hisobiy tezlik avtomobil yo‘llarining darajasiga qarab SHNQ 2.05.02-07 ko‘rsatmalariga asosan 1-jadvaldagi qiymatlar bo‘yicha belgilanadi.

1-jadval

Avtomobil yo‘llari toifalariga qarab hisobiy tezliklar (km/soat)

Avtomobil yo‘lining darajasi		Ia	Ib	II	III	IV	V
Hisobiy tezlik, km/soat	Asosiy	150	120	120	100	80	60
	Past-baland	120	100	100	80	60	40
	Tog‘li joylar uchun	80	60	60	50	40	30

Oniy tezlik - aniq kichik masofadagi real yo‘l sharoitidagi haqiqiy tezlik. U yakka avtomobillarning yoki transport oqimining u yoki bu belgilangan qisqa masofadagi (odatda masofa 50, 100, 150, 200 metr belgilanadi) tezligini bildiradi. Bu tezlikdan ma‘lum yo‘l bo‘laklarida harakatni tashkil qilishda keng ko‘lamda foydalaniladi.

Aloqa tezligi - ma‘lum marshrutdagi ushlanib qolishlar (bir sathli chorrahalar, temir yo‘l kesishmalari, qoplamaning notekis bo‘laklari mavjudligidan hamda transport oqimidagi avtomobillarning o‘zaro ta’siri natijasida) hisobiy aniqlanadigan tezlik. Bu tezlik



harakatlanuvchi laboratoriya yordamida bir necha marotaba real marshrut uzunasi bo'yicha harakat tezligini o'lchash orqali topiladi. Aloqa tezligi avtomobil yo'lining transport inshooti sifatida qanday ishlashini belgilovchi asosiy ko'rsatkich sifatida yuritiladi.

Avtomobilning konstruktiv tezligi - ma'lum konstruktiviyali avtomobilning maksimal tezligi, u asosan avtomobilning turiga bog'liq ravishda o'zgaradi, masalan, o'rta va kichik litrajli yengil avtomobillar 200,260 km/soat; kichik litrajli yengil avtomobillar 150,200 km/soat; kichik yuk ko'taruvchi avtomobillar 100,120 km/soat va h.k. ni tashkil etadi.

Texnik tezlik - ma'lum marshrutdagi ushlanib qolishlarni hisobga olmagan ravishda aniqlangan harakat tezligi, uning qiymati asosan avtomobil yo'lining geometrik o'lchamlariga va yo'l sharoitiga, shuningdek, transport oqimining tarkibiga bog'liq.

Transport transportdagi o'rtacha tezlik — bu transport harakatning bir yo'l kesimidan o'tish jarayonida umumiy masofa va sarflangan vaqt nisbatidir. O'rtacha tezlikning yordamga olib keladi:

- tirbandlik kuchayadi,
- transport vositasi pasayadi,
- ishi sarfi va o'rtadi,
- haydovchi charchoqligi oshadi.

Shu bois, transport vositalaridagi o'rtacha tezlikni iqtisodiy iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy yordam ham.

2-jadval.

V2I texnologiyalarining transport oqimiga ta'siri

Holat	O'rtacha tezlik (km/soat)	Yo'l o'tkazuvchanlik (avto/soat)	Yoqilg'i sarfi (l/100km)
V2I qo'llanilmagan	42	1150	8.5
V2I qo'llanilgan	57	1620	6.9

XULOSA. Transport oqimida o'rtacha tezlikni oshirish shahar transport tizimini samarali boshqarishning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. V2I texnologiyalarini joriy etish orqali svetoforlar, yo'l bo'yidagi qurilmalar va transport vositalari o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvi yo'l harakati boshqaruvini optimallashtiradi. Natijada o'rtacha tezlik 30–40 % gacha oshadi, yoqilg'i sarfi kamayadi, tirbandlik va chiqindi gazlar hajmi sezilarli darajada qisqaradi. Shuningdek, haydovchilar va yo'lovchilar uchun vaqt tejaladi va yo'l harakati xavfsizligi ta'minlanadi. Shu bois, V2I texnologiyalarini shahar transport infratuzilmasiga bosqichma-bosqich tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Normuxammadov Asilbek Alimardanovich. SHAHAR SHAROITIDA YO'L HARAKATI TAVSIFLARINING TRANSPORT VOSITALARI HARAKAT TEZLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7 <https://cyberleninka.ru/article/n/shahar-sharoitida-yo-l-harakati-tavsiflarining-transport-vositalari-harakat-tezligiga-ta-sirini-o-rganish>
2. Васильев А.П. Проектирование дорог с учетом влияния климата на условия движения. М.: Транспорт, 1986. – 248 с. 2.
3. Азизов Қ.Х. Йўлларда ҳавфсиз ҳаракатланиш асослари: Олий ўқув юртарининг бакалаврият таълим йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма /С.М.Қодиров таҳрири остида.-Т..”ТАЙИ”,2004-71 б
4. Yusupov S. S. Synergetic Properties of the Interaction of the Vehicle with the Element of Road Infrastructure in Urban Driving Modes //Journal of Siberian Federal University. Engineering & Technologies. – 2022. – Т. 15. – №. 5. – С. 593-608.
5. Yusupov S. SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES: SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES //Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent. – 2022. – Т. 12. – №. 2.
6. Yusupov Sarvarbek Sodiqovich, & Inoyatkhodjaev Jamshud Shukhratullaevich. (2021). Analysis of test results using an automatic start-stop system in vehicle driving modes. Open Journal of Science and Technology, 4(2), 77–84. <https://doi.org/10.31580/ojst.v4i2.1791>.
7. Usmanova M.N., Abdurazakova D.A. The role of non governmental organizations in ensuring road safety.// World Economics & Finance Bulletin (WEFB) Available Online <https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/756/681> March 30th 2022
8. Road Intersection Improvement–Main Step for Emission Reduction and Fuel Economy S Khakimov, S Rajapova, F Amirkulov, E Islomov - IOP Conference Series: Earth and Environmental ..., 2021
9. Dildora Abdurazakova Anvarovna., Utkirov Shokirxoja Shavkat o'g'li Organization of traffic at uncontrolled intersections science and innovation in the education system International scientific-online conference <https://doi.org/10.5281/zenodo.7695531>
10. САРИМСАҚОВ, А. М., & НАЗИРОВ, Н. Ж. Ў. ОРГАНИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШАХРИХАНСКОГО АВТОВОКЗАЛА С ИНФОРМАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ. UNIVERSUM, 52-54.
11. Саримсаков А.М., Хакимов М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМ ПОЖАРОТУШЕНИЯ, СКОРОСТНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ СКОРОЙ ПОМОЩИ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ // Universum: технические науки : электрон. научн.



- журн. 2022. 4(97). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13416> (дата обращения: 19.12.2022)
12. Nazirov, N. (2023). SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDA ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARIDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 5-9.
13. Nazirov Nodirbek. (2023). ANDIJON VILOYATI SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDAGI AVTOBUSLAR VA MIKROAVTOBUSLAR FAOLIYATIDA GPS-NAZORATI MARKAZINI TASHKIL ETISH ORQALI FAOLIYATINI TAKOLADI. TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI , 1 (1), 175-182. <https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/102> dan olindi
14. Nazirov Nodirbek Jamoliddin o'g'li, Omonov Sanjarbek Alijon o'g'li. (2023). Global logistika muammolari va uning rivojlanish istiqbollari: O'zbekiston misoli.

**ELEKTROMOBILLARNING EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA
“WELL-TO-WHEELS” TAHLILINING O'RNI****Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li**

Andijon davlat texnika instituti,

PhD doktoranti.

e-mail: behzodbek9711@mail.ru,**Inoyatxodjaev Jamshid Shuxratullaevich,**

Toshkent arxitektura va qurilishi universiteti, t.f.d., prof.

e-mail: j.inoyatkhodjaev@polito.uz,**Yusupov Sarvarbek Sodiqovich,**

Toshkent kimyo xalqaro universiteti, PhD dotsent.

e-mail: sarvarbek.83@mail.ru,

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektromobillarning ekologik samaradorligini baholashda “Well-to-Wheels” (WTW) tahlilining ahamiyati yoritilgan. Mazkur yondashuv transport vositalarining faqatgina ishlash jarayonida emas, balki energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish bosqichlarida ham atrof-muhitga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi. Tadqiqotda ichki yonuv dvigatelli avtomobillar va elektromobillarni turli energiya manbalari asosida solishtirish natijalari keltirilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Norvegiya, Xitoy, AQSh va O'zbekiston tajribasi misolida WTW tahlilining qo'llanish samaradorligi tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitida qayta tiklanuvchi energiya ulushining oshirilishi elektromobillarning ekologik afzalliklarini yanada kuchaytirishi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Well-to-Wheels tahlili, ekologik samaradorlik, ichki yonuv dvigateli (IYoD), qayta tiklanuvchi energiya, karbonat angidrid (CO_2) chiqindilari, energiya samaradorligi, global iqlim o'zgarishi, energetika tizimi.

Insoniyat tobora ortib borayotgan darajada o'zining atrof-muhitga yetkazayotgan zarardan tashvishlanmoqda va elektr transport vositalari ushbu muvozanatni tiklashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu sababli, elektr transport vositalarining atrof-muhitga ta'sirini har tomonlama chuqur o'rganish zarurdir.

Umuman olganda, elektr transport vositalari sezilarli darajada foyda keltirishi mumkin, chunki ular karbonat angidrid hamda boshqa zararli chiqindilarni kamaytiradi. Biroq hozirgi davrda elektr transport vositalarining nima uchun foydali ekanligi va ushbu foydaning ko'lami borasida jiddiy tushunmovchiliklar mavjud.

Birinchi navbatda, energiya ma'lum bir manbadan olinishi lozimligini unutmaslik kerak - odatda bu elektr stansiyalaridan ta'minlanadi, u o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Shu boisdan transport vositalarining ekologik ta'sirini baholashda “quduqdan g'ildiraggacha” (well-to-



wheels) tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvda faqat avtomobilning o'zidan chiqadigan chiqindilar emas, balki energiyaning manbadan oxirgi iste'molchiga yetib borguncha bo'lgan barcha jarayonlarda yuzaga keladigan ifloslanish darajasi hisobga olinadi. WTW tahlili transport vositalarining energiya samaradorligi va ekologik ta'sirini aniq baholash imkonini beradi. U ikki asosiy bosqichga bo'linadi:

➤ Well-to-Tank (WTT) – energiya manbasini qazib olish, qayta ishlash va transport vositasigacha yetkazib berish bosqichi. Masalan, neft qazib olish, qayta ishlash va benzin shaklida avtomobil bakiga quyish; yoki elektr energiyasini ishlab chiqarib, uni tarmoqlar orqali zaryadlovchi stansiyalarga yetkazish.

➤ Tank-to-Wheels (TTW) – transport vositasida energiyaning to'g'ridan-to'g'ri ishlatilishi. Bu bosqichda ichki yonuv dvigatelli avtomobillarda yoqilg'ining yonishi, elektromobillarda esa batareya energiyasidan foydalanish jarayoni baholanadi.

Natijada, WTW tahlili orqali energiya zanjirining har bir bo'g'ini nazarda tutiladi va ekologik samaradorlikning haqiqiy ko'rinishi aniqlanadi.

Ikkinchi jihat shundan iboratki, ichki yonuv dvigatelli transport vositalari ham qayta tiklanuvchi manbalardan olinadigan yoqilg'i yordamida ishlashi mumkin. Masalan, Braziliya tajribasida shakarqamishdan ishlab chiqarilgan etanoldan foydalanish dasturi bunga yorqin misol bo'la oladi. Shuningdek, ichki yonuv dvigatellari deyarli nol darajadagi chiqindi bilan ishlashga moslashtirilishi mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida vodorod yoqilg'isi keltiriladi, chunki u yoqilganda chiqindilar asosan suv bug'i va havo tarkibidan iborat bo'ladi. Shu bilan birga, bugungi kunda yoqilg'i elementlaridan foydalanish tobora samarali bo'lib bormoqda va batareyalarni zaryad qilish uchun elektr energiyasini qayta tiklanuvchi manbalardan olish imkoniyati ham kengaymoqda.

Uchinchi jihat - elektr transport vositalarining mavjudligi jamiyatni yanada ekologik mas'uliyatli transport turlariga o'tishga rag'batlantirishi mumkin. Masalan, agar elektr velosipedlar samarali ishlasa va keng miqyosda joriy qilinsa, bu ayrim insonlarni o'z shaxsiy avtomobillaridan voz kechishga undashi ehtimoldan xoli emas. Zero, shaxsiy avtomobillar qaysi quvvat manbaidan foydalanishidan qat'i nazar, atrof-muhitga muayyan miqdorda ifloslanish olib keladi.

Transport Vositalarining Ifloslanishi – Asoratlari

Atrof-muhit muammolarini hal qilishdan oldin, hozirgi kunda transport vositalarining asosiy qismi qanday ekologik muammolarga sabab bo'layotganini tahlil qilish lozim. An'anaviy avtomobillar ikki asosiy muammo tug'diradi. Birinchidan, ular bevosita atrof-muhitni shovqin va zararli chiqindilar bilan buzadi. Ikkinchidan, ular tugamaydigan manba bo'lmagan qazilma yoqilg'ilarni yoqib, karbonat angidrid chiqaradi. Bu esa global isish va iqlim o'zgarishining asosiy sabablaridan biridir.

Oddiy inson ham olim yoki muhandis bo'lishi shart emas, motorli transport vositalarining bevosita atrof-muhitni buzishini anglash uchun. Shunchaki gavjum ko'chada yurish yoki yo'l



bo'yidagi kafeda o'tirish kifoya. Avtomobil asrlar davomida hayotimizning ajralmas qismiga aylangan, lekin uni insoniyat “hayot haqiqatidek” qabul qilmoqda. Qishloq joylardan kelgan odamlar katta shahar shovqinidan va havodagi zaharli gazlardan ko'pincha norozilik bildiradi.

Avtomobil chiqindi gazlariga bog'liq sog'liq muammolari alohida tashvishlidir. Masalan, agar dizel dvigatelining chiqindi quvuri devorga yaqin joylashtirilsa, devor tez orada qorayib, tutunga o'xshash qoplamaga aylanadi. Buning o'pkaga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini tushunish uchun tibbiyot olimi bo'lish shart emas. Odam o'sha darajadagi zaharni olish uchun ko'p miqdorda sigaret chekishi kerak bo'ladi, sigaretning sog'liq uchun zarari esa hammaga ma'lum. Shahar ko'chalarida yurgan inson esa istasa-istamasa avtomobil chiqindilarini nafas orqali qabul qiladi.

Avtomobil chiqindilariga bog'liq salomatlik muammolari juda og'ir ko'rinadi va jamiyat nega hanuz ushbu moddalarni chiqarishda davom etayotganini o'ylab qoladi inson.

Ichki yonuv dvigatelli avtomobillardan chiqadigan asosiy zararli moddalar quyidagilardan iborat:

- Karbonat angidrid (CO_2)
- Is gazi (CO)
- Azot oksidlari (NO_x)
- Uchuvchi organik birikmalar (VOC)
- Qattiq zarralar (PM)
- Oltingugurt dioksidi (SO_2)

Is gazi (CO) – qondagi kislorod tashish qobiliyatini kamaytiradi, ayniqsa chekuvchilar va yurak xastaligi bor insonlar uchun xavfli. U asab tizimiga ham qaytarilmas zarar yetkazishi mumkin.

Azot oksidlari (NO_x) – astmani kuchaytiradi, o'pkaga zarar yetkazadi, bolalar va qariyalarda nafas olish kasalliklariga moyillikni oshiradi. NO_x moddasi uchuvchi organik birikmalar (VOC) va quyosh nuri bilan reaksiyaga kirishib, pastki qatlamli ozon hosil qiladi. Bu esa ko'zlarni tirnashlantiradi, o'pkaga zarar qiladi va nafas olishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, NO_x kislotali yomg'ir hosil bo'lishiga olib keladi, uning kislotali ta'siri o'simliklar va baliqlarni nobud qiladi. Masalan, benzol -mashina chiqindilarida uchraydigan zaharli VOC bo'lib, u kanserogen (saraton chaqiruvchi) moddadir.

Qattiq zarralar (PM) – nafas olishda qiyinchilik tug'diradi, yurak-qon tomir kasalliklarini og'irlashtiradi, o'pka to'qimalariga zarar yetkazadi va saraton kasalligini chaqiradi. Juda mayda zarralar (ultra-fine PM) yuqori nafas yo'llaridan o'tib, o'pkaning chuqur qatlamlariga kiradi va hatto qonga aralashadi. PM miqdori $5 \mu\text{g}/\text{m}^3$ dan yuqori bo'lsa, saraton xavfi sezilarli darajada oshadi. Ko'plab PM turlari toksik va kanserogen bo'lishi bilan birga, reproduktiv hamda endokrin tizimlarga ham zarar yetkazadi.



Yangi tadqiqotlarda avtomobil chiqindilaridan 3-nitrobenzantreon (Arlt, 2005) deb nomlanuvchi mutagen modda aniqlangan, u juda kuchli saraton chaqiruvchi hisoblanadi. Bu esa jiddiy xavotir uyg'otadi. Yana shuni unutmaslik kerakki, yangi ilmiy izlanishlar doimiy olib borilmoqda va umumiy manzara bundan ham og'irroq bo'lishi mumkin. Ayni paytda astma, turli allergiyalar va saraton kasalliklarining ko'payishi ham avtomobil chiqindilari bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.


Karbonat angidrid (CO_2)ning Yerga ta'siri ham alohida xavotir uyg'otmoqda. Karbonat angidridning issiqxona effekti hozirda keng tanilgan. Quyoshdan kelgan qisqa to'lqinli nurlanish Yer tomonidan yutiladi va qaytadan uzun to'lqinlarda chiqariladi. Ushbu nurlanish karbonat angidrid va boshqa gazlar tomonidan yutilib, yana qayta chiqariladi va pastga yo'naltiriladi, bu esa Yer yuzasini isitadilar. So'nggi 100 yil ichida atmosferadagi karbonat angidrid miqdori taxminan 25 foizga oshdi.

Yer haroratining ko'tarilishi sovuq iqlimda yashovchilar uchun foydali ko'ringandek bo'lishi mumkin, biroq uning yon ta'sirlari vayronkor bo'lishi ehtimoli juda katta. Birinchidan, oziq-ovqat yetishtirish uchun barqaror iqlim zarur. Masalan, Shimoliy Amerikadagi don yetishtirish hududida iqlim o'zgarishi global oziq-ovqat ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ikkinchidan, iqlim isishi natijasida qutb muzliklari erib, dengiz sathining ko'tarilishi doimiy suv toshqinlariga olib kelishi mumkin. Buni hisobga olsak, London, Nyu-York, Barselona, San-Fransisko, Pert (Avstraliya) kabi ko'plab yirik shaharlar qirg'oq bo'yida joylashgani bois, butun dunyo bo'ylab jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ichki yonuv dvigatelli (IYoD) transport vositalarining sekin harakatlanuvchi tirbandlikdagi asosiy muammosi shundaki, yoqilg'i sarfi keskin oshadi. Avtomobillar past tezlikda “sudralib” ketganda nafaqat yoqilg'i ko'p sarflanadi, balki atrof-muhitga chiqariladigan ifloslanish ham ancha ortadi. Bu holat 1-rasmda ko'rsatilgan.

Shuni ham qayd etish kerakki, grafikda yoritilgan natijalar avtomobilning hech qanday qo'shimcha yuklamalarsiz (yoritish, isitish yoki konditsionersiz) ishlash holatiga asoslangan. Elektr transport vositalarida esa vaziyat biroz boshqacha: past tezlikda ishlaganda elektr motor samaradorligi bir oz kamayadi, ammo bu yoqilg'i dvigatellaridagi kabi keskin bo'lmaydi. Biroq, qo'rg'oshinli akkumulyator kabi batareyalarda samaradorlik yo'qolishi kuzatiladi. Shunga qaramay, elektr avtomobillarda umumiy samaradorlik tezlik diapazonida nisbatan barqaror bo'lib qoladi.

Masalan, London va Tokio kabi shaharlarda o'rtacha tezlik odatda 15 km/soatdan oshmaydi, tig'iz vaqt (rush hour) paytida esa bundan ham past bo'ladi. Shu sababli, IYoD avtomobillar aynan shahar sharoitida eng katta ifloslanishni keltirib chiqaradi.



1-rasm:
turibdiki,

Grafikdan ko‘rinib
benzinli avtomobil

(Gasoline car) past tezliklarda juda ko‘p energiya sarflaydi, tezlik ortgani sari samaradorligi biroz yaxshilansa-da, yuqori tezliklarda yana energiya sarfi oshib ketadi. Elektr avtomobillar (Battery car) esa butun tezlik diapazonida ancha barqaror va samaraliroqdir.

Xalqaro tajriba

- Yevropa Ittifoqi: qayta tiklanuvchi energiya ulushi 35–40% dan ortiq bo‘lgani uchun elektromobillar IYoD avtomobillarga nisbatan CO₂ chiqindisini 50–60% kamaytiradi.
- Norvegiya: elektr energiyasining qariyb 95% gidroenergetikadan olinadi. Shu sababli, elektromobillar deyarli to‘liq “nol chiqindi” transport vositasi sifatida baholanadi.
- Xitoy: elektr ishlab chiqarishda ko‘mir ulushi yuqori (60% dan ortiq), shu bois elektromobillar ekologik samaradorligi 25–30% darajada qolmoqda. Shu bilan birga, davlat siyosati qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirishga qaratilgan.
- AQSh: shtatlar kesimida farq katta. Masalan, Kaliforniyada qayta tiklanuvchi energiya yuqori ulushga ega, elektromobillar ekologik samaradorligi sezilarli; Texas yoki O‘xayoda esa ko‘mir ulushi yuqori bo‘lgani uchun natija sustroq.

O‘zbekiston sharoitida elektromobillarni WTW asosida baholash

O‘zbekiston energiya ishlab chiqarishida tabiiy gaz asosiy manba bo‘lib, bu CO₂ chiqindilarini ko‘mirga nisbatan sezilarli kamaytiradi. Shuning uchun elektromobillar respublika sharoitida ham ekologik afzalliklarni beradi.

Quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish – elektromobillar samaradorligini yanada oshiradi. Agar 2030 yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya ulushi 25–30% ga yetkazilsa, elektromobillar IYoD avtomobillarga nisbatan chiqindilarni 60% gacha kamaytirishi mumkin.

Transport parkini modernizatsiya qilish – eski avtomobillarni elektromobillarga almashtirish yo‘l-transport vositalarining umumiy ekologik ta‘sirini keskin kamaytiradi.

Iqtisodiy samaradorlik – mahalliy elektr energiyasi hisobiga avtomobillarni yuritish yoqilg‘i importiga bog‘liqlikni kamaytiradi.

Xulosa



“Well-to-Wheels” tahlili elektromobillarni ilmiy asosda baholash imkonini beradigan eng ishonchli metodologiyalardan biridir. Bu yondashuv elektromobillarning haqiqiy ekologik samaradorligini aniqlashda:

Faqat avtomobilning ishlashini emas, balki energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish bosqichlarini ham hisobga oladi.

Turli mamlakatlar tajribasini solishtirish va O‘zbekiston sharoitiga mos strategiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish elektromobillarni haqiqiy “yashil transport” vositasiga aylantiradi.

Shunday qilib, elektromobillarning ekologik samaradorligini to‘liq baholash faqat “Well-to-Wheels” yondashuvi asosida amalga oshirilganda ilmiy va amaliy jihatdan to‘laqonli natijalar berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ehsani, M., Gao, Y., Longo, S., & Ebrahimi, K. (2018). *Modern Electric, Hybrid Electric, and Fuel Cell Vehicles*. CRC Press.
2. European Environment Agency (EEA). (2023). *Greenhouse gas emissions from transport in Europe*. Copenhagen.
3. International Energy Agency (IEA). (2022). *Global EV Outlook 2022: Securing supplies for an electric future*. Paris.
4. Bosch GmbH. "Electromobility solutions and battery management systems". – 2020.
5. Samarqand viloyati Ekologiya boshqarmasi. "O‘zbekiston hududlarida issiqxona gazlari chiqarilishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar". – 2023.
6. Mirziyoev Sh.M. "O‘zbekiston – yashil energetika sari". Tashkent, 2023.
7. Murodjon o‘g‘li, E. B., Shuxratullaevich, I. J., & Sodiqovich, Y. S. (2024). ELEKTROMOBILLARNING RIVOJLANISH TARIXI. *ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH*, 2(6), 24-29. <https://innoworld.net/index.php/ojamr/article/view/7>
8. Murodjon o‘g‘li, E. B., & Zakirovich, N. I. (2024). ELEKTROMOBILLAR UCHUN DVIGATEL TANLASH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(34), 176-182.
9. Murodjon o‘g‘li, E. B. (2024). ELEKTROMOBILLARNING ELEKTRON BOSHQARUV TIZIMI. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR*, 1(1), 31-34.
10. Murodjon o‘g‘li, E. B., & Farhod o‘g‘li, I. S. (2023). SHAHAR YO‘LLARINI JIHOZLASHDA ME‘YORIY TALABLARGA MOSLIGINI O‘RGANISH VA TAVSIYALAR ISHLAB CHIQISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 47-50.
11. Esonboyev Behzodbek Murodjon o‘g‘li. (2023). O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT



SEKTORINING ZAMONAVIY XOLATI VA UNING RIVOJLANISH DARAJASI. Scientific *Impulse*, 2(15),904–911. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13047>

12. Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li, Valiyeva Mufazzalxon Kazimjanovna, & Yulbasova Navruzaxon Abduraxmonovna. (2023). Patentlash ma'lumotlarini tayyorlash va patetlashga izlash ishlarini olib borish . *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research* , 1(3), 243-248. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/105>

13. Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li, Abdullayev Zikrillo Hayrullo o'gli, & Zikrillo Abdullayev Hayrullo o'g'li. (2024). LOGISTIKA SOHASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTIDANFOYDALANISH SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 3(3), 86–90. Retrieved from <https://esiconf.com/index.php/TOSROWW/article/view/621>

14. Murodjon o'g'li, E. B., & Sherzodbek o'g'li, T. M. (2023). Texnik ijodkorligini oziga xos xususiyatlari. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 300-302.

15. Murodjon o'g'li, E. B. (2024). INSONIYAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHIDA ILM, FANNING AXAMIYATI TADQIQOTLAR,29(2), 105-108.

**SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING IJTIMOIIY VA MA'NAVIY
HAYOTIDA MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH ORGANLARINING O'RNI**

Ro'ziboyev Nurbek O'ktamovich,

Termiz davlat universiteti "Etnografiya, etnologiya va antropologiya"

ixtisosligi tayanch doktoranti

nurshox97@mail.ru

Kalit so'zlar: «Mahalla — ham ota, ham ona», «mahalla shahar ichidagi shaharcha», «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari», «o'rin-joy», qavm yoki jamoat.

Annotatsiya: Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyliги bilan bog'langan kishilar jamoasi birligi, o'zbek qishloqlarida turli marosim va to'ylarni o'tkazish uchun oqsoqollar muhim rol o'ynagan. Qishloq oqsoqoli obro'li, halol inson bo'lib boshqalarga o'z ta'sirini o'tkazganligi haqida batafsil ma'lumot berilgan

Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta «mahalla» tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab quyildi. Mahalla boshqaruviga bunday katta e'tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchilligidan dalolat beradi. Ayni paytda u yurtimizda amalga oshirilayotgan «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari» degan tamoyilning amaliy ifodasi bo'lib, ma'naviy hayoti izni yanada mustahkamlash, yosh avlodimizning ongu tafakkurini zamonaviy asosda shakllantirish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda

Azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, extiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, etim-yesirlarning boshini silash, tuy-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz «Mahalla — ham ota, ham ona» degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz. Mahalla haqida gapirganda, ko'pchilik ana shunday chuqur ma'noli so'zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy. Ular shu tariqa nainki o'zlarining dardu tashvishlarini hal qiladigan ta'sirchan ijtimoiy fuqarolik idorasi, ayni vaqtda ona yurt ramzi bo'lgan mahallaga o'zining munosabatini izhor etadi.

“Mahalla” atamasi arabcha bo'lib, «o'rin-joy», qavm yoki jamoat ittifoqlikda, o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlab yashaydagan joyni anglatadi. Alisher Navoiy o'zining “Hayratul abror” asarida mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir deb ta'riflaydi. Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyliги bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. Chunki bir joyda uyushib yashash



turli xil xavf-xatardan himoyalashni osonlashtirgan. Shu sababli ovular, qishloqlar va shaharlar paydo bo'lgan. Ayniqsa ishlab chiqarishning o'sishi va mehnatni tashkil etish masalasi kun tartibiga qo'yilishi bilan xalqni bir joyda to'planib yashash istiqbolini yanada rivojlantirdi. Bu hol mamlakatimiz halqlari tarixiga mos bo'lib, xalqimizning turmush tarzi va tafakkurida o'chmas iz qoldirgan. O'zbek qishloqlarida turli marosim va to'ylarni o'tkazish uchun oqsoqollar muhim rol o'ynagan. Qishloq oqsoqoli obro'li, halol inson bo'lib boshqalarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Chorvador xalqlarda ham qishgi va yozgi yaylovlarda muvaqqat ovular bo'lgan hamda ularni oqsoqollar, yurtning obro'li insonlari boshqarganlar. Shaharlarning paydo bo'lishi bilan mahallalar yuzaga kelgan. Uzoq tarixda turli xil kasb egalari alihida – alohida bo'lib birlashganlar. Natijada baqqollar, kosiblar kulollar va h.k. mahallalari paydo bo'lgan. Lekin yaqin o'tmishda barcha kasb egalari aralash-quralash bo'lib ketgandan keyin ma'lum bir hudud mahalla bo'lib shakllanadi. Mahallalar ham davrga qarab o'zgarib boradi, ularning boshqaruv shakli ham yildan – yilga takomillashib, hozirgi ko'rinishga ega bo'ldi. Mahallaning o'ziga xos turmush tarzi bo'lib, kim bo'lishidan qat'iy nazar uning qonun-qoidalariga bo'sunadi, bir-birlariga yordam beradi, to'y – ma'raka, hasharida birga bo'ladi.

Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormokda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o'zini o'zi boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda. Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta «mahalla» tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab quyildi. Mahalla boshqaruviga bunday katta e'tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchilligidan dalolat beradi. Ayni paytda u yurtimizda amalga oshirilayotgan «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari» degan tamoyilning amaliy ifodasi bo'lib, ma'naviy hayoti izni yanada mustahkamlash, yosh avlodimizning ongu tafakkurini zamonaviy asosda shakllantirish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahallaning xalq ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritib, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazib, atroflicha tahlil qilar ekanmiz, hech ikkilanmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida huddi oynadek yaqqol kurish imkoniga ega bo'lamiz. Shu sababli biz ma'naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash, ma'naviy olamimizni yuksaltirishga intilar ekanmiz, bularning barchasi mahalla idorasiga yanada ko'proq imkoniyat berish, uning huquqiy va amaliy vakolatlarini kengaytirish bilan bevosita aloqador ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Mahallaning nufuzini oshirish nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki tarbiyaviy va ulkan ma'naviy masala ekanligi ustuvor vazifa sifatida belgilanib, uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ishonchli tayanchi hamda ta'sirchan kuchi bo'lib xizmat qilishiga zarur



shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli choratadbirlar bosqichma-bosqich ro‘Yobga chiqarildi. Mahalla azaldan milliy qadriyatlar, ezgu amallar maskani bo‘lgan. Mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj insonlar holidan xabar olish, to‘y-tomosha, hasharu ma‘rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat hamda an‘analar mahalla muhitida shakllangan.

Ma‘lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, etim-yesirlarning boshini silash, tuy-tomosha, hashar va ma‘rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an‘analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz «Mahalla — ham ota, ham ona» degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz. Mahalla haqida gapirganda, ko‘pchilik ana shunday chuqur ma‘noli so‘zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy. Ular shu tariqa nainki o‘zlarining dardu tashvishlarini hal qiladigan ta’sirchan ijtimoiy fuqarolik idorasi, ayni vaqtda ona yurt ramzi bo‘lgan mahallaga o‘zining munosabatini izhor etadi. Mustakillik yillarida mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyatlar, udum va an‘analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormokda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o‘zini o‘zi boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko‘lamli faoliyat olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent:O‘zbekiston, 2016.-.
2. Mirziyoyev. Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-26b.
3. Jalilov.Sh. Mahalla yangilanish davrida. T., Mehnat. 1995 y.72 bet.
4. Jalilov.Sh. Mahalla; o‘zini-o‘zi boshqarishishning huquqiy kafolati. T., №-1. 1999.320 bet.
5. Jalilov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari; tajriba, tahlil amaliyoti. T., O‘zbekiston 2001 y. 192 bet.
6. Jalilov .Sh.Fuqarolik jamiyatining poydevori.T., —O‘zbekiston, 2003 y.203 bet.



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 323-guruh kursanti

Ubaydullayev Mahmudullo Saydullo o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining sog'liqni saqlash sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olishdagi faoliyati, uning metodik yondashuvlari, jamoatchilik bilan samarali ishlash usullari va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali faoliyatini takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada profilaktika inspektorining kasbiy malakasini oshirish, aholining huquqiy madaniyatini kuchaytirish va sog'liqni saqlash qonunbuzarliklarini kamaytirishga qaratilgan strategiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, sog'liqni saqlash, huquqbuzarlik, jamoatchilik nazorati, sanitariya-gigiyena, qonunbuzarlikni oldini olish, innovatsion texnologiyalar, huquqiy targ'ibot.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida sog'liqni saqlash sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olishda profilaktika inspektorining roli katta ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat nazorat va monitoring, balki aholiga tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borish bilan ham bog'liqdir. Profilaktika inspektori sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinishini, dorivor va oziq-ovqat mahsulotlarining qonuniy tarqatilishini nazorat qiladi, shuningdek, aholiga sog'liqni saqlash sohasidagi qonunbuzarliklar oqibatlari haqida tushuntirish ishlarini olib boradi. Shu bilan birga, profilaktika inspektori faoliyati nazorat bilan cheklanmaydi, u ta'lim muassasalari, tibbiyot xodimlari va jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi va aholining huquqiy ongini oshirish, sog'liqni saqlash qoidalariga rioya qilishni rag'batlantirishga qaratilgan turli tadbirlarni tashkil etadi [1].

Zamonaviy texnologiyalar profilaktika ishlarining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Elektron monitoring tizimlari, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali profilaktika inspektorlari qonunbuzarliklarni tezkor aniqlash imkoniga ega bo'lib, aholiga profilaktik ma'lumotlarni yetkazadi va targ'ibot ishlarini samarali amalga oshiradi. Shu bilan birga, interaktiv treninglar va onlayn konsultatsiyalar aholining huquqiy madaniyatini oshirishda qo'shimcha imkoniyat yaratadi va sog'liqni saqlash sohasida profilaktika ishlarining natijadorligini oshiradi [2].



Profilaktika inspektorining faoliyati ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi: birinchisi, nazorat va monitoring orqali sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinishini, dorivor va oziq-ovqat vositalarining qonuniy tarqatilishini tekshirish, aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha chora-tadbirlar qo'llashdan iborat; ikkinchisi esa aholiga tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish, jumladan seminarlar, onlayn kurslar va jamoatchilik uchrashuvlarini tashkil etish orqali sog'liqni saqlash sohasida profilaktik ishlarni kuchaytirishdir [3].

Shu bilan birga, profilaktika inspektorining samaradorligi ayrim muammolarga duch keladi, xususan, ish yukining ortishi, jamoatchilik bilan yetarli aloqaning yo'qligi va yoshlar orasida noto'g'ri odatlar kuchayishi faoliyatni cheklaydi. Shu sababli, profilaktika inspektorining ish faoliyatini takomillashtirishda bir nechta yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar qatoriga kasbiy malakani oshirish, sog'liqni saqlash qonunlari va ijtimoiy psixologiya bo'yicha muntazam o'quv kurslarini tashkil etish, aholini profilaktik ishlar jarayoniga jalb qilish, interaktiv seminarlar, konsultatsiyalar va onlayn treninglar orqali huquqiy madaniyatni oshirish kiradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni, jumladan elektron monitoring, mobil ilovalar va onlayn platformalarni keng joriy etish, profilaktika jarayonini tizimlashtirish va jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali faoliyat samaradorligini oshirish mumkin [4].

Shuni ta'kidlash kerakki, profilaktika inspektorining sog'liqni saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish nafaqat qonunbuzarliklarni kamaytirishga, balki fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, sog'liqni saqlash madaniyatini shakllantirish va profilaktika tizimini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda qonun ustuvorligi, xavfsizlik hissining kuchayishi va aholining farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
2. Jo'rayev M. *Ichki ishlar organlari faoliyatida profilaktika tizimini rivojlantirish*. – Toshkent: TDYUU, 2021.
3. Xudoyberdiyev R. *Huquqbuzarliklarning oldini olish nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Adolat, 2020.
4. Abdurahmonov T. *Sog'liqni saqlash sohasida profilaktika inspektorining roli va samaradorligi*. – Toshkent: Fan va Hayot, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi IIV “E-profilaktika” tizimi axboroti, 2022-yil.



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING AHOLINI SOG'LIG'INI SAQLASH SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 323-guruh kursanti

Ubaydullayev Mahmudullo Saydullo o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining aholini sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishdagi o'rni, faoliyati va uni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Maqolada ichki ishlar organlari va boshqa tegishli muassasalar tomonidan sanitariya-gigiyena, ovqat xavfsizligi, dorivor vositalar va boshqa sog'liqni saqlash yo'nalishlaridagi qonunbuzarliklarga qarshi profilaktika choralari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, inspektorlarning jamoatchilik bilan hamkorligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi va mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, sog'liqni saqlash, huquqbuzarlik, sanitariya-gigiyena, xavfsizlik, profilaktika choralari, jamoatchilik bilan hamkorlik, huquqiy ong.

O'zbekiston Respublikasida aholini sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sog'liqni saqlash tizimidagi huquqbuzarliklar, jumladan, sanitariya-gigiyena qoidalarining buzilishi, noto'g'ri oziq-ovqat xavfsizligi, dorivor vositalarning noqonuniy aylanmasi yoki sog'liqni saqlash xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilmaslik, nafaqat fuqarolarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, profilaktika inspektorlarining ushbu sohadagi faoliyati alohida ahamiyatga ega [1].

Profilaktika inspektorlarining vazifalari nafaqat nazorat va tekshiruvlar bilan cheklanib qolmaydi, balki aholiga tushuntirish ishlari olib borish, sog'liqni saqlash bo'yicha qonuniy talablarni targ'ib qilish va huquqbuzarliklarga moyil shaxslarni aniqlashni ham o'z ichiga oladi. 2020–2023-yillarda O'zbekistonning turli hududlarida profilaktika inspektorlari tomonidan sog'liqni saqlash qoidalarini buzgan shaxslar bilan 120 mingdan ortiq tushuntirish suhbatlari o'tkazilib, natijada oziq-ovqat xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalarining buzilishi 9 foizga kamaygani qayd etilgan [2].

Ichki ishlar organlari va profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligi jamoatchilik bilan hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Mahalla fuqarolar yig'inlari, ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash tizimi xodimlari bilan birgalikda olib borilayotgan



profilaktik ishlar aholining sog'lig'ini saqlashga oid qonunbuzarliklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Jizzax viloyatida profilaktika inspektorlari va mahalla posbonlari hamkorligida 2023-yilda 20 mingdan ortiq uy-uy tashriflar amalga oshirilib, uy xo'jaliklarida gigiyena qoidalariga rioya qilish va xavfli oziq-ovqat mahsulotlarini aniqlash bo'yicha faoliyat olib borilgan [3].

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish profilaktika faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. “E-profilaktika” elektron tizimi orqali sog'liqni saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar ro'yxati tuzilib, ularni monitoring qilish va tezkor chora-tadbirlar qo'llash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, mobil ilovalar orqali aholiga sog'liqni saqlash qoidalari bo'yicha tezkor ma'lumot yetkazish, noqonuniy faoliyatni aniqlash va xabar berish tizimi joriy etilmoqda [4].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda profilaktika inspektorlari ortiqcha yuklama ostida ishlamoqda, bu esa ularning faoliyat samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, oilaviy va jamoat joylaridagi sog'liqni saqlash qoidalari buzilishining ko'payishi, dorivor vositalarning noqonuniy aylanmasi va boshqa salbiy omillar profilaktika faoliyatida yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Kelgusida profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lishi lozim:

- inspektorlarning kasbiy malakasini oshirish, jumladan, sog'liqni saqlash qonunlari va psixologik yondashuvlarni chuqur o'rgatish;
- jamoatchilik, mahalla va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- huquqiy targ'ibotni zamonaviy usullarda, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish;
- raqamli monitoring tizimini rivojlantirish orqali xavf guruhidagi shaxslarni aniqlash va nazorat qilish;
- sog'liqni saqlash qoidalari bo'yicha tezkor axborot berish va profilaktik kampaniyalarni tashkil etish [5].

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorining aholini sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish nafaqat qonunbuzarliklarni kamaytirishga, balki fuqarolarning sog'lig'i va jamoat xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda amalga oshirilayotgan tadbirlarni izchil davom ettirish, jamoatchilik bilan hamkorlikni mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasi IIV statistik ma’lumotlari, 2023-yil.
3. Jizzax viloyati IIVning profilaktika faoliyati bo‘yicha hisobot, 2023-yil.
4. Jo‘rayev M. *Ichki ishlar organlari faoliyatida profilaktika tizimini rivojlantirish*. – Toshkent: TDYUU, 2021.
5. Xudoyberdiyev R. *Huquqbuzarliklarning oldini olish nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Adolat, 2020.

**OSIYO-AMERIKA VA OSIYO-YEVROPA DIASPORA ADABIYOTINING
RIVOJLANISH JARAYONI VA UNING JAHON ADABIYOTIGA TA'SIRI**

Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporalari adabiyoti yozuvchilari uch avlod kategoriyasiga ajratilgan holda tadqiq etilgan. Shuningdek, Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diaspora adabiyotining rivojlanishi omillari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: diaspora, adabiyot, diaspora adabiyoti, Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti, Osiyo-Yevropa diaspora adabiyoti.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida Pokistondan Yevropaga kelgan janubiy osiyolik yozuvchilar bugungi kunda ingliz adabiyotidagi Pokiston diasporasining dastlabki vakillari sifatida baholanadi. Ushbu diasporani shartli ravishda *2001-yil 11-sentyabr* voqealarigacha bo'lgan va undan keyingi davr ijodkorlariga ajratish an'ana tusini olgan. Ushbu voqea nafaqat Amerika yoki Yevropadagi Afg'oniston va Pokiston diasporasi adabiyotiga, balki butun dunyo adabiyotiga o'z ta'sirini o'tkazgan va jahon adabiyoti tarixida muhokama qilinishi kerak bo'lgan ko'plab yangi masalalarni kun tartibiga qo'ygan, desak xato bo'lmaydi. Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa adabiyotiga mansub asarlarda o'zligini anglash, ideal makon izlash, milliy mansublik, oilaviy munosabatlar, muhojirlikdagi muammolar, diniy to'sqinlik kabi masalalar keng yoritiladi. Avlodlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, asosan, ota-onalarning inglizcha muloqotidagi kamchiliklar va farzandlarning o'z ona tillarida erkin so'zlasha olmasliklari natijasida kelib chiqadi. Demak, til, madaniyat va qadriyatlarning darz ketishi shaxslararo munosabatlarning oilaviy muammolardan ijtimoiy muammolarga aylanishiga sababchi qilib ko'rsatiladi. “Amerikalik” bo'lishga intilish, o'z millatidan uyalish va diniy qadriyatlarini rad etish natijasida inson tanazzulining badiiy tasviri Osiyo-Amerika adabiyoti namunalarining asosini tashkil qiladi.

Shu o'rinda ikkala diasporaning vakillari ijod qiladigan til borasida ham bir qancha ahamiyatga molik holatlarni ta'kidlab o'tish joiz. Afg'on-Amerika adabiyotiga mansub ijodkorlarning aksariyat qismi ingliz tilida ijod qilsa, Yevropadagi, xususan, Buyuk Britaniyadagi muhojir yozuvchilarning ko'pchiligi o'z asarlarini pushtun, forsiy, dariy tillarida yaratishadi. Bunga sabab sifatida bir qancha omillarni sanab o'tish mumkin, jumladan, diaspora ijodkorlarining hayot yo'li, tarixiy-madaniy qadriyatlari va o'quvchilarining tanlovi qaysi tilda ijod qilishlarini belgilashda ahamiyat kasb etadi. Amerika Qo'shma Shtatlariga ko'chib borib, yangi muhitda ingliz tili ustuvor til ekanligiga ko'nikkan afg'on-amerika yozuvchilari asarlarining yanada kengroq yoyilishini hamda yangi davlatga xos adabiy an'analar bilan uyg'unlik kasb etishni maqsad qilib, ushbu tilda ijod qilishni afzal



ko'radi. Ingliz tilida ijod etish orqali ular nafaqat AQSH, balki boshqa mamlakatlardagi adabiy muhitga kirib borib, kitobxon va adabiyotshunoslarning e'tiborini qozonishga, shu bilan birga, badiiy niyatlarini ro'yobga chiqarishga va nashr ishlari uchun imkoniyatlarga erishishga umid qilishadi. Vaholanki, Buyuk Britaniyaga ko'chib borgan yoki ikkinchi avlod muhojirlari bo'lgan afg'on-britaniya yozuvchilarida ona tiliga va madaniy merosiga nisbatan yaqinlik hissi kuchliroq bo'lib, mamlakatdagi diaspora jamiyatlari orasida afg'on madaniyati va milliy qadriyatlarini saqlab qolish, ularni targ'ib qilish, shuningdek, til va madaniyat jihatidan mushtaraklik kasb etuvchi o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishni o'zlariga maqsad qilib qo'yishadi. Qayd etish joizki, ba'zi afg'on-britaniya yozuvchilari ona tili yoki afg'on madaniyati unsurlarini faol qo'llagan holda ingliz tilida ijod qilishlari va bu orqali o'zlari o'rnatishgan va undan tashqaridagi jamiyatlarda muxlislarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Diaspora adabiyoti haqida gap ketganida tildan tashqari yana bir muhim masala ham mavjudki, bu borada adabiyotshunoslar va ijodkorlar siyosiy va ijtimoiy, qolaversa, ko'p madaniyatlilik va mansublik singari omillar kelishmagan. Diasporaning ba'zi vakillari yoki jamoasi qo'sh madaniy merosga egaliklarini, ham tug'ilgan vatani, ham ko'chib kelgan davlatiga mansubliklarini ta'kidlash maqsadida ikkala millatni yoki davlatni birgalikda chiziqcha orqali ifodalashadi. Holbuki, chiziqchani tushirib qoldirib, diaspora nomini "afg'on amerikalik" yoki "britan afg'on" tarzida qo'llash orqali o'z madaniy ildizlarini alohida e'tirof etgan holda birlik va hamkorlik hissini bildirishni afzal ko'ruvchi ijodkorlar ham bir talay. Ba'zan diasporalar nomidagi chiziqchani ishlatilishi yoki tushib qolishiga siyosiy yoki ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporalari adabiyoti yozuvchilarini tarixiy, ijtimoiy va siyosiy asoslariga ko'ra quyidagi uch avlod kategoriyasiga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq:

1. O'z yurti (Osiyo)da tug'ilib, o'rta yoshlarida vatanni tark etgan yozuvchilar.
2. Bolaligidayoq Osiyodan ketgan muhojir yozuvchilar.
3. Ona yurti (Osiyo)da emas, Amerikada va Yevropada muhojirlar oilasida tug'ilgan yozuvchilar.

Afg'on-amerika diaspora yozuvchilarini yuqoridagi kategoriyalar bo'yicha zamon va makon tamoyillariga asosan ajratishda Afg'oniston tarixi va madaniyati bo'yicha mutaxassis Mir Hekmatulloh Sadatning ilmiy tadqiqotiga tayanilgan bo'lsa-da, u diaspora ichida tug'ilib o'sgan yozuvchilar mansub bo'lgan uchinchi kategoriyani ochiq qoldiradi va buning sabablari sifatida ushbu avlodning afg'on madaniyatidan yiroq tarzda voyaga yetib, tanazzulga uchrashlari, madaniyatlararo va tillararo to'qnashuvni keltiradi. Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diaspora adabiyoti vakillarini nafaqat xronotop, balki ular ijod qiladigan til, shuningdek, asarlarida ilgari suruvchi g'oyalarga binoan ham kategoriyalarga ajratish mumkin, chunki ularning ba'zilari o'z ona tillarida, jumladan, forsiy-pushtun, forsiy-dariy, urdu tillarida ijod qilsa (Akrom Osman, Atiq Rahimiy, Rahnavard Zariyab, Spozmai



Zariyab), aksariyati mahalliy soʻzlashuv tilini oʻzlashtirgan holda inglizchada qalam tebratishadi (Xolid Husayniy, Malala Yusufzoy, Mir Tamim Ansariy, Kazuo Ishiguro va h.k.). Garchi til va madaniyat nuqtai nazaridan toʻsiqlarga uchrasalar-da, Afgʻoniston va Pokiston diasporasi vakillarining ingliz hamda Amerika adabiyotiga qoʻshgan hissalarini eʼtirof etmaslikning iloji yoʻq. Xususan, Britaniyadagi Pokiston diasporasi adabiyotining eng koʻzga koʻringan vakillari – Shahid Alum, Nahid Aslam, Tariq Mehmud singari yozuvchilar, Basir Qasmi va Shamshod Xon kabi shoir va shoirlarning ijodi muayyan darajada diasporaning adabiy ijodkorlik darajasini namoyon etadi. 1990-yillarda Britaniyaga kelgan Basir Qasmi oʻrtahol boʻlsa ham adabiyotga nihoyatda ixlosmand insonlar oilasida dunyoga kelgan, jumladan, otasi Nasir Qasmi gʻazal janrining taniqli ijodkorlaridan boʻlib, ushbu janrning zamonaviy koʻrinishlarini ishlab chiqqan. B. Qasmi Britaniyadagi urdu shoirlari ichida salmoqli oʻrin egallagan va butun mamlakat boʻylab mushoirlarda tez-tez mehmon boʻlib turadi. Basir Britaniyaga boʻlgan hissiyotlarini ifodalagan holda chuqur diasporik mazmunga ega zullisonayn ijod namunalarini yaratib, adabiy janrga yangilik kiritgan. “Ular uchun ishlash” (“Working for Them”) va “Oʻrinni topish” (“Finding One’s Place”) gʻazallarida oʻxshatishlar orqali muhojirlarning yashash sharoitlarini qalamga oladi. Britaniyada ildiz otgan yana bir pokistonlik shoira Shamshod Xon Lids shahrida voyaga yetgan. Uning sheʼriyatida koʻlami Britaniyada istiqomat qilayotgan shahar diasporasining hayot tarzi zamonaviy ingliz jamiyatida irqiy kamsitishlarga uchrayotgan ayol nigohi orqali gavdalaniriladi.

Tadqiqotimizda asarlari koʻrib chiqilayotgan Xolid Husayniyning romanlaridagi muhojirlik ham Amerikaning afgʻon jamiyatida ustunlik qozonishga urinishi ortidan Sovet armiyasining mamlakatga bostirib kirishi sababli yuz bergan edi. Amerikaning ustunligi gʻoyasi Ikkinchi jahon urushiga borib taqaladi, chunki u urushdan iqtisodiy, siyosiy va texnologik jihatdan kuch-qudratga ega davlat sifatida chiqqan edi. Aynan ushbu fakt Amerikaning xalqaro tizimda yetakchi davlat maqomini yanada mustahkamladi va u millionlab muhojirlarning hayotiy tanloviga aylandi. Roman bosh qahramonlarining Amerikadagi afgʻon diasporasi vakillari sifatida koʻrsatilishi va ular orqali diaspora duch kelgan va kelayotgan muammolarning tasvirini taqdim etishi Husayniyning ijodkorona kashfiyotidir.

Sharq va Gʻarb anʼanalari koʻp jihatdan bir-biriga zid boʻlsa ham, diaspora adabiyoti vakillarining ijodida ushbu ikkala madaniyatga xos mushtarakliklar bir talay. Eng ahamiyatlisi, ular oʻz asarlarida ham diniy, ham dunyoviy qadriyatlarga murojaat qilishgan. Amerikada va Britaniyada Afgʻoniston va Pokiston diasporasining shakllanishida bir qator olimlar, jumladan, Mir Hekmatulloh Sadat, Denis Helli, Mark Sheklton tomonidan quyidagi tarixiy voqealar va ular oqibatida kelib chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tangliklar sabab sifatida koʻrsatiladi:



1) *Hindistonning ikkiga bo'linishi* (1947): Britaniya Hindistonining Hindiston va Pokiston nomli ikkita davlatga ajralishi keng miqyosli aholi ko'chishi va millionlab insonlarning boshpanasiz qolishiga sabab bo'lgan. Hindistonning turli burchaklarida yashovchi musulmonlarning ko'pchiligi yangi tashkil etilgan davlat – Pokistonga ko'chib o'tgan bo'lsa, hindlar va sikxlar Hindiston hududiga o'tgan. Ushbu voqea Pokiston diasporaning yaralishiga, shu jumladan, Yevropaga muhojirlar oqimi boshlanishiga yo'l ochgan;

2) *Afg'onistonning sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan ishg'ol etilishi* (1979-1989): Afg'onistonning ko'p ming yillik tarixida ko'plab bosqinlar yuz bergan, kuchli davlatlar uni qo'lga kiritishga, xalqini bo'ysundirishga uringan, ammo uddasidan chiqa olishmagan. Amerikalik yozuvchi Kolin Kuinning ta'biri bilan aytganda, “*Afg'oniston buyuk saltanatlarning qabristonidir*”.

3) *Afg'onistondagi fuqarolar urushi* (1992-1996): Sobiq SSSR o'z qo'shinlarini mamlakatdan olib chiqib ketgach, Afg'onistonda hukumat uchun kurashga tushib ketgan har xil kuchlarning to'qnashuvlari natijasida kelib chiqqan fuqarolar urushi avj olganligi afg'on millatining tinchlik va barqarorlik izlab boshqa davlatlarga ketishida muhim omil bo'lgan;

4) *Tolibonlarning Afg'onistonda hokimiyat tepasiga kelishi* (1996-2001): Tolibonlarning 1990-yillar o'rtalarida hokimiyatni egallab, etnik va diniy jihatdan kamchilikni tashkil etuvchi xalqlar, ayollar va ziyolilarga nisbatan repressiv siyosat olib borishi tufayli ularning Vatanlarini tashlab chiqib ketishdan bo'lak ilojlari qolmagan.

5) *2001-yil 11-sentyabr voqealari va terrorchilikka qarshi kurash*: AQSHda 2001-yil 11-sentyabrda sodir etilgan terroristik hujumlar Afg'onistonning AQSH tomonidan ishg'ol qilinishiga va buning oqibatida Tolibon rejimi qulashiga olib kelgan. Keyinchalik mamlakatda yuzaga kelgan beqaror vaziyat va shafqatsizliklar afg'on migrantlari va qochoqlarining navbatdagi to'loqini keltirib chiqargan;

6) *Pokiston va Afg'onistondagi ichki siyosiy beqarorlik va harbiy mojarolar*: Afg'onistonda bo'lgani singari uning qo'shnisi Pokistonda ham siyosiy mojarolar to'xtovsiz davom etib, Tolibonlar va boshqa ekstremist tashkilotlar o'rtasida hokimiyat uchun ichki kurash ketgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, mazkur diasporaga mansub yozuvchilar tarixiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlariga binoan uch avlod kategoriyasiga ajratilgan holda tadqiq etildi. Ular: Osiyoda tug'ilib, o'rta yoshlarida vatanni tark etgan yozuvchilar, bolaligidanoq Osiyodan ketgan muhojir yozuvchilar, Osiyoda emas, Amerikada va Yevropada muhojirlar oilasida tug'ilgan yozuvchilar. Ayniqsa, Amerikada va Britaniyada Afg'oniston va Pokiston diasporasining rivojlanishi sababi tarixiy voqealar va ular oqibatida kelib chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tangliklar hisoblanadi.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Husayniy X. “Ming quyosh shu'lası”. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 288-bet
2. Husayniy X. “Shamol ortidan yugurib”. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 208-b.
3. Husayniy X. “Tog'lar ham sado berdi”. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 240-b.
4. Ruzmatova D.R. Holid Xusayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi: F.f.f.d. diss. – Toshkent, 2020. – 146 b.
5. Sodiqova T. “Yashash tilsimi”. Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. 19-b.
6. Yousafzai M. “We are displaced”, London, Weidenfeld & Nicolson., 2021. – 5 p.
7. Yusufzoy M. “Men Malalaman”, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 384-b.

o'plab badiiy asarlar yozishgan.



COMPARATIVE ANALYSIS OF VOCABULARY RELATED TO NATIONAL CUSTOMS

Abdurazzoqova Sevara

Student of Termez State University of Economics and Service

Abstract. This article presents a comparative study of lexical units related to the national customs of different peoples. The research examines terms associated with ceremonies, festivals, clothing, food, and cultural practices as key indicators reflecting the intrinsic connection between language and culture. Words related to customs in English, Uzbek, Russian, and Japanese are compared from semantic, cultural, and translational perspectives, highlighting both universal and unique features. The findings reveal that vocabulary connected to national customs not only preserves the historical and cultural memory of nations but also plays an important role in intercultural communication.

Keywords: national customs, vocabulary, cultural linguistics, comparative analysis, intercultural communication

Introduction

Language and culture are deeply intertwined, with each nation's historical memory, customs, and worldview manifested in linguistic units, particularly in vocabulary. National customs represent a system of values transmitted from generation to generation through rituals, festivals, clothing, cuisine, and lifestyle elements. Therefore, studying vocabulary associated with such customs is significant not only for linguistics but also for cultural studies and translation studies.

Words related to national customs are not merely terms; they function as symbolic markers preserving the cultural memory of a people. For example, in Uzbek, Navro'z signifies not only the “New Year” but also symbolizes renewal, fertility, friendship, and the awakening of nature. The English Thanksgiving carries both religious and historical roots, embodying ideas of family unity and gratitude. The Japanese Hanami, though literally referring to viewing flowers in spring, in fact reflects a cultural mentality that values the beauty of nature and social harmony. The Russian Maslenitsa is associated with rituals marking the transition from winter to summer, symbolizing the fusion of Orthodox traditions with ancient Slavic customs. Recent studies in cultural linguistics and ethnolinguistics have emphasized the importance of vocabulary related to customs. However, comparative research addressing the lexicon of different nations remains insufficient. In particular, analyzing together the perspectives of Central Asian, Western, Slavic, and East Asian cultures has both scholarly and practical significance. In this regard, the present study focuses on the comparative analysis of lexical units related to national customs in English, Uzbek, Russian, and Japanese. The relevance of the study lies in the fact that such an analysis: Demonstrates how customs are linguistically



expressed in each culture. Expands opportunities for intercultural communication by identifying similarities and differences.

Provides a theoretical foundation for overcoming challenges in translation. Thus, studying the vocabulary of national customs should be considered an important scholarly task for preserving cultural heritage, explaining it adequately to other nations, and organizing effective intercultural communication in a global context.

Literature Review; The study of language and culture interrelations has long been a pressing issue in linguistics. Anthropological and sociolinguistic approaches, in particular, serve as crucial theoretical bases for examining the vocabulary of national customs E. Sapir interpreted language as a “cultural product,” emphasizing that it embodies a people’s lifestyle, customs, and worldview. For Sapir, language is a social phenomenon reflecting lived experience, with the lexicon of national customs being one of its most evident manifestations. B. Whorf through his linguistic relativity hypothesis, argued that linguistic categories shape human perception of the world. This approach provides a methodological basis for analyzing how terms related to customs reflect collective mentality.

A Wierzbic (1997), ¹in her theory of “cultural key words,” demonstrated that some lexical items lack equivalents in other languages and can only be explained through cultural commentary. For example, translating Navro‘z simply as “New Year” or Hanami as “flower viewing” is insufficient without accounting for their symbolic, historical, and social meanings. In recent years, cultural linguistics has expanded significantly. F. Sharifian (2017) ²stressed the importance of studying language and culture together, developing the concept of “cultural schemas” embedded in linguistic expressions. This framework enables a contextual understanding of vocabulary related to customs in intercultural communication.

In Uzbek linguistics, researchers have also paid attention to this area. Karimov analyzed terms connected with Uzbek national festivals from semantic and ethnolinguistic perspectives, revealing their role in preserving cultural memory and values. Inoyatova examined the integration of language and customs, highlighting the significance of such vocabulary in the education of younger generations. Japanese linguists have widely studied seasonal customs-related vocabulary. For instance, Tanaka explained Hanami and Obon not only as ceremonial words but also as symbolic expressions of the Japanese people’s relationship with nature. Similarly, Russian linguists have studied the lexical layer associated with Orthodox traditions and Slavic rituals, noting that words such as Maslenitsa and Paskha reflect core cultural and religious values. In English, Thanksgiving and Christmas represent national-historical experiences and Anglo-American cultural identity. In summary, the existing literature demonstrates that vocabulary connected with national customs plays a significant role in expressing cultural identity. However, most studies remain limited to a

¹ A Wierzbicka in her theory of “cultural key words,” (1997)

² F. Sharifian stressed the importance of studying language and culture together, developing the concept of “cultural schemas” embedded in linguistic expressions (2017).



single language or cultural context. Thus, comparative research covering Uzbek, Russian, English, and Japanese lexicons is particularly timely.

Relevance, Aim, and Objectives

Relevance; In the era of globalization, effective intercultural communication depends on a deep understanding of the unity of language and culture. Lexical units relating to customs, ceremonies, and festivals reflect historical memory, values, and national distinctiveness. Since many of these words cannot be directly translated and require cultural commentary, studying them comparatively is relevant not only for linguistics but also for cultural studies, translation studies, and education. This topic is significant for enhancing intercultural communication, preserving national values, and presenting them appropriately on the global stage.

Aim; The primary aim of the study is to conduct a comparative analysis of vocabulary related to national customs in English, Uzbek, Russian, and Japanese, to identify their universal and unique features, and to highlight their significance in intercultural communication. Objectives to achieve this aim, the following objectives were set: To describe the meaning of lexical units related to national customs and classify them into semantic fields. To collect and analyze core vocabulary of customs in Uzbek, Russian, English, and Japanese. To compare selected terms in terms of equivalence and identify untranslatable items. To examine the historical, religious, and symbolic connotations of such vocabulary. To determine similarities and differences through comparative analysis and assess their role in intercultural communication. To provide recommendations for translation and educational practices based on the findings.

Methodology This research is based on comparative Linguistics and cultural linguistics approaches. The methodological process included several stages: Data Collection: Sources included dictionaries of Uzbek, Russian, English, and Japanese, ethnographic literature, academic works on national festivals and ceremonies, and folklore materials. Vocabulary items were collected relating directly to customs, such as festival names (Navro'z, Maslenitsa, Hanami, Thanksgiving), ceremonial terms (sumalak, mocha, turkey, bliny), clothing (chapan, sarafan, kimono), as well as greetings and ritual expressions.

Languages and Object of Study:

Uzbek - terms reflecting the traditions of Central Asia.

Russian - terms connected with Orthodox rituals and Slavic customs.

English - vocabulary related to Western, particularly religious and family-oriented festivals.

Japanese - terms reflecting seasonal rituals and traditional culture.

Criteria of Analysis:

Classification into semantic fields: festivals, foods, clothing, greetings.

Equivalence analysis: assessing whether direct translation into other languages is possible.

Cultural connotations: analyzing historical, religious, symbolic, and social



meanings.

Methods: Comparative analysis: comparing lexical units across the four languages to reveal similarities and differences. Semantic analysis: explaining primary and secondary meanings. Translation analysis: identifying untranslatable terms and examining cultural approaches to their explanation. Limitations:

The study is limited to lexical units; phonetic, morphological, or syntactic aspects were not included. The analysis covers four major cultural areas (Central Asia, Slavic, Western, East Asian), excluding others.

Results and Discussion

Common Features In all four languages, vocabulary related to customs can be classified into several semantic fields: Festivals: Navro'z (Uzbek), Maslenitsa (Russian), Thanksgiving (English), Hanami (Japanese). Foods: sumalak, (Uzbek), bliny (Russian), turkey (English), mocha (Japanese) Clothing: chapan (Uzbek), sarafan (Russian), kilt (English, regional), kimono (Japanese). Greetings: Navro'z muborak! (Uzbek), Счастливого Рождества, (Russian), Merry Christmas! (English). Akemashit omedetou, gozaimasu (Japanese). This classification shows that while the function of expressing customs is universal, the lexical realizations are unique to each culture. **Distinctive Features** **Untranslatability:** Terms such as sumalak, Hanami, or Thanksgiving cannot be directly translated; they require explanatory commentary. **Religious Basis:** Russian Paskha is tied to Orthodox Christianity, while English Thanksgiving stems from Protestant traditions. Uzbek Navro'z has Zoroastrian roots but is now celebrated as a secular holiday. **Symbolic Meaning:** The Japanese kimono is not only a garment but also a national symbol; the Uzbek chapan serves as both clothing and a sign of respect. **Role in Intercultural Communication**

Translating vocabulary related to customs often fails to fully convey its meaning. For instance, rendering Navro'z simply as “New Year” does not capture its agricultural, seasonal, and spiritual symbolism. Therefore, cultural commentary is necessary, underscoring the importance of cultural linguistics in intercultural dialogue.

Conclusion

Vocabulary related to national customs constitutes a vital layer of language that reflects a nation's historical memory, values, and culture. A comparative analysis of Uzbek, Russian, English, and Japanese demonstrates that while such vocabulary shares common semantic fields, its cultural connotations remain unique to each people. The findings suggest that translation, language teaching, and intercultural communication require cultural sensitivity when dealing with such terms. Future research should expand to include more languages and traditions, thereby enriching the field of cultural linguistics and contributing to mutual understanding in a globalized world.



References:

1. Karimov, A. Semantic Analysis of Lexical Units Related to Uzbek National Festivals – Tashkent: TSPU Press, 2019.
2. Inoyatova, N. The Harmony of Language and Customs. - Tashkent: Science, 2022.
3. Jo‘rayev, S. Uzbek Folk Rituals and Their Linguistic Expression. - Samarkand: SamSU Press, 2020.
4. Abdug‘afforov, O. Ethnolinguistic Analysis of the Lexicon of Uzbek Folk Festivals. - Bukhara: BSU Press, 2018.
5. Kholmatova, Z. Semantic and Cultural Analysis of Words Related to National Customs. - Tashkent: Science and Technology, 2021.
6. Eshonqulov, R. Ceremonial Expressions in Uzbek Language and Culture. - Termez: TIESU Press, 2020.
7. Oripov, D. Representation of Uzbek National Customs in Language. - Tashkent: NUUz Press, 2017.
8. Abdullayeva, M. Lexical Units of Customs in Uzbek Oral Literature. - Karshi: KSU Press, 2019.
9. Rasulova N. Language and Culture: The Role of Uzbek Ritual Vocabulary. - Tashkent: Innovative Education, 2021.
10. Bozorov B. National Values and the Unity of Language. - Namangan: Nam SU Press, 2022



HARAKATLI O'YINLARNING TURLARI VA ULARNING QO'LLANILISHI.

Uteuliyev Muxtor Uteuliyevich

Kegeyli tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali jismoniy tarbiya o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada harakatli o'yinlarning ijtimoiy, mehnat va kundalik madaniyatimizdagi salohiyati, shuningdek, yosh avlodning tarbiyasi va mehnatdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kurash, tennis, boks, badiiy gimnastika, sinxron suzish, “Yelkada kurash,” “Piyoda ko'pkari,” “Xo'rozlar jangi,” “Qazon”

Kirish; Harakatli o'yinlar va ularning turlari hududlardagi davlat va millatlarning geografik o'rni, tabiati, milliy xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun o'yinlarning milliy xususiyatlari yil fasllari, ijtimoiy hayot sharoitlari va jangovar harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu yo'lda o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari ham o'z salohiyati va ijtimoiy-tarbiyaviy mohiyatiga ega.

E'tirof etish kerakki, jahon xalqlari harakatli o'yinlarini davlat tiliga tarjima qilish, ulardan jismoniy tarbiya darslarida, turli madaniy-ommaviy tadbirlarda foydalanish yo'llarini ishlab chiqishda H.Tojiboyev (1963 y.), T.S.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayev (1963, 1970, 1991, 2001, 2003 y.) larning ijodiy mehnatlari, pedagogik mahoratlari tahsinga sazovordir. Shuningdek, milliy harakatli o'yinlarni to'plash, yozib olish, nashr etish, o'yinlarning ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarini tahlil qilish va ommalashtirishga A.Q.Atovoyev, J.M.Toshpo'latov, X.A.Meliyev, O.O.Po'latov, R.Abdumalikov kabi mutaxassis olimlar katta hissa qo'shganlar. Ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanishdan kelib chiqib, ularning yo'nalishlari, turlari va mohiyati “Harakatli o'yinlar,” “1001 o'yin,” “Milliy harakatli o'yinlar” nomli o'quv qo'llanmalarda batafsil yoritib berilgan. Ulardan ta'lim muassasalaridagi “Jismoniy tarbiya” darslarida, bolalar bog'chalaridagi tarbiyaviy tadbirlarda maqsadli foydalaniladi.

Insoniyat dunyosi ma'naviy va jismoniy madaniyatning yetarli boyligiga ega. O'zbek xalqi ham bundan mustasno emas.

Eng qadimgi ajdodlarimiz, avlodlarimizdan to hozirgi mustaqillik davrigacha davom etib kelayotgan rang-barang milliy an'analarimiz, zamonaviy bayramlarimiz, madaniyatimiz jahon xalqlari orasida alohida o'rin tutadi.

Harakatli o'yinlar ijtimoiy-mehnat va maishiy madaniyatimiz salohiyati, yosh avlodning mehnati, tarbiyasi, ijodi va bunyodkorlik faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Mustaqillik sharofati bilan iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, sport va boshqa ko'plab sohalarda amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy natijalari ko'zga tashlandi. Ular bozor iqtisodiyoti, umumiy ta'limning davlat standartlari, ta'limning uzluksizligi, sog'lom avlod



dasturi, ko'p bosqichli sport musobaqalari kabi ustuvor qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlarida o'z ifodasini topmoqda.

Navro'z, Mustaqillik, Hosil bayramlari, milliy xalq o'yinlari, “Beshta tashabbus” Respublika musobaqalari (“Alpomish,” “To'maris”) kabi ko'p bosqichli sport musobaqalari an'anaviy tadbirlarga aylandi. “Quvnoq startlar” televizion o'yinlari maktab o'quvchilari uchun eng qiziqarli va mazmunli harakatli o'yinlar hisoblanadi. Kurash, tennis, boks, badiiy gimnastika, sinxron suzish kabi sport turlari bo'yicha xalqaro turnirlar o'tkazilayotgani O'zbekiston sport salohiyatini yuksaltirmoqda.

Mehnat jamoalari, ijodiy muassasalar, mahallalar va qishloq aholisi spartakiadalari ham o'z mazmuniga ega. Keyingi yillarda “Mahallamiz polvonlari,” xotin-qizlar sporti (To'maris o'yinlari), “Sog'lom oila,” “Oilaviy sport” kabi muhim musobaqalar ommalashib bormoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, yuqorida sanab o'tilgan ommaviy sport tadbirlarining deyarli barchasida harakatli o'yinlar u yoki bu darajada qo'llaniladi. Xususan, xalq milliy o'yinlariga bag'ishlangan “Respublika Alpomish o'yinlari festivallari” va “Respublika To'maris o'yinlari festivallari” mazmunining asosiy qismlari milliy harakatli o'yinlar bilan boyitilgan. Ularda “Yelkada kurash,” “Piyoda ko'pkari,” “Xo'rozlar jangi,” “Qazon” “Shuvoq,” “Cho'pon,” “Eshak mindi,” “Quloq cho'zma,” “Arqon tortish,” kabi harakatli o'yinlar o'z maqsadi va mazmuniga ko'ra qiziqarlidir.

Yana bir muhim jihat shundaki, qishloq va qo'rg'onlarda, katta-kichik to'ylarda (xatna, o'g'il uylantirish, qiz uzatish), shuningdek, bayramlarda (gashtaklarda) turli sport o'yinlari va musobaqalar uyushtiriladi. “Chillik”, “Oq suyak”, “Poda top”, otdan ag'darish, yayov poyga, tortishuv, olovdan sakrash va kurash kabi xalq milliy o'yinlariga qiziqish katta.

Buning asosiy sababi shundaki, o'quvchi yoshlar va bolalarda barcha jismoniy fazilatlar va insoniy xislatlar harakatli o'yinlar orqali shakllantiriladi. Xususan, estetik zavq va o'yin-tomoshalar vositasida do'stlik, mehribonlik, o'zaro hamkorlik, rahmdillik va Vatanga sadoqat kabi tuyg'ular tarbiyalanadi.

O'zbekistonning buyuk kelajagi va mustaqilligi bugungi yoshlardan yuksak ma'naviy-ma'rifiy qiyofani, madaniyatni, jismoniy barkamollikni, milliy g'urur va iftixorni talab etadi. Milliy harakatli o'yinlar barcha yoshdagi kishilar va xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish, ularning uzoq umr ko'rishini ta'minlash maqsadida jismoniy tarbiya vositalari tarkibida asosiy o'rinni egallashi lozim. Shu nuqtayi nazardan, ulardan barcha an'anaviy bayramlar va ommaviy-madaniy tadbirlar mazmunida keng va maqsadli foydalanish zarur. O'z navbatida, jismoniy tarbiya, sport, turizm va xalq o'yinlari bo'yicha mutaxassislar, mas'ul xodimlar va jamoatchilik faollari aholi o'rtasida milliy harakatli o'yinlarni qiziqarli tashkil etish orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirishlari zarur. Bu borada ommaviy axborot vositalari, teleradiokompaniyalar xalq milliy o'yinlarini keng yoritish bo'yicha yanada faol ish olib borishlari lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Abdumalikov R.A., Abdullayev A. Xalq milliy o'yinlari mazmunida ma'naviyat masalalari. - Toshkent: 1999.
3. Azizova R.I. “Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi” O'quv qo'llanma.
4. Atoyev A.K., Nosirov M. Jismoniy tarbiya va shaxsni axloqiy tarbiyalash. -T.
5. Aslonova M. Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish (Boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida): Dis.... ped. fan. nom. - Navoiy: NavDPI, 2008.
6. Arjan Egges, Arno Kamphuis, Mark Overmars "Motion in Games" First International Workshop, Utrecht, MIG 2008.

**FRAZEOLOGIZMLAR TAHLILI XUSUSIDA**

Rahmonjonova ,Madinabonu Barat qizi
Nizomiy nomidagi O'ZMPU O'zbek tili va adabiyot fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon tilshunoslikda frazeologik birliklar tahlili va ularning lug'atlarda berilishi muammosi batafsil yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik lug'at, tasnif

Kirish

Frazeologiya tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib ,u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida umumiy ma'lumot berib o'tiladi, ya'ni frazeologiya tilshunoslikning frazemalar bilan shug'ullanuvchi va turg'un iboralar haqidagi bilim demakdir. Iboralar asosan turg'un birikma holidagi atamalarni , parafrazalar va frazeologizmlarni o'z ichiga oladi. Bu birikmalar faqat ma'no ifodalash xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Parafrazalar asosan turg'un birikmalardan iborat bo'ladi.

Frazeologiya (grekcha .phrasis-"ifoda ", logos -"ta'limot") atamasi ma'noda ishlatiladi. Til frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi hamda shu tilning frazeologizmi majmuihamdir. Frazeologiya o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamalari bilan ham yuritiladi. Asosan frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy ham qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Ammo ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Qisqacha qilib aytganda , frazeologizm lisonda barcha barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga xosdir va nutqda xususiylik sifatida ham namoyon bo'la oladi. So'z ham frazeologik birikma ham lug'aviy birlik sanaladi. Qiyosiy ma'noda aytilganda tilning lug'at boyligini tashkil qiladi.

A. Reformatskiy frazeologiya to'g'risida shunday deydi: "Biror adabiy yo'nalishga yoki biror muallifga nisbatan qo'llaniladigan so'zlar va so'z birikmalari frazeologik birikmalar " deb ataladi.

V.M. Mokiyeenkoning fikriga ko'ra esa "Frazeologik birlik deganda turg'un ,qayta ishlangan ekspressiv , yaxlit ma'noga ega bo'lgan leksemalar birikmasi tushuniladi." Frazeologizm tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizmlarga :jig'iga tegmoq, ko'ngli bo'sh, kir izlamoq kabilar misol bo'la oladi. Frazeologizm ,asosan belgi va harakatni ifodalaydi. Demak ,ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub.

Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar :yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, o'pkasini



cho'pga ilmoq, azob chekmoq, ko'ngliga qo'l solmoq kabi.

Sifat turkumiga mansub frazeologizmlar: chehrasi ochiq, vijdoni toza, tumshug'i baland, yuragi toza, dili siyoh.

Frazeologik lug'atlar har bir tilning va uning madaniyatini eng muhim va boy jabhasi hisoblanadi. Frazeologizmlarda esa xalqning buyuk roli tillararo munosabatlar va ularning tarixi, madaniyati aks etadi.

Demak frazeografiya tildagi turg'un birikmalar -frazeologizmlardan lug'at tuzish tamoyillarini, frazeologik lug'at turlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik sohasidir. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi -Frazeologiya o'rganish masalasi 20-40-yillardagi o'quv -metodik adabiyotlarda -Ye.D.Polivanov, S.Abakumov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida bu haqida batafsil aytib o'tilgan.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan jumladan, (Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabilar). Alohida aytib o'tish lozimki Frazeografiya sohasida ingliz olimlari Adam Makkey, R.L.Kolins, Ronald Makin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlaridan bilish mumkin. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazeologiyani asosiy jihati shundan iboratki frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, balki frazeologizmlarning nutqda qo'llanilish qonuniyatlarini aniqlashga yordam ham beradi. Frazeologiyani eng muhim muammasi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Frazeologik birliklarga misollar:

Qo'lini sovuq suvga urmaslik - hech qanday ish qilmaslik.

Ko'z ochib yumguncha - juda qisqa vaqt ichida.

Ko'ngli ochiq - saxiy, bag'ri keng odam.

Frazeologizm tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati yetarlicha o'rganilmagan. Frazeologizm leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtayi nazaridan ham tasnif qilinadi. Shunga ko'ra umumiste'mol frazeologizmlarga (holdan toymoq, ro'yobga chiqmoq) va qo'llanishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir natijalarga ega.

Demak, eskirgan frazeologizm: kallasini ham qilib, yeng silkitmoq, dastin aliflom qilib kabi. Dialektal frazeologizm: alag'da bo'lmoq (xavotir olmoq), halak bo'lmoq (ovora bo'lmoq), juluni uzilmoq (qattiq baqirmoq) ko'ngli tob tashladi (ezildi). Ilmiy frazeologizm



:imkoniyatlar doirasi ,qulay qurshov,to'g'ri kelmoq, ko'zga tashlamoq.Badiiy frazeologizm :six ham kuymasini kabob ham, qildan qiyiq axtarmoq,og'zining tanobi qochmoq.So'zlashuv nutqi frazeologizmi:yer bilan osmoncha,pixini yorgan,arpasini xom o'rmoq,yerga urmoq,yuragi qon,ko'zi tor,boshi ochiq.Frazeologizmning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xosdir.Frazeologik lug'atlarni tuzishda qo'llaniladigan tilga ko'ra :bir tilli,ikki tilli(tarjima),ko'p tilli.Frazeologik lug'atlarning qo'llanish doirasiga ko'ra maktab o'quvchilari uchun ,filologik fakultetlarning talabalari va umuman filologlar uchun ommabopdir. Bugungi kunga kelib tilshunoslikda turli turdagi lug'atlar tuzish bilan birgalikda ko'p tilli frazeologik lug'at tuzish vaqti keldi va shu sababli ham bu ishlarni bajarish uchun olimlarimiz tomonidan lug'atshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini ham o'rganilishi lozimdir .

ADABIYOTLAR

- 1.Mahmudov N.Jo'rayev H.Yusupova D.Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent:O'qituvchi ,2006
- 2.Rasulov G'.O'zbek tilining frazeologik lug'ati.-Toshkent :Fan ,1984.
- 3.Tursunov U.O'zbek tilida frazeologizmlarning o'rni va ularning semantik-strukturaviy xususiyatlari.-Toshkent:Fan 1972.
- 4.Begmatov .E.O'zbek tilida frazeologik birliklarning poetik funksiyasi.-Toshkent:Fan .1990.
- 5.Salkho'jayeva D.O'zbek tilshunosligida frazeologizm va ularning tasnifi .Filologiya masalalari ,2017,N01.
- 6.Hozirgi o'zbek adabiy tili.T.R.R .Sayfullayeva ,B.R.Mengliyev.
- 7.Kun o'zbek tilining izohli lug'ati -Toshkent :O'zME,2008.

**ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASRI: IJTIMOIIY TARMOQLARNING
PSIXIKAGA TA'SIRI VA VIRTUAL QARAMLIKNING OLDINI OLISH****Nazarova Ominaxon Nazirali qizi****(asosiy muallif)****Abduxapizov Samandarbek Abdulkosim o'g'li****Namangan Davlat Universiteti****Fizika-matematika fakulteti****Amaliy matematika yo'nalishi (2-bosqich talabasi)**nazarovaominaxon17@gmail.comsamandarleytenant2@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan kuchaygan ijtimoiy tarmoqlarning inson psixikasiga ta'siri va virtual qaramlik muammolarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Asosiy e'tibor ijtimoiy taqqoslash nazariyasi (Festinger, 1954), dopamin bog'liqligi (Alter, 2017), kiberzorilikning psixologik oqibatlari (Hinduja & Patchin, 2018) va diqqat buzilishi (Ophir et al., 2009) kabi jihatlariga qaratilgan. Maqolada virtual qaramlikni bartaraf etish uchun “digital detox”, vaqtni boshqarish texnikalari (Mark et al., 2018) va kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (Young, 2015) kabi amaliy usullar taklif etiladi. Tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ushbu material psixologlar, pedagoglar va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanuvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, psixik salomatlik, virtual qaramlik, FOMO, digital detox, kiberzorilik.

**Title: The Era of Modern Technologies: The Impact of Social Networks on Mental
Health and Prevention of Virtual Addiction**

Nazarova Aminaxon Nazirali qizi *(main author)**Abdukhapizov Samandarbek Abdulkosim oglu****Namangan State University****Faculty of Physics and Mathematics****Applied Mathematics (2nd year student)**nazarovaominaxon17@gmail.comsamandarleytenant2@gmail.com

Annotation : This article scientifically analyzes the impact of social networks, which have intensified with the development of modern technologies, on human mental health and the problems of virtual addiction. The main focus is given to aspects such as the Social Comparison Theory (Festinger, 1954), dopamine dependency (Alter, 2017), psychological



consequences of cyberbullying (Hinduja & Patchin, 2018), and attention disorder (Ophir et al., 2009). The article suggests practical methods to overcome virtual addiction, including digital detox, time management techniques (Mark et al., 2018), and cognitive-behavioral therapy (Young, 2015). This research-based material is practically useful for psychologists, educators, and active social media users.

Keywords: social networks, mental health, virtual addiction, FOMO, digital detox, cyberbullying.

Название: Эпоха современных технологий: Влияние социальных сетей на психику и профилактика виртуальной зависимости

Назарова Аминахон Назирали кызы *(основной автор)

Абдухапизов Самандарбек Абдулкосим оглы

Наманганский государственный университет

Физико-математический факультет

Прикладная математика (студент 2-го курса)

nazarovaominaxon17@gmail.com

samandarleytenant2@gmail.com

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения рассматривается влияние социальных сетей, усилившееся с развитием современных технологий, на психику человека и проблемы виртуальной зависимости. Основное внимание уделяется таким аспектам, как теория социального сравнения (Festinger, 1954), зависимость от дофамина (Alter, 2017), психологические последствия кибербуллинга (Hinduja & Patchin, 2018) и расстройства внимания (Ophir et al., 2009). В статье предлагаются практические методы преодоления виртуальной зависимости, включая цифровой детокс, техники управления временем (Mark et al., 2018) и когнитивно-поведенческую терапию (Young, 2015). Материал, основанный на исследованиях, имеет практическую ценность для психологов, педагогов и активных пользователей социальных сетей.

Ключевые слова: социальные сети, психическое здоровье, виртуальная зависимость, FOMO, цифровой детокс, кибербуллинг.

Kirish

Zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan ijtimoiy tarmoqlar inson hayotiga chuqur kirib bordi. Ularning ijtimoiy aloqalar, ish jarayonlari va ma'lumot almashinuviga ijobiy ta'siri bor bo'lsa-da, psixologik salomatlikka salbiy oqibatlari ham tobora ko'proq o'rganilmoqda. Virtual qaramlik, depressiya, nomutanosib taqqoslash va atrof-muhit bilan uzilish kabi



muammolar zamonaviy psixologiyaning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning psixikaga ta'siri va ularning oldini olish usullari ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning psixik salomatlikka ta'siri

1. Qiyoslash va o'zini yetarlisiz his qilish (*Social Comparison Theory*)

Festingerning (1954) "*Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi*"ga ko'ra, odamlar o'zlarini boshqalar bilan solishtirish tendentsiyasiga ega. Ijtimoiy tarmoqlarda bu ko'proq "yuqoriga qarab taqqoslash" (*upward comparison*) shaklida namoyon bo'lib, foydalanuvchilarda past kayfiyat va o'zini qoniqmaganlik hissini keltirib chiqaradi (Vogel et al., 2014).

2. Virtual qaramlik va dopamin tizimi

Ijtimoiy tarmoqlar dopamin qo'zg'alishiga olib keladi, bu esa odamni doimiy ravishda yangi kontent qidirishga undaydi (Alter, 2017). "Nomofobiya" (telefonsiz qolish qo'rquvi) va FOMO (*Fear of Missing Out*) sindromlari aynan shu mexanizm asosida rivojlanadi (Przybylski et al., 2013).

3. Kiberzorilik va depressiya

Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasining (APA) tadqiqotlariga ko'ra, kiberzorilik qurbonlari orasida depressiya, tashvish va hatto o'z joniga qasd qilish fikrlari ko'proq uchraydi (Hinduja & Patchin, 2018).

4. Ko'p vazifalilik va diqqat buzilishi

Stanford universitetining o'rganishlarida ko'rsatilishicha, ijtimoiy tarmoqlar bilan shug'ullangan odamlar diqqatni jamlashda qiyinchiliklar boshdan kechiradi (Ophir et al., 2009).

Virtual qaramlikning oldini olish usullari

1. Vaqtni boshqarish texnikalari

Pomodoro usuli yoki "*Screen Time*" dasturlari orqali foydalanish vaqtini cheklash samarali hisoblanadi (Mark et al., 2018).

2. "Digital detox" amaliyotlari

Psixologlar tomonidan tavsiya etilgan 24-48 soatlik texnologiyadan uzilish (*digital detox*) stressni kamaytiradi (Radwanick, 2019).

3. Kontentni filtratsiya qilish

Algorithmik tanlovlarni o'zgartirish ("*Unfollow*", "*Snooze*") orqali salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin (Andreassen et al., 2017).

4. Psixoterapiya va CBT usullari

Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT) virtual qaramlikni bartaraf etishda samarali hisoblanadi (Young, 2015).

Xulosa

Ijtimoiy tarmoqlar psixik salomatlikka ikkilangan ta'sir ko'rsatadi, yani ijobiy va salbiy. Ulardan foydalanishda o'z-o'zini nazorat qilish, vaqtni boshqarish va sifatli kontentni tanlash



asosiy qoidalardir. Agar qaramlik alomatlari sezilsa, mutaxassis bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Festinger, L. (1954).** *A Theory of Social Comparison Processes.*
2. **Vogel, E. A. et al. (2014).** *Social Comparison on Social Media.*
3. **Alter, A. (2017).** *Irresistible: The Rise of Addictive Technology.*
4. **Przybylski, A. K. et al. (2013).** *Motivational, emotional, and behavioral correlates of fear of missing out.*
5. **Hinduja, S. & Patchin, J. W. (2018).** *Cyberbullying: Identification, Prevention, and Response.*
6. **Andreassen, C. S. et al. (2017).** *The relationship between addictive social media use and depression.*

**SURXONDARYO VILOYATI AHOLISI ORASIDA GLAUKOMA
KASALLIGINING OLDINI OLIISH VA ERTA TASHXISLASH MUAMMOLARI.**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali “Otorinolariningologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası” Assistenti:

Esanova Nafisa Alisherovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali davolash fakulteti 5- bosqich talabalari:

Xo‘janazarov Behruz Murodullayevich

Ahatov Mahmud Xolturayevich

Annotatsiya: Glaukoma — optik asabning progressiv degeneratsiyasi bilan kechuvchi kasallik bo‘lib, ko‘rish maydonining asta-sekin qisqarishi va oxirida tuhfa ko‘rishgacha olib kelishi mumkin. Dunyo bo‘yicha glaukomaning epidemiologik yuklamasi ortib bormoqda, xususan Osiyo va Markaziy Osiyo hududlarida. Glaukomaning oldini olish va erta tashxislash bo‘yicha mahalliy, okulyar va salomatlik tizimi darajasida tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Ushbu maqola glaukomaning epidemiologiyasi, xavf omillari, diagnostika usullari, oldini olish choralari hamda yurtimizni har bir hududlarida va hususan Surxondaryo konteksti uchun muommolar va takliflar muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Glaukoma, Oldini olish, Erta tashxis, Glaukoma, Intraokulyar bosim, Optik asab, Surxondaryo viloyati, Epidemiologiya

Asosiy qism: Glaukoma — dunyoda kataraktadan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi qaytib bo‘lmas korlik sababchisi hisoblanadi. Glaukoma turli turlarga bo‘linadi: **birlamchi ochiq burchakli (primary open-angle glaucoma, POAG), birlamchi burchak yopilishi bilan (primary angle-closure glaucoma, PACG) va ikkinchi glaukoma** (masalan, uveitga, pseudoeksfoliatsiyaga, travmaya, steroid qo‘llashga bog‘liq). Osiyoda va Markaziy Osiyoda glaukomaning prevalensiyasi va tendensiyalari bir necha tadqiqotlar orqali tahlil qilingan: misol uchun, Osiyoda 40–80 yoshdagilarda umumiy glaukomaning prevalensasining 3,54 % ga tengligi aniqlangan (POAG — 2,34 %, PACG — 0,73 %). Shu bilan birga, Janubiy Osiyoda o‘tkazilgan meta-tahlilda umumiy prevalensiya ~2,1 % bo‘lishi, POAG va PACG nisbatlari ham tahlil qilingan O‘zbekiston bo‘yicha, jinlik va hududlar bo‘yicha disaggregatsiyalangan ma‘lumotlar oz bo‘lsa-da, “Uzbekistanda glaukomaning incidental o‘zgarishlari” nomli maqolada 2010–2019 yillarga oid diagnostika bilan bog‘liq statistik ma‘lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, Sirdaryo (Surxondaryo bilan geografik qo‘shni hudud) bo‘yicha aholi orasidagi glaukomaning prevalensiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ma‘lum

Maqola maqsadi: Surxondaryo viloyati aholisida glaukomaning oldini olish va erta tashxislash choralari, ularning muammolari va imkoniyatlarini tahlil etish va takliflar ishlab chiqish.



Epidemiologiya va mahalliy ma'lumotlar

- Sirdaryo (Surxondaryo yaqin hudud) bo'yicha aholi orasida glaukomaning prevalensiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda ma'lum nisbatlar keltirilgan.
- O'zbekiston bo'yicha yangi aniqlangan kasallarning soni va ilk tashrifdagi tashxislar statistikasi yuritilgan: 2010–2019 yillarda glaukomaga yangi tashxislangan bemorlar soni va birinchi tashrifdagi tashxislar soni bo'yicha yilma-yil ma'lumotlar tahlil qilingan.
- Bundan tashqari, O'zbekistonda glaukomaga bog'liq nogironlik va kasallik yukining o'zgarishlari ham ko'rilgan: glaukoma bilan bog'liq nogironlik (Disability) darajasidagi statistik tendensiyalar tahlil qilingan.
- B&R (Belt & Road) mamlakatlarida glaukomaning kasallik yuklamasi tahlil qilingan bo'lib, bu O'zbekiston uchun ham solishtirma bazaviy ma'lumot bo'lishi mumkin.

Ushbu ma'lumotlar Surxondaryo viloyati uchun bevosita demasada, yaqin hudud va respublika darajasida maqbul boshlang'ich nuqtani beradi. Lekin mahalliy aholi tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, sog'liqni saqlash tizimi ko'rsatkichlari, sog'lom turmush tarzi farqlari tufayli hududiy xususiyatlar katta ahamiyatga ega.

Xavf omillari

Glaukomani rivojlantirish ehtimolini oshiruvchi asosiy xavf omillari quyidagilar:

1. **Yoshi** — yoshi kattalar ($> 40\text{--}50$ yoshdan oshganlar)da glaukomaning ehtimoli sezilarli darajada ortadi.
2. **Intraokulyar bosim (IOP)** — yuqori IOP glaukomaning asosiy xavf omili hisoblanadi. Hatto normal diapazonda lekin yuqori tomonga yaqin bo'lgan IOP ham xavfni oshirishi mumkin.
3. **Jins** — ko'pchilik tadqiqotlarda erkaklarda glaukoma xavfi biroz yuqoriroq bo'lishi qayd etilgan.
4. **Vascular (qon tomir) omillar** — retinal arterioskleroz, mikroangiopatiya, oksidativ stress, yurak-qon tomir kasalliklari bilan bog'liq bo'lgan holatlar glaukoma xavfini oshirishi mumkin.
5. **Qarama-qarshilikka moyillik** — masalan, pseudoeksfoliatsiya sindromi, pigment dispersiyasi, travma, yuqori miopiya, kortikosteroid qo'llanilishi, diabet va gipertenziya kabi holatlar ikkinchi glaukoma riskini oshiradi.
6. **Genetik moyillik va etnik xususiyatlar** — ayrim etnik guruhlar PACG yoki POAG shakllariga nisbatan yuqoriroq moyillikka ega ekanligi aniqlangan.

Surxondaryo aholisida yuqoridagi omillar nisbatan keng tarqalgan bo'lishi mumkin — masalan, boshqalar qatorida qandli diabet, gipertenziya, yuqariga yo'naltirilgan yurak-qon tomir kasalliklari, shuningdek, sog'lom hayot tarzining pastligi. Shu sababdan, glaukomani oldini olish strategiyalari ayniqsa ushbu xavf guruhlariga yo'naltirilishi lozim.

E'lon qilingan diagnostika va skrining usullari, ularning cheklovlari

Glaukomaning erta tashxislanishi uchun turli metodikalar qo'llaniladi:



- **Tonometriya** (non-kontakt pnevmatik tonometriya, Goldmann tonometriya, Maklakov tonometriya va boshqalar) — IOP o'lchovlari skriningda juda keng qo'llanadi. Masalan, Qozog'istonda milliy glaukom skrining dasturida tonometriya bosh skrining vositasi sifatida ishlatilmoqda.
- **Gonioskopiya** — kameraning burchagini baholash, burchak yopilishi xavfini aniqlash uchun zarur.
- **Perimetriya (vizual maydon testi)** — ko'rish maydonidagi yo'qotishlarni aniqlash, ammo faqat bizonalogik test bo'lgani uchun kasallik juda rivojlangan bosqichda aniqlanishi mumkin.
- **Optik koherens tomografiya (OCT)** — optik asab va tarmoqli tolalarning struktural holatini baholash uchun qo'llanadi.
- **Kam kasallarga mo'ljallangan skrining dasturlari** — masalan, yuqori xavf guruhi bo'lgan bemorlarga yo'naltirilgan tekshiruvlar.

Biroq, diagnostika va skriningda quyidagi muammolar uchraydi:

- Resurs cheklovi — viloyat shifoxonalarda zamonaviy OCT, perimetriya uskunalari cheklangan bo'lishi mumkin.
- Sifat nazorati — tonometriya va boshqa testlarda standartlashtirilmagan usullar yoki tajriba farqi aniqlikni pasaytiradi.
- Bemor yondashuvi — aholi orasida ko'z kasalliklari bo'yicha profilaktika va erta tashxisga qiziqish past bo'lishi mumkin.
- Skrining qamrovi va yo'naltirilgan guruhlar masalasi — kimlarni tekshirish kerakligi, tekshirish chastotasi va moliyalashtirish modeli aniqlanmagan.
- Yozma statistik va ma'lumotlar tizimi cheklovlari — viloyat va shahar, qishloq bo'yicha disaggregatsiyalangan ma'lumotlar yetarli emas.

Surxondaryo viloyatiga mos strategiya va takliflar

Surxondaryo viloyati kontekstida glaukomaning oldini olish va erta tashxislash bo'yicha quyidagilarni kiritsak yaxshi bo'lardi:

1. Xavf guruhlariga yo'naltirilgan skrining

- ✓ 40 yosh va undan katta bemorlar, ayniqsa yuqori IOP, diabet, gipertenziya, yaqin qarindoshlarida glaukoma bo'lganlar.
- ✓ Har 2–3 yilda IOP va gonioskopyani tekshirish.
- ✓ Agar IOP yuqori bo'lsa yoki burchak yopilishi xavfi bo'lsa, perimetriya va OCT tavsiya qilish.

2. Mobil ko'z tekshiruv brigadalari

- ✓ Qishloq joylarda ham skrining va diagnostika xizmatlarini olib borish uchun mobil brigadalar tashkil etish, tonometriya va fundus tekshiruvi uchun portativ uskuna bilan jihozlash.



✓ Sog'liqni saqlash markazlari hamda oilaviy tibbiyot mutaxassislari bilan hamkorlikni kengaytirish.

3. **O'qitish va xalqni xabardor qilish kampaniyalari**

✓ Aholi orasida glaukomaning xavfi, alomatlari (masalan, ko'rish chekkasida tushish, ko'rishda “tunel” effekt bo'lishi) haqida ma'lumot berish.

✓ Sog'liqni saqlash markazlarida posterior segment tekshiruvlari, IOP o'lchovlari va ko'z shifokorlari tashrifi bo'yicha targ'ibot.

✓ Tibbiyot xodimlarini (oilaviy shifokor, oftalmolog, oftalmolog texnik) malakasini oshirish.

4. **Resurslarni modernizatsiya qilish va jihozlash**

✓ Yangi OCT, perimetriya va tonometriya uskunalarini viloyat markaziy tumanda markazlashtirish.

✓ Masofaviy (telemeditsina) hududlar uchun fundus-rasmlar yuborish va mutaxassis maslahatlari olish tizimini yaratish.

Xulosa: Glaukoma — qaytib bo'lmas ko'rish yo'qotishiga olib kelishi mumkin bo'lgan jiddiy oftalmologik kasallik. Surxondaryo viloyati aholisida uning oldini olish va erta tashxislash bo'yicha imkoniyatlar va muammolar mavjud. Xavf omillari, diagnostika usullari va hududiy manbalardagi cheklovlar inobatga olinsa, xavf guruhlariga yo'naltirilgan skrining, mobil brigadalar, ma'lumot tarqatish, resurslar modernizatsiyasi va ma'lumotlar tizimi uyg'un strategiya bilan amalga oshirilishi mumkin. Shu tarzda, glaukomadan keladigan ko'rish yo'qotishining oldini olish va aholi salomatligini yaxshilash yo'lida samarali choralar qabul qilish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Glaucoma in Asia: regional prevalence variations and future projections. (PubMed)
2. A Systematic Review and Meta-Analysis of Population-Based Studies (glaucoma, South Asia)
3. Longitudinal changes in the incidence of glaucoma in Uzbekistan (2010–2019)
4. Longitudinal changes in the disability due to glaucoma in Uzbekistan
5. Epidemiological variations and trends in glaucoma burden in the Belt & Road countries
6. Epidemiology and risk factors of glaucoma in a comprehensive cohort (Gangnam Eye Cohort Study)
7. Glaucoma screening in Kazakhstan: national program analysis
8. The prevalence of glaucoma in Sirdaryo region, Uzbekistan
9. Secondary glaucoma and pseudoexfoliation syndrome – epidemiology and mechanisms.
10. Glaucoma in Asian populations — anatomico-ethnic predispositions

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING HUQUQIY MAQOMI**

Boyovut tuman Adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi Boshyuriskonsulti

M.Shodmonova

ShodmonovaMunisa98@gmail.com

Kalit so'zlar: *davlat fuqarolik xizmati, davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi, davlat fuqarolik xizmati lavozimlari reyestri*

Annotatsiya: *davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo'naltirish, aholining davlat xizmatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish, soxaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish*

So'nggi yillarda davlat fuqarolik xizmati tizimining huquqiy tashkiliy va uslubiy asoslarini belgilash, sohaga doir qonun hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarning olib borilishi natijasida quyidagilarga erishildi:

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil amaliyotga joriy etildi hamda davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy mezonini etib belgilandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yilda “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning amal qilishi Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi.

Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin, ya'ni biz kimlarni davlat fuqarolik xizmatchilari deyishimiz mumkin? **Davlat fuqarolik xizmati** bu davlat xizmatining bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimi esa davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.

Davlat fuqarolik xizmati tizimi davlat fuqarolik xizmatchilarini markazlashtirilgan tarzda tanlab olish, hisobga olish, joy-joyiga qo'yish, ularning mehnatiga haq to'lash, kasbiy kompetensiyasini oshirish va xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarish mexanizmlarining yagona tashkiliy-huquqiy majmuidir.

Belgilangan malaka talablariga muvofiq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat fuqarolik xizmatiga kirish uchun teng imkoniyatlar kafolatlanadi.

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun kasbiy kompetensiyasini



shakllantirish davlat fuqarolik xizmatchisini qayta tayyorlashni, uning malakasini oshirishni, ta'lim olishini tashkil etish hisobidan ta'minlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisini tegishli ravishda rag'batlantirish va xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarish uning kasbiy kompetensiyalarini hamda alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholash asosida ta'minlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlariga va toifalaridan kelib chiqqan holda davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining quyidagi malaka darajalari beriladi:

Rahbar kadrlarga Oliy darajali 1-3-darajali maslahatchi malaka darajalari, boshqaruv va mutaxassislariga 1-6-darajali xizmatchi malaka darajalari beriladi.

Amaldagi mehnat kodeksiga ko'ra mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llashga haqli:

- 1) hayfsan;
- 2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin.
- 3) mehnat shartnomasini bekor qilish

Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonunga ko'ra

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llaniladi:
hayfsan;

o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;

malaka darajasini pasaytirish;

davlat fuqarolik xizmati lavozimini pasaytirish;

egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mehnat kodeksi
2. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun

**GIDROSEFALIYA (GYDROCEPHALIA)*****Xalimbayeva Zulhijja Said qizi******Ergasheva Dilbar Sherzod qizi****Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi 2-kurs talabalari****Ilmiy rahbar: Mansurova Dilorom Aslonovna****Alfraganus Universiteti Tibbiyot kafedrası katta o'qituvchisi****Alfraganus University, Tashkent, Uzbekistan***

Annotatsiya. Ushbu maqolada gidrosefaliya (miya qorinchalarida orqa miya suyuqligining ortiqcha to'planishi) haqida zamonaviy ma'lumotlar yoritilgan. Likvor fiziologiyasi, uning hosil bo'lishi va aylanish yo'llari, Lyushka va Mojandi teshiklarining roli tushuntiriladi. Tug'ma va orttirilgan shakllar, kommunikatsion va obstruktiv turlari, shuningdek, bolalar va kattalarda uchrashi, klinik belgilari, diagnostika usullari va davolash strategiyalari batafsil bayon etiladi. Jarrohlik usullar, jumladan shuntlash va endoskopik uchinchi ventrikulostomiya imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: gidrosefaliya, likvor, Lyushka teshigi, Mojandi teshigi, obstruktiv, kommunikatsion, shunt, ventrikulostomiya

Аннотация. В данной статье представлены современные сведения о гидроцефалии — избыточном накоплении спинномозговой жидкости в желудочках головного мозга. Рассмотрены физиология ликвора, механизмы его образования и циркуляции, а также роль отверстий Люшка и Мажанди. Подробно освещены врожденные и приобретенные формы, коммуникативный и обструктивный типы заболевания, клинические проявления у детей и взрослых, методы диагностики и подходы к лечению. Проанализированы хирургические методы, включая шунтирование и эндоскопическую третью вентрикулоостомию.

Ключевые слова: гидроцефалия, ликвор, отверстие Люшка, отверстие Мажанди, обструктивная, коммуникационная, шунт, вентрикулостомия

Annotation This article presents updated information on hydrocephalus — excessive accumulation of cerebrospinal fluid (CSF) in the cerebral ventricles. The physiology of CSF, its production and circulation pathways, and the roles of the foramina of Luschka and Magendie are described. Congenital and acquired forms, communicative and obstructive types, as well as clinical features in children and adults, diagnostic methods, and treatment approaches are discussed. Surgical options, including shunting and endoscopic third ventriculostomy, are analyzed.

Keywords: hydrocephalus, CSF, foramen of Luschka, foramen of Magendie, obstructive,



communicating, shunt, ventriculostomy

Kirish. Gidrosefaliya — bu miya qorinchalari va/yoki subaraknoid bo'shliqlarda orqa miya suyuqligi (likvor) ortiqcha to'planishi bilan kechadigan klinik-patologik sindrom bo'lib, u intrakranial bosimning ortishi yoki normal bosim sharoitida yuz berishi mumkin. Ushbu holat markaziy asab tizimining himoya, oziqlantirish va metabolik chiqindilarni chiqarib tashlash mexanizmlarini izdan chiqaradi. Gidrosefaliya tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin; etiologik omillarga rivojlanish nuqsonlari, infeksiyalar, qon quyilishlar, o'smalar va travmatik shikastlanishlar kiradi. Likvor aylanishida Lyushka va Mojandi teshiklarining anatomik va funksional ahamiyati katta bo'lib, ularning obstruksiyasi yoki atreziyasi likvor oqimini to'sib, obstruktiv gidrosefaliya rivojlanishiga sabab bo'ladi [1]. Zamonaviy tibbiyotda gidrosefaliyani o'z vaqtida aniqlash va davolash bemorning hayot sifati va nevrologik funksiyalarini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, pediatrik amaliyotda kechikkan tashxis aqliy va jismoniy rivojlanishning jiddiy buzilishlariga olib kelishi mumkin.


Gidrosefaliyaning kelib chiqishi va tasnifi. Gidrosefaliya kelib chiqishiga ko'ra tug'ma va orttirilgan shakllarga bo'linadi. Tug'ma shakl homila davrida yoki tug'ilgandan keyingi dastlabki haftalarda yuzaga keladi va asosan markaziy asab tizimining tug'ma nuqsonlari, xususan Lyushka va Mojandi teshiklarining atreziyasi, miya nayining yopilishi yoki boshqa malformatsiyalar bilan bog'liq bo'ladi [1]. Orttirilgan gidrosefaliya esa miya travmalari, o'smalari, qon quyilishlar, infeksiyalar va boshqa patologik omillar natijasida rivojlanadi. Likvor aylanishidagi buzilish mexanizmiga ko'ra gidrosefaliya obstruktiv (no-kommunikatsion) va kommunikatsion turlarga bo'linadi. Obstruktiv shaklda likvor oqim yo'llaridan biri mexanik tarzda berkiladi (masalan, Sylviya suv yo'li stenozi), bu esa yuqoridagi qorinchalarda bosim ortishiga olib keladi. Kommunikatsion shaklda esa likvor ishlab chiqarilishi normal bo'lsa-da, uning subaraxnoid bo'shliqdan venoz tizimga so'rilishi buziladi, bu holat ko'pincha meningit, subaraxnoid qon quyilish yuzaga keladi [2]. Joylashishiga ko'ra gidrosefaliya ichki, tashqi va aralash turlarga ajratiladi.

Patogenez. Markaziy asab tizimida likvor asosan miya qorinchalaridagi xoroid pleksuslar tomonidan ishlab chiqariladi (kuniga o'rtacha 500 ml) va uning asosiy vazifasi miya va orqa miya to'qimalarini himoyalash, metabolitlarni chiqarish va mexanik barqarorlikni ta'minlashdir. Likvor lateral qorinchalardan Monro teshiklari orqali uchinchi qorinchaga, undan Sylviya suv yo'li orqali to'rtinchi qorinchaga, so'ng Lyushka va Mojandi teshiklari orqali subaraxnoid bo'shliqqa o'tadi. Ushbu tizimning istalgan bosqichidagi to'siqlar yoki so'rilishdagi nuqsonlar gidrosefaliyaga sabab bo'ladi [3]. Obstruktiv gidrosefaliyada oqim yo'li mexanik tarzda berkiladi va yuqoridagi qorincha segmentlarida bosim ortadi, kommunikatsion gidrosefaliyada esa so'rilish jarayoni buziladi, natijada miya qobig'i ostidagi bo'shliqlar ham kengayadi.



Bolalar va kattalarda klinik belgilari. Bolalarda gidrosefaliya ko‘pincha bosh aylanasing tez kattalashishi bilan namoyon bo‘ladi, chunki bosh suyagi chig‘anoqlari hali qotmagan bo‘ladi. Shuningdek, bosh terisida kengaygan venalar, pastga qarash (Parino simptomi), qayt qilish, bezovtalik va psixomotor rivojlanishning kechikishi kuzatiladi [4].

Kattalarda bosh suyagi chig‘anoqlari yopilgan bo‘lgani sababli intrakranial bosim ortishi bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, qusish, ko‘rishning pasayishi, muvozanat buzilishi va aqliy faoliyatning sustlashishi kabi simptomlar bilan kechadi. Normal bosimli gidrosefaliyada uchlik belgi (yurishning buzilishi, demensiya va siydik tuta olmaslik) diagnostik ahamiyatga ega. [5]



Diagnostika. Kompyuter tomografiya (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) qorinchalarning kengayishini, oqim yo‘lidagi to‘siqlarni va miya to‘qimalarining siqilishini ko‘rsatadi. Oftalmoskopiyada ko‘pincha ko‘rish nervi diskining shishishi aniqlanadi. Lumbal ponksiya yordamida likvor bosimi va tarkibi baholanadi.

Davolash. Konservativ davolash faqat yengil yoki vaqtinchalik hollarda qo‘llanadi va diuretiklar (asetazolamid, furosemid) hamda simptomatik terapiyani o‘z ichiga oladi. Asosiy davolash usuli jarrohlik bo‘lib, ventrikuloperitoneal shunt yordamida qorinchalardan qorin bo‘shlig‘iga likvor chiqariladi. Obstruktiv shakllarda endoskopik uchinchi ventrikulostomiya samarali hisoblanadi [6].



Asoratlari. Davolash kechiktirilsa yoki noto'g'ri olib borilsa, gidrosefaliya intrakranial gipertenziya, ko'rish nervi atrofiyasi, aqliy va psixomotor rivojlanishning kechikishi, shunt infeksiyalari va disfunktsiyasi kabi og'ir asoratlarni keltirib chiqaradi [7].

Mavzuning dolzarbligi

Gidrosefaliya — asrlar davomida tibbiyotda eng ko'p uchraydigan va haligacha to'liq yechimini topmagan murakkab nevrologik muammolardan biridir. Bu kasallik nafaqat bolalarda, balki kattalarda ham uchraydi va o'z vaqtida tashxis qo'yilmasa, jiddiy nogironlik yoki o'lim bilan yakunlanishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gidrosefaliya tug'ma nuqsonlar orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi va perinatal davrdagi o'lim hamda rivojlanishdan orqada qolishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Kattalar orasida esa posttravmatik, postinfeksion va normal bosimli gidrosefaliya ko'p uchrab, ularning ko'pchiligida demensiya, muvozanat buzilishi va ijtimoiy faoliyatdan chekinishga olib keladi [8].

Zamonaviy tibbiyotda ventrikuloperitoneal shunt va endoskopik uchinchi ventrikulostomiya singari jarrohlik usullar mavjud bo'lsa-da, ularning samaradorligi 100% emas, shunt infeksiyalari va disfunktsiyasi kabi asoratlari hana yuqori foizda qayd etiladi. Shu sababli gidrosefaliyaning **patofiziologiyasini chuqur o'rganish**, glymphatic tizim, xoroid pleksusdagi ion transport mexanizmlari, likvor aylanishining molekulyar asoslari kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan izlanishlar katta ahamiyat kasb etadi (ScienceDirect, 2024). Mavzuning dolzarbligi shundaki, gidrosefaliyaning erta tashxisi va samarali davolash choralarini ishlab chiqish nafaqat bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, balki ularning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, yangi farmakologik terapiyalar, individual yondashuvlar va neyroxirurgik texnologiyalarning rivojlanishi ushbu kasallikning oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Gidrosefaliya — bu murakkab etiologiyaga ega bo'lgan, turli yosh guruhlarida uchraydigan, markaziy asab tizimi kasalligi. Likvor fiziologiyasining asosiy bosqichlarini va uning aylanish yo'llarini, xususan Lyushka va Mojandi teshiklarining ahamiyatini tushunish, kasallik patogenezini chuqurroq anglashga imkon beradi. Bolalarda gidrosefaliya ko'pincha tug'ma nuqsonlar yoki perinatal shikastlanishlar natijasida yuzaga kelsa, kattalarda travma, o'sma, qon quyilish va infeksiyalar yetakchi omillar hisoblanadi. Davolashda konservativ yondashuv faqat ayrim hollarda yetarli bo'lishi mumkin, ammo ko'p hollarda jarrohlik — ventrikuloperitoneal shunt yoki endoskopik uchinchi ventrikulostomiya — asosiy tanlov bo'lib qoladi. Erta tashxis va to'g'ri davolash strategiyasi nafaqat nevrologik asoratlarni kamaytiradi, balki bemorning ijtimoiy moslashuvi va hayot sifatini ham yaxshilaydi. Shuning uchun gidrosefaliya bo'yicha klinik yondashuv multidisipliner bo'lishi, nevrolog, neyroxirurg, pediatr va rehabilitologlarning hamkorligini talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Greenberg MS. *Handbook of Neurosurgery*. 9th ed. Thieme, 2020.
2. Sakka L, Coll G, Chazal J. Anatomy and physiology of cerebrospinal fluid. *Eur Ann Otorhinolaryngol Head Neck Dis*. 2011;128(6):309–316.
3. Rekate HL. A contemporary definition and classification of hydrocephalus. *Semin Pediatr Neurol*. 2009;16(1):9–15.
4. Sakka L, Coll G, Chazal J. Anatomy and physiology of cerebrospinal fluid. *Eur Ann Otorhinolaryngol Head Neck Dis*. 2011;128(6):309–316.
5. Bruni JE. Ependyma of the central nervous system. *Biol Rev Camb Philos Soc*. 1998;73(4):429–466.
6. Oi S, Di Rocco C. Proposal of “evolution theory in cerebrospinal fluid dynamics” and minor pathway hydrocephalus in developing immature brain. *Childs Nerv Syst*. 2006;22(7):662–669.
7. Warf BC. Hydrocephalus in Uganda: the predominance of infectious origin and primary management with endoscopic third ventriculostomy. *J Neurosurg*. 2005;102(1 Suppl):1–15.
8. Relkin N et al., 2022

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KASBIY MOTIVATSIYASINING
AMALIYOTDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.**

Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi psixologi,

Bekmuratova Xalima Maksatovna

+99891 541 08 18

E-mail: khalima.0818@gmail.com

khalimabekmuratova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ichki ishlar organlari faoliyatiga xizmatga kirgan xodimlar bilan olib boriladigan psixologik ishlar, treninglar hamda Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litseylar o'quvchilarida kasbiy motivatsiyani shakllantirish, shuningdek, psixologiya fanining o'qitilishi tizimda qanchalik samaradorligi va psixologik ishning asosiy yo'nalishlari tavsiflangan va mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: psixologik tayyorgarlik, Ichki ishlar organlari faoliyatini ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash, kasbiy motivatsiya, kasbiy faollik, o'qitish shakllari psixologik farovonlik, psixologik salomatlik, psixologik yordam.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ko'plab psixologik tadqiqotlar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o'rtasida yuqori darajadagi kasbiy stressni ko'rsatmoqda, bu esa surunkali charchoq, kasbiy charchash, psixosomatik kasalliklar, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, ajralishlar va boshqalarga olib keladi. Kasbning stressli tabiati ham xodimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida, ularning ruhiy va jismoniy salomatligini saqlashda, psixologik farovonlik darajasini oshirishda sub'ektiv hayotiylik rolining dolzarbligidan kelib chiqib, ushbu maqolada xodimlarning ehtiyojlari tahlil qilinadi. Ichki ishlar organlari xodimlarining sub'ektiv hayotiylik darajasini optimallashtirish va mehnat sub'ektlari sifatida ichki resurslarini yangilash va ularning ruhiy barqarorligini mustahkamlash uchun psixologik yordam ko'rsatish.

Psixologik salomatlik, shuningdek, yaxshi jismoniy farovonlik biz kutayotgan Ichki ishlar organlari xodimlarining samarali kasbiy faoliyatining asosiy shartidir. Huquq va erkinliklarimizni samarali himoya qilish, jinoiy xurujlar va zo'ravonliklardan himoya qilish. Aytishimiz mumkinki, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining psixologik xotirjamligi bizning xavfsizligimiz va sog'lig'imizni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan belgilaydi. Har kuni Ichki ishlar organlari xodimlari ko'pchiligimizning xayoliga kelmagan voqealarni eshitadilar va ko'radilar, ular ijtimoiy voqelikning shunday hodisalariga duch kelishadiki, bunda har bir jarayon har qanaqa insonning ruhiy holatiga ta'sir qiladi.



Shuningdek, Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan ishonchsizlik, hamdardlik yoki adolatsizlik, fuqarolarning asossiz ayblovlari tufayli xodimlarning murakkab va xavfli kasbiy faoliyati psixologik-emotsional stressga aylanadi. Zamonaviy hayotning jadal sur'atlari juda katta hayotiylik va energiya sarflashni talab qiladigan mehnat faoliyatining intensivligiga ham ta'sir qiladi, xodimlarning doimiy ravishda o'sib borayotgan kasbiy vaziyatlarga moslashishga majbur qiladi. Bundan tashqari, har kuni xodimlar cheksiz ma'lumotlar oqimiga, ko'plab kutilmagan masalalar va vaziyatlarga, zudlik bilan javob berishni talab qiladigan, reja va majburiyatlarni o'zgartirishga majbur qiladigan muammolarga duch kelishadi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda ruhiy va jismoniy salomatlikka, umuman, Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik madaniyatiga munosabatni o'zgartirish zarur bo'lib, buning asosida psixologik qulaylikka bo'lgan tabiiy intilish bo'lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, xodimlarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va xizmat faoliyati jarayonida stressli holatlarda axloqiy normalarga amal qilish va huquqiy madaniyatning ahamiyatini oshirishdir.

Psixologlar faoliyatining yetakchi yo'nalishlari orasida quyidagilar ajralib turadi: 1) xizmatga nomzodlarni professional psixologik tanlash; 2) ishni qo'llab-quvvatlash paytida xodimlarning psixologik diagnostikasi; 3) jamoalardagi ijtimoiy-psixologik iqlimni va xodimlarning ma'naviy-psixologik holatini o'rganish; 4) yosh xodimlarni moslashtirish; 5) xodimlarning kasbiy va psixologik tayyorgarligi; 6) salbiy psixo-emotsional holatlarning psixologik oldini olish va tuzatish; xodimlarga shaxsiy, oilaviy va kasbiy muammolar bo'yicha psixologik maslahat berish. Idoraviy psixologik xizmatning belgilangan holatini hisobga olgan holda, uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilab berish zarur va xodimlarning mehnat faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq muammolarni hal qilishda tizimli, kompleks yondashuvni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

Bugungi kungacha psixologiya psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, maslahat, trening va boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, psixologlar faoliyati doirasi sezilarli darajada kengayganiga qaramay, idoraviy psixopraktika, boshqa har qanday tirik tizim singari, to'xtamaydi va doimiy takomillashish holatidadir. Bu rivojlanish va amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Xodimlar bilan ishlashning zamonaviy psixotexnologiyalari, birinchi navbatda, kundalik mehnat faoliyati amaliyotining ehtiyojlari va talablariga javob beradi. Shuningdek, faoliyat ko'rsatib kelayotgan xodimlarning ma'naviy-ruhiy salomatligi uchun psixologik yordam ko'rsatish bilan birga Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida ta'lim olayotgan o'quvchilarni oldindan kasbiga bo'lgan sadoqat, ishonch, ya'ni kasbiy motivatsiyasini shakllantirish natijada esa yuqori sifatga ega bo'lgan xodimlarni yetishtirib chiqarish maqsad qilib qo'yilgan. Ya'ni yangi kontseptual yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonda izlanishlar shuni ko'rsatdiki, shaxs murakkab tuzilishga ega bo'lganligi va ish faoliyatida



vazifalar ko'pligidan kelib chiqib, xodim bilan doimiy individual ishlash uchun imkoniyatning yo'qligini inobatga olgan holda, xodimlar bilan doimiy ravishda psixologik rivojlantiruvchi treninglar o'tkazib borish lozim. Quyida treningning asosiy vazifalari ko'rsatilgan.

Psixologik treningning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xodimlarning Ichki ishlar organlariga xos bo'lgan stress omillari va ularning kombinatsiyasi ta'siriga psixologik qarshiligini oshirish;
- Xodimlarda psixologik fazilatlarni rivojlantirish, operatsion faoliyatning har qanday qiyin va xavfli sharoitda barcha kasbiy harakatlarning yuqori samarali bajarilishiga yordam beradigan ko'nikma va qobiliyatlarning maxsus xususiyatlarini shakllantirish.
- Xodimning kasbiy-psixologik yo'nalishi va sezgirliigi (vaziyat va odamlarning psixologik tomonlarini tushunish istagi, qiziqishi va ularni tushunish qobiliyati);
- Xodimning kasbiy harakatlar samaradorligining psixologik shartlarini tushunish va ularni yaratishni ta'minlash qobiliyatida namoyon bo'ladigan kasbiy harakatlar va taktikalar samaradorligining psixologik jihatlariga tayyorligi;
- Operativ va xizmat vazifalarini hal qilishda yuqori samaradorlikni ta'minlovchi psixologik metodlarning butun majmuasini mohirona qo'llashda professional nutq va nutqsiz harakatlarni amalga oshirishning psixologik vositalaridan mohirona foydalanish;
- Rivojlangan kasbiy kuzatuv va xodimning xotirasi (kasbiy kuzatish samaradorligini oshirish uchun psixologik asoslangan texnika va qoidalarni qo'llash qobiliyatini, rivojlangan kasbiy e'tiborni, his va idrokni o'rgatishni, tez, to'liq va to'g'ri yodlashni o'rgatishni, yaxshi eslab qolishni o'z ichiga oladi. Hal qilinishi kerak bo'lgan muhim axborot muammolarini xotirada va to'g'ri takrorlashda);
- Psixologik barqarorlik (xodimning operatsion ishning psixologik qiyin, hissiy stressli, xavfli va mas'uliyatli vaziyatlarda xotirjam va ishonchli harakat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi);
- Psixologik tayyorgarlik xodimning kasbiy mahoratini sezilarli darajada oshiradi. Ilmiy ma'lumotlar va mavjud ijobiy tajriba kasbiy ta'lim tizimiga psixologik tayyorgarlikni maqsadli ravishda oshirishning maxsus vazifalari, shakllari va usullarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Psixologik tayyorgarlik hozirgi vaqtda ichki ishlar organlarida kasbiy tayyorgarlikning muhim turi hisoblanadi;
- Xodimlarning psixologik tayyorgarligi - bu tezkor va xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli, samarali bajarilishini belgilovchi zarur fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish va faollashtirish uchun xodimlarga ta'sir qilishning maxsus tashkil etilgan, maqsadli jarayoni;
- Psixologik tayyorgarlikning o'zi xodimlarning mehnat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, psixologik treningning mazmuni aniq belgilangan kasbiy yo'nalish bilan tavsiflanishi kerak.

Xodimlar uchun psixologik treningning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:



- Jinoyatchilikka qarshi kurashishga psixologik tayyorlikni shakllantirish;
- aniq operativ va xizmat faoliyatining turli jihatlarida psixologik yo'nalishni rivojlantirish;
- Kasbiy ahamiyatga molik kognitiv fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- Turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- Operativ va rasmiy faoliyatning turli holatlarida rolli xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish;
- Fuqarolar bilan muloqotning murakkab, ziddiyatli vaziyatlarida psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini qo'llash qobiliyatini oshirish;
- Tezkor va rasmiy faoliyatning keskin vaziyatlarida o'zini tuta bilish qobiliyatining psixologik barqarorligini shakllantirish;
- Shaxsning ijobiy hissiy va irodaviy xususiyatlarini rivojlantirish, xodimlarni o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi boshqarish usullariga o'rgatish;
- Irodaviy faoliyat va irodaviy harakatlar malakasini shakllantirish;
- Ishda aqliy ortiqcha yuklanishga tayyorgarlik.

Jinoyatga qarshi kurashishga psixologik tayyorlikni shakllantirish. Ko'rinib turibdiki, bu psixologik tayyorgarlikdagi eng muhim narsa. Bu yerda asosiy narsa xodimlarning kasbiy yo'nalishini shakllantirish, ularning kasbiy faoliyatga kuchli kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishdir. Bu ham xodimlarda har qanday huquqbuzarliklarga toqat qilmaslik, qonun normalariga so'zsiz rioya qilish odatini shakllantirish, haqiqat, adolat va qonuniylik hissini yuksaltirishni ham nazarda tutadi. Muayyan operatsion va xizmat faoliyatining turli jihatlarida psixologik yo'nalishni rivojlantirish. Bu xodimlarni psixologiya asoslari bilan tanishtirish, o'z ishida odamlar va guruhlar psixologiyasini hisobga olish ko'nikma va odatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kasbiy jihatdan muhim kognitiv fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish. Bu fazilatlar xodimlarning bilim faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Bularga kasbiy sezgirlik, sezgi, kuzatish, xotira, fikrlash, tasavvur kiradi. Ushbu fazilatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar va treninglar xodimlardan asosiy texnikani va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni yodlash, saqlash va takrorlash samaradorligini oshirish, mantiqiy fikrlash va ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun ma'lum qoidalarni bilishni talab qiladi. Fuqarolarning turli toifalari bilan psixologik aloqa o'rnatish uchun ko'nikma va ularni takomillashtirish va rivojlantirish. Ichki ishlar organi xodimining faoliyatini turli toifadagi fuqarolar (jabrlanuvchilar, guvohlar, gumon qilinuvchilar, tergov ostidagi shaxslar va boshqalar) bilan doimiy muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qabul qilingan operatsion ahamiyatga ega ma'lumotlarning sifati xodimlarning ular bilan muloqot qilish, psixologik aloqa o'rnatish va ishonchli munosabatlarni o'rnatish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida butun faoliyat muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Psixologik trening davomida xodimlar psixologik aloqa o'rnatish usullari tizimini o'zlashtirishlari kerak. Ular notanish odamlar bilan tezda aloqa o'rnatish va ularni o'ziga jalb qilish, odamlarni tinglash



qobiliyati va muloqot jarayonida psixologik to'siqlarni yengib o'tish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Psixologik trening xodimlarni psixologik aloqa o'rnatishni osonlashtiradigan muayyan qoidalarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Operatsion faoliyatning turli holatlarida rolli xatti-harakatlar ko'nikmalarini shakllantirish. Ichki ishlar organi xodimi kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi bu jinoyatlarni ochish yoki oldini olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun foydalaniladigan rolli xatti-harakatlar ko'nikmalaridir. Shu munosabat bilan, psixologik trening davomida xodimlar ichki ishlar organlariga tegishliligini, ularning haqiqiy fazilatlari va sharoitlarini, muloqot maqsadlarini yashirish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak.

Fuqarolar bilan muloqot qilishning murakkab, ziddiyatli vaziyatlarda psixologik va pedagogik ta'sir qilish usullaridan foydalanish qobiliyatini oshirish. Fuqarolar bilan muloqot qilish jarayonida nizoli vaziyatlar ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyati uchun eng xarakterlidir. Shuning uchun xodimlarda ziddiyatli vaziyatni neytrallash qobiliyatini rivojlantirish va nizolarni qanday hal qilishni o'rgatish juda muhimdir. Xodimlarning samaradorligi ko'p jihatdan odamlarni ishontirish, taklif qilish, majburlash, rag'batlantirish kabi psixologik va pedagogik ta'sir ko'rsatishning muayyan usullaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Xodimlar, shuningdek, konfliktli xatti-harakatlar sharoitida, xususan, konfliktli vaziyatdan operativ maqsadlarda foydalanishning turli taktik usullaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak.

Operativ faoliyatning keskin vaziyatlarida o'zini tuta bilish qobiliyatining psixologik barqarorligini shakllantirish. Kundalik amaliy ishda xodimlar kasbiy faoliyat sifatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'plab noqulay psixologik holatlarga duch kelishadi. Va psixologik barqarorlik psixologik tayyorgarlikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi, bu xodimlarning salbiy holatlarga berilmaslik qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bu yerda muhim narsa operatsion va xizmat vazifalarini hal qilishda ushbu qiyinchiliklarni oldindan bilish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Psixologik barqarorlikni shakllantirish xodimlarni maksimal psixologik qiyinchiliklar sharoitida kasbiy harakatlarni mukammal bajarishga o'rgatishda yordam beradi. Bunga amaliy mashg'ulotlar paytida kuchlanishni taqlid qilish orqali erishish mumkin.

Shaxsning ijobiy hissiy va irodaviy xususiyatlarini rivojlantirish. Psixologik barqarorlikni va keskin vaziyatlarda o'zini tuta bilish qobiliyatini shakllantirish xodimlarda ma'lum hissiy va irodaviy shaxsiy xususiyatlarni, masalan, mas'uliyat, muvaffaqiyatsizlikka qarshilik, xavfga moyillik va bardoshlilik, o'zini tuta bilish, chidamlilik va boshqalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Xodim xulq-atvorida o'zini-o'zi boshqarish usullarini egallashi va o'z xatti-harakati va his-tuyg'ularini boshqarishi kerak. Mashg'ulotlar davomida xodimlar o'z-o'zini tartibga solish, asabiy taranglikni bartaraf etish va topshiriqni bajarish uchun ichki resurslarni faollashtirish usullarini o'zlashtirishlari kerak.

Irodaviy faoliyat va irodaviy harakatlar malakasini shakllantirish. Amaliy faoliyatda ichki



ishlar organlari xodimlari o'z ishini samarali olib borishda qiyinchilik tug'diruvchi, ba'zan esa o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga to'sqinlik qiladigan turli qiyinchilik va to'siqlarga duch kelishadi. Bunday vaziyatlarda ular ixtiyoriy faollik ko'rsatishlari, ularni ushbu qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tishga undashlari kerak. Irodaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga o'qitish jarayoniga topshiriqni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan muayyan elementlar va to'siqlarni kiritish yordam beradi. Bunday o'qitish jarayonida to'plangan irodaviy faoliyat tajribasi shaxsning irodasi va irodaviy fazilatlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Bugungi kungacha Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litsey o'quvchilariga psixologik trening mashg'ulotlari o'tib kelinmoqda. Amaliy natija sifatida shuni aytish joizki, yangi qabul qilingan birinchi bosqich o'quvchilari bilan, doimiy ravishda treninglar o'tilgan ikkinchi bosqich o'quvchilarining psixologik holatida, shuningdek yuqorida aytilganidek o'zini tuta bilish qobiliyatida ham har ikkala kursni taqqoslaganda ikkinchi bosqich o'quvchilarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Demak, kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda, xodimlarda stressli vaziyatlarni oldini olishda treninglarning o'tilishi kelajakda bo'lajak xodimlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning irodaviy jihatdan kuchli bo'lishiga va stressli vaziyatlarda o'zini o'zi boshqara olish qobiliyatini rivojlantirishga va **taklif** sifatida litsey o'quvchilariga psixologiya darslarining tashkillashtirilishi kelajakda bo'lajak xodimlarda psixologik tomondan kuchli irodaviy sifatlarga va bilimga ega bo'lishlariga yordam beradi deb ayta olamiz.

Xulosa qilib aytganda, Ichki ishlar organlari xodimlariga doimiy treninglar tashkil qilish, Ichki ishlar organlarining motivatsion, intellektual, kommunikativ va tartibga solish fazilatlarini o'z ichiga oladi. O'zaro ta'sirda ijodkorlik, hukmronlik, jasorat va avtoritarizm, moslashuvchanlik, kurashuvchanlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muvaffaqiyat motivatsiyasi ustunlik qiladigan professional motivatsiya “Kasbning ahamiyati” rivojiga eng katta hissa qo'shadi. Ichki ishlar organlarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarga, balki raxbarlik faoliyatiga ham **psixologik xizmat** - psixologik yordam ko'rsatish xodimlarga kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida keraklidir.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.Sh.M. Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz” – T- 2016.
- 2.Sh. M. Mirziyoyev. “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir” - T- 2019.
3. A.B.Leonova A.S. Kuznetsova “Stress psixoprofilaktikasi” M.: nashriyot uyi. Moskva universiteti, 1993 yil.
- 4.“Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy psixologik tayyorgarligini tashkil etish”, Uslubiy qo'llanma., M., 2003 y.



5. Николаенко П.Д., Князь В.П. (2017) Кочубей — первый министр внутренних дел России: монография. Санкт-Петербург, Издательство Санкт-Петербургского университета МВД России.
6. Александрова, Л. А. Субъективная витальность как личностный ресурс [Электронный ресурс] / Л. А. Александрова // Психологические исследования: электрон. науч. Психологические исследования: электрон. научная журн. - 2011. - №3. - Режим доступа: <http://psystudy.ru/index.php/num/2011n3-17/492-aleksandrova17>. (на русском языке)
7. Ананьев В. А. Основы психологии здоровья [основы психологии здоровья. - СПб., 2006. (на русском языке)
8. Лепешинский И.Ю., Глебов В.В., Листков В.Б., Терекъов В.Ф. Основы военной педагогики и психологии, 2011. - УРЛ: <http://medicinapediya.ru/pedagogika-psixologiya-voennayaosnovyi-voennoypedagogiki.html> (data obrashcheniya: 02.11.2015).

**RAQAMLI TA'LIM MUHITLARIDA KIBERXAVFSIZLIK MASALALARI****Urimbetova Gʻulshad Abdirazakovna**

Nukus shahri 1-sonli politexnikumi maxsus fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitlarining jadal rivojlanish i sharoitida yuzaga kelayotgan kiberxavfsizlik muammolari chuqur o'rganiladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida internet-resurslardan keng foydalanilayotganligi, masofaviy va onlayn o'qitish tizimlarining keng qo'llanilishi, elektron hujjatlar aylanmasi, raqamli baholash vositalari va bulutli texnologiyalarning joriy etilishi raqamli xavfsizlikni ta'minlashni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalar va pedagoglarning shaxsiy ma'lumotlari, o'quv resurslari va elektron tizimlarning himoyalani sh darajasi past bo'lsa, bu butun ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada kiberxavfsizlik tahdidlarining asosiy turlari–phishing, social engineering, zararli dasturlar, parol siyosatidagi zaifliklar, ma'lumotlar sızdirilishi, tarmoq hujumlari – ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, raqamli ta'lim muhitlari, axborot xavfsizligi, uzluksiz ta'lim, onlayn ta'lim platformalari, kibergigiyena, parol siyosati, phishing va social engineering, TryHackMe, HackTheBox, akademik halollik, raqamli texnologiyalar, kiberxavfsizlik madaniyati.

Annotation: This article explores in depth the cybersecurity issues arising in the context of the rapid development of digital learning environments. Today, the extensive use of internet resources in the educational process, the widespread implementation of remote and online learning systems, electronic document circulation, digital assessment tools, and the integration of cloud technologies have made ensuring digital security a pressing issue. In particular, if the level of protection for the personal data of students and educators, educational resources, and electronic systems in higher education institutions is low, it can negatively affect the entire educational process. The article provides a scientific analysis of major cybersecurity threats such as phishing, social engineering, malware, password policy vulnerabilities, data breaches, and network attacks.

Keywords: cybersecurity, digital learning environments, information security, lifelong learning, online learning platforms, cyber hygiene, password policy, phishing and social engineering, TryHackMe, HackTheBox, academic integrity, digital technologies, cybersecurity culture.

Kirish

Raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. An'anaviy o'qitish usullaridan raqamli platformalar, onlayn darslar, elektron darsliklar, www.innovativepublication.uz



bulutli texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan vositalarga o‘tilmoqda. Bunday o‘zgarishlar bilan birga ta’lim muhitida kiberxavfsizlikni ta’minlash zarurati ham ortib bormoqda[1]. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, o‘quv resurslarining muhofazasi, akademik halollik va o‘quv jarayonining texnik xavfsizligi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [2][4].

Bugungi ta’lim muassasalari – ayniqsa, oliy ta’lim tizimi–o‘z infratuzilmasida keng ko‘lamli internet resurslar, elektron axborot bazalari, raqamli kutubxonalar va masofaviy o‘qitish tizimlaridan foydalanadi. Shu bilan birga, turli tahdidlar, xususan, phishing hujumlari, kiberfiribgarlik, ma’lumotlar sızdirilishi, kompyuter viruslari va tarmoq hujumlari kabi xavflar ham bu tizimlarning ajralmas qismiga aylangan.

Asosiy masalalar va muammolar

1. **Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi** – Talaba, o‘qituvchi va xodimlar haqidagi ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash[6][7].
2. **Elektron platformalarga ishonchlilik** – Masofaviy o‘qitish tizimlarining doimiy ishlashini ta’minlash va ularga hujumlar xavfini kamaytirish[4][9].
3. **Kiber gigiyena madaniyati yetishmasligi** – Talaba va o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik va xavfsizlik bo‘yicha bilimlari yetarli emasligi[6][8].
4. **Zararli dasturlar va viruslar** – O‘quv resurslariga kirishda viruslar va zararli ilovalar orqali tizimga zarar yetkazish ehtimoli.
5. **Akademik halollikni buzuvchi vositalar** – Imtihon va topshiriqlarda sun’iy intellekt yoki boshqa vositalar yordamida taqlid qilish holatlari[10].

Raqamli ta’lim muhitlarida kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

Parol siyosatini takomillashtirish: Har bir foydalanuvchi kuchli va noyob parollar bilan tizimga kirishini ta’minlash;

Antivirus va himoya tizimlarini yangilash: Raqamli qurilmalarda doimiy nazorat va himoya tizimlarini ishga solish[3][4];

Kiberxavfsizlik bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari: O‘quvchi va o‘qituvchilarga maxsus treninglar tashkil etish;

Simulyatsion mashqlar: HackTheBox, TryHackMe kabi platformalarda amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimlarni mustahkamlash;

Raqamli etikani o‘rgatish: Onlayn xulq-atvor, axborotni tekshirish va akademik halollik qoidalarini tushuntirish[2][8][10].

Xulosa. Raqamli ta’lim muhitida kiberxavfsizlikni ta’minlash nafaqat texnik, balki ijtimoiy va pedagogik yondashuvlarni ham talab qiladi. Bu yo‘nalishda keng qamrovli strategiyalar, uzluksiz o‘quv dasturlari va muntazam monitoring asosida ish olib borish zarur. Ayniqsa, yosh avlodda raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish orqali, kelajakdagi kibertahdidlarning oldini olishga katta hissa qo‘shiladi. Ta’lim muassasalari bu borada faqat



texnik vositalar bilan emas, balki axborot xavfsizligi bo'yicha zamonaviy metodikalar bilan ham qurollanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Касымов, А.К. *Kiberxavfsizlik asoslari*. 2022. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Tariq, A., & Niazi, M. *Cybersecurity in Digital Education: Risks, Prevention, and Policies*. Springer. 2021.
3. Kaspersky Security Bulletin. *Threat predictions for education systems*. [https://www.kaspersky.com], 2023.
4. Cisco Networking Academy. *Cybersecurity Essentials Course*. [https://www.netacad.com]
5. TryHackMe & HackTheBox – Kiberxavfsizlikni amaliy mashg'ulotlar orqali o'qitish uchun interaktiv platformalar.
6. Bobokalonov, M.M. *Axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat*. 2023. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
7. ISO/IEC 27001 – *Information Security Management Systems (ISMS)* standarti, xalqaro axborot xavfsizligi normalari.
8. Qodirov, Z.X. *Oliy ta'limda raqamlashtirish va uning xavfsizlik talablari*. 2021. O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy to'plami.
9. National Institute of Standards and Technology (NIST).2020. *Framework for Improving Critical Infrastructure Cybersecurity*.
10. UNESCO IITE 2021. *Cybersecurity and privacy for online and blended learning environments*. [https://iite.unesco.org]

**O'zbekiston Respublikasi Prezident davlat xavfsizligi xizmati organlarining
huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirish**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 321-guruh kursanti
Tolibayev Azamat Jumaboy uli*

Annotatsiya.Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezident davlat xavfsizligi xizmati (PDXX) organlarining huquqbuzarliklarni oldini olishdagi o'rni va vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xavfsizlik tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqbuzarliklar profilaktikasida qo'llanilayotgan metodlar hamda ushbu faoliyatni yanada takomillashtirish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar.Davlat xavfsizligi xizmati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, milliy xavfsizlik, jinoyatchilikka qarshi kurash, profilaktik chora-tadbirlar, jamoatchilik hamkorligi, axborot xavfsizligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident davlat xavfsizligi xizmati (PDXX) mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. PDXX faoliyatining asosiy vazifalaridan biri nafaqat davlat suvereniteti va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, balki huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdir. Zero, profilaktika xavfsizlik tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lib, u jinoyatchilikni erta bosqichda oldini olish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va milliy manfaatlarni himoya qilishga xizmat qiladi [1].

Davlat xavfsizligi xizmatining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyati bir necha yo'nalishda olib boriladi. Birinchidan, ichki xavfsizlikni ta'minlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish jarayonida huquqbuzarliklarga moyil shaxslarni aniqlash va ularning noqonuniy harakatlarini oldini olish asosiy vazifa hisoblanadi. Ikkinchidan, axborot xavfsizligini mustahkamlash, yoshlarni zararli g'oyalardan asrash, internet makonida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir [2].

PDXX organlari faoliyatida profilaktika chora-tadbirlari kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladi. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan hamkorlik qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha turli targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Profilaktika jarayonida maxsus xizmatlarning tezkor ma'lumotlaridan foydalanish, xavf guruhidagi shaxslarni nazorat ostiga olish, ularning ijtimoiy muammolarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi [3].



Shu bilan birga, PDXX organlarining profilaktika faoliyatini takomillashtirish zarur bo'lgan bir qator yo'nalishlar mavjud. Jumladan, kadrlarning malakasini oshirish, psixologik yondashuvlardan foydalanish, jamoatchilik bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va huquqiy targ'ibotni kuchaytirish zarur. Ayniqsa, yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni huquqbuzarliklardan chalg'itish maqsadida madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlarini qo'llab-quvvatlash profilaktikaning samaradorligini oshiradi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash ham PDXX organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim omil hisoblanadi. Masalan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi monitoring tizimlari, raqamli ma'lumotlar bazalari, videokuzatuv vositalarini keng joriy etish huquqbuzarliklarni erta bosqichda aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, profilaktika jarayonida internet orqali fuqarolarga interaktiv xizmatlar ko'rsatish, ularning murojaatlari asosida tezkor chora ko'rish tizimini rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biridir [4].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezident davlat xavfsizligi xizmati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish mamlakat xavfsizligini mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda kompleks yondashuv, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish va yoshlarni huquqbuzarliklardan asrash asosiy ustuvor yo'nalishlar bo'lib qoladi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xavfsizligi xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
3. Jo'rayev M. *Milliy xavfsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi*. – Toshkent: TDYUU, 2020.
4. Abdurahmonov T. *Axborot xavfsizligi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati*. – Toshkent: Fan va Hayot, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati ochiq ma'lumotlari, 2023-yil.

**BIZNES ASSOLARI FANINING YOSHLAR KASBIY TAYYORGARLIGIGA
TA'SIRI****Kabilova Mehriniso Jahongir qizi**

Toshkent viloyati transport texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantirishda yoshlarning kasbiy tayyorgarligi muhim omil sifatida qaralmoqda. Yoshlarning samarali ishchi kuchiga aylanishi uchun ular zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart. Ayniqsa, biznes asoslari fanini o'rganish yoshlarni nafaqat tadbirkorlikka tayyorlaydi, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biznes asoslari fanining yoshlar kasbiy tayyorgarligiga ta'siri, uning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Biznes asoslari, kasbiy tayyorgarlik, yoshlar, tadbirkorlik, moliyaviy savodxonlik, ish bozori.

Аннотация: Сегодня профессиональная подготовка молодёжи рассматривается как важный фактор стимулирования экономического роста и инноваций. Чтобы молодёжь стала эффективной рабочей силой, она должна обладать современными знаниями и навыками. В частности, изучение основ бизнеса не только готовит молодых людей к предпринимательской деятельности, но и имеет важное значение для повышения их профессиональных компетенций. В данной статье анализируется влияние основ бизнеса на профессиональную подготовку молодёжи, её значимость и эффективность.

Ключевые слова: Основы бизнеса, профессиональная подготовка, молодёжь, предпринимательство, финансовая грамотность, рынок труда.

Abstract: Today, the professional training of young people is considered an important factor in stimulating economic growth and innovation. In order for young people to become an effective workforce, they must have modern knowledge and skills. In particular, studying the basics of business not only prepares young people for entrepreneurship, but is also important in improving their professional competencies. This article analyzes the impact of the basics of business on the professional training of young people, its importance and effectiveness.

Keywords: Fundamentals of Business, professional preparation, youth, entrepreneurship, financial literacy, labor market.

O'zbekistonda iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish uchun yetarli darajadagi "Tadbirkor yoshlarni" yaxshi kelajakka, farovonlikka, o'zini-o'zi ta'minlashga, hayotdan qoniqishga intiladigan biznesmen, tadbirkorni tarbiyalash kerak. Bu jarayonni uzoq davrga cho'zib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishni jadallashtirish uchun odamlarni, ayniqsa, yosh avlodni ushbu faoliyat sohasining barcha afzalliklari va mavjud



kamchiliklarini hisobga olgan holda o'z biznesini yaratishga o'rgatish talab etiladi. Biznes muvaffaqiyatining asosiy kafolati bu biznes bilimi va ko'nikmalaridir.

Biznes asoslari-bu iqtisodiy faoliyatning nazariy va amaliy jihatlarini o'rgatuvchi fan bo'lib, unda tadbirkorlik, moliyaviy boshqaruv, marketing, menejment, korxona faoliyati kabi asosiy tushunchalar o'rgatiladi. Bu fan yoshlar uchun kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ularning real ish bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga imkon yaratadi.

Biznes asoslari fani yoshlarning analitik tafakkuri, muammolarni samarali hal etish va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini oshiradi. Ushbu ko'nikmalar faqat tadbirkorlik sohasida emas, balki har qanday kasbiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni biznes asoslari bilan tanishtirish ularni yangi g'oyalar yaratishga, mustaqil ish boshlashga va o'z imkoniyatlarini kengaytirishga rag'batlantiradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qiladi. Biznes asoslari fani yoshlarni byudjet tuzish, moliya boshqaruvi va investitsiyalar haqida bilimlar bilan ta'minlaydi. Bu bilimlar ularning shaxsiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ham yordam beradi. Zamonaviy ish bozori talablariga javob beradigan bilimlar va ko'nikmalarga ega yoshlar o'z kasbiy faoliyatlarini muvaffaqiyatli boshlashlari va rivojlantirishlari osonlashadi. Biznes asoslari ta'limi yoshlarni innovatsion fikrlashga rag'batlantiradi, ya'ni ular muammolarni yangi, samarali usullar bilan hal qilishga intilishadi. Ushbu fan yordamida talabalar yangi texnologiyalar va zamonaviy vositalarni o'zlashtirishga o'rgatiladi, bu esa ularning bozor talablariga mos keladigan mahsulot va xizmatlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, biznes asoslari ta'limi kreativ yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi-yoshlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirib, g'oyalarni amaliy loyihalarga aylantirish, yangi biznes modellarini ishlab chiqish va innovatsion tashabbuslar bilan chiqish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Natijada, bu ko'nikmalar yoshlarni nafaqat raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlaydi, balki ularni iqtisodiyotni rivojlantirishda faol ishtirok etishga, o'z bizneslarini yaratishga va jamoat oldida yangi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Xulosa

Biznes asoslari fanining yoshlar kasbiy tayyorgarligiga ta'siri nihoyatda muhim va beqiyosdir. Ushbu fan nafaqat yoshlarning kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi, balki ularning tadbirkorlik ruhini uyg'otishda, moliyaviy savodxonligini oshirishda va zamonaviy ish bozorining talablariga samarali tayyorlashda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalari, shu jumladan oliy va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, hamda davlat hokimiyati organlari biznes asoslari fanini yoshlarning ta'lim dasturlariga kengroq va sifatliroq joriy etishga jiddiy e'tibor qaratishlari zarurdir. Bu esa nafaqat yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tanjiyev A va boshqalar Biznes asoslari O'quv qo'llanma S.: 2022 y.
2. Xodiyev B.Yu Qosimova M.S, Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2011.
3. Johnson P., & Smith, L. The Impact of Business Education on Youth Employment. Journal of Education and Work, 32(4), 367-382.
4. Smith J. Entrepreneurship Education and Its Effects on Youth Motivation. International Journal of Business Research, 15(2), 45-60.

**O'ZBEK TILIDAGI SHAXS TASVIRINI IFODALOVCHI SIFATLARNING
LEKSIKOGRAFIK TALQINI**

Jalilova Marjona Elyor qizi
mirsaidjalilov70@gmail.com

Annotatsiya; Ma'lumki, o'quv lug'atlariga, bugungi kun nazari bilan qaraganda, antropotsentrik lug'at talqinida qarash urf bo'ldi. Mohiyatan qaraganda ham, lingvotsentrik lug'atlardan farqli o'laroq antropotsentrik lug'atlar insonlar hayotiga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qilishi uchun yaratiladi.

Kalit so'zlar; leksikografik, semantizatsiyasi, orfografiya, tizimli leksikagraf, lug'at, muvofiqlik,

